

Tasodifmi Yo Taqdir?

Oltin kuzning safari qarimoqda.

Daraxt shoxlaridan uzilgan barglar jajji varraklar kabi aylanib uchib, yo'laklar, maydonlar uzra yastangan uyum-uyum xazonbarglar ustiga tushib, quyosh nurida oltindek tovlanadi. Hali havo iliq. Qish kech keladiganga o'xshaydi.

Mashinasini yo'l chetida to'xtatgan Rustam to'p-to'p aylanib yurgan talabalarni kuzata turib, soatiga qaradi, vaqt bo'b qopti, kirish kerak, lekin sira oyog'i tortmayapti. "Kim bilan chiqishi ma'lum, baribir shu yerdan o'tadi, yaxshisi, mashina ichida poylab, ko'rib keta qolaman", degan qarorga keldi va mashinaning yaraqlayotgan oppoq derazasidan uzilib tushayotgan barglarga tikilgancha qoldi. Sarg'aygan barglar taqdirda tan berganday shoxdan uzeladi-yu, atrofni keza-keza o'ziga atalgan joyga borib qo'nadi.

Shoxdan uzilishni hecham xohlama kerak.

Qarshi tomondan mayda-mayda, lekin tez-tez qadam tashlab, yerdan ko'z uzmay kelayotgan qizga ko'zi tushib, xayoli bo'lindi.

Etagi tizzasidan yuqori, chiroyli tim ko'k ko'ylik kiygan, oyog'ida oqish tuqli, qo'lida oppoq sumka, oqimtir tasmasi yelkasiga osilgan. Qop-qora sochlari bo'ynimi o'rav turibdi. Oyoqlari chiroyli ekan, yuzi oppoq, hech qanaqa bo'yoq surilmagan. Ortiqcha bezak taqinchoqlariyam yo'q. Faqat bo'ynida ingichka zanjiri bor, uyam ko'ylikka ko'rk berib husnini yanada ochgan. Judayam bejirim, chiroyli malak, qaragan ko'zni o'ynatadi.

Rustam joyida bir qo'zg'alib, xo'rsinib qo'ydi. Go'zal qiz mashina yonidan o'tib, sal narida to'xtadi va kimnidir intiq qidirdi, topolmadi shekilli, bir chekkada turib kuta boshladi. Mashina oynachasidan Rustam kuzatuvni davom ettirdi. "Jiddiyligi bilinib turibdi, likillaganlardan emas ekan". Qiz bir joyda turgancha atrofga alanglatdi, ko'zini pirpiratib, burnini sekin-sekin tortib qo'ydi. "Allambalo qiz, tannozligiyam yo'q, yuz-ko'zi g'uborsiz, yurish-turishida, qarashlarida nozlanish yo'q, lekin qaragan yigitni o'ziga tortadi, tushib gaplashib ko'rsammikan?! Zebo ko'rib qolsa gap ko'payadi. Lekin... shunaqayam chiroyli qiz bo'larkan-da!"

Qiz kimgadir qarab jilmaydi.

Rustam unga tomon chopqillab kelayotgan tog'asining qizini ko'rdi-yu, "Aytganlari shu qiz ekanmi?!" degancha joyida angrayib qoldi. Gohida o'zing kutmagan, sira xayolingga kelmagan voqealar ro'y beradi. Tasodifmi bu yo taqdir?!

Ikki O't Orasida

Bola degani umringni zavoli ekan, xuddi menga kerakdek, zambarak bilan qo'zg'atib bo'lmaydi. Nahotki, uch kundan beri bitta qizni ko'rib kelish qiyin, bolani o'zida bo'lmaqandan keyin, qancha harakat qil bir tiyin, men seni so'qimga boqdimmi o'zi, nima qil deydi, dardi bo'lsa aytmaydi, bu uyni uy qilguncha ado bo'lvdim, seni uylantirguncha go'rga kiraman shekilli, bu ahvolda nima bo'ladi, a? Erta-indin o'ttizga chiqasan, yuraverasanmi, itning keyingi oyog'i bo'lib, og'aynilaring qiz uzatadi, sen qarab turavergin, ertaga ammalaring gap chiqarsin, akam bo'lmasa, kennoyim bir o'zi, hech baloni eplolmaydi, bitta o'g'ilni uylantirolmayapti desin, senga o'zi shu kerak. Peshonamga o'q tegsa bo'lmasmidi? O'z bolam o'zimga dushman!

Ishtahasi allaqachon bo'g'ilib bo'lgan Rustam, qoshiqni aylantirib-aylantirib oxiri to'xtatti, kosani nari surishga yuragi betlamay ko'z qiri bilan onasiga qaradi. Ro'molini jahl bilan yechib, qayta o'ragan onasi:

O'zi asli peshonam sho'r, xudo urganni payg'ambar hassasi bilan turtadi! dedi hasratli ovozda.

Nodira onasining yelkasini siladi.

Oyi? Hadeb nolimang, xudoga xush kelmaydi.

O'chir! Endi sen qoluvding menga aql o'rgatmagan!

Dami ichiga tushib ketgan Nodira ukasiga bir nima desangchi, deganday qaradi.

Rustam boshlanajak janjalning oldini olishga shaylanib:

Oyi, bugun navbatchiman! deya bahona qildi.

Ana, ana boshlandi, qachon men gapirsam bu yo navbatchi bo'ladi, yo tuzatgan kasali o'lib qoladi. Qaysi gunohlarimga xudo menga bu kunlarni ravo ko'rdi! Onasi peshonasiga shapatiladi. Ichimdan tushgan bolamga so'zim o'tmasa-ya! Yo astag'firillo!

Rustam onasining dardini yengillatishni istab:

Oyi, bo'ldi, ko'rib keldim, hozir o'sha yerdan kelib turibman! dedi.

Shusiz ham jazavaga tushib turgan Dilorxonni alam to'g'oni bostirib, dodga keldi:

Ko'rdingmi, ko'rdingmi! Yo'q, bu meni o'dirib qutuladi, menda qasdi bor! ko'rpachaga uzala tushib, dodlay boshladi.

Bu holni ko'p bora ko'raverib, ko'nikib qolgan Rustam o'rnidan turib, doim tayyor turadigan shpritsga papaverin, dimedrol tortib, onasining bilak tomiriga yubordi. Hovliga chiqib piyolada suv olib kirgan Nodira valerianka tomizib ichirdi va onasining kuragini ishqay boshladi.

Uyni yurak dorisining o'tkir hidi tutdi. Xonaga cho'kkani og'ir jimlikni avval o'ng ko'zini, so'ng chap ko'zini ochib, Rustamga g'alati qaragan onasining bo'g'iq tovushi buzdi:

Ko'rgan bo'lsang, endi nima deysan?! Nima bahona topib kelding yana? Kar ekanmi yo g'ilay? Yo gapirganda tupugi oqarkanmi? Gapir!.. Bahonalaringni eshitaverib, xudo hamma qizlarni shunaqa sovuq yaratgan ekan, deb o'ylab qoldim.

Oyi birpas dam oling, hozir yana yuragingiz...

E, quruq mehribonchilik qilma menga.

Nodira nimaga ham gapira qoldim deb, tilini tishlab, o'zi o'tirgan ko'rpachaning chetini asabiy g'ijimlashga tushdi.

Shundoq joy a, shundoq joy, kimdan kam! Hali bersa jon degin, quruq savlatiga osmondag'i oy kerakmi, bolamas balo bo'ldi, qandoq kunda tuqqan ekanman o'zi!

Sabr kosasi to'lgan Rustam:

Bo'ldi, xo'p bilganingizni qiling! Bo'ldimi, qutuldimmi endi?! deya oldidagi kosani to'q etib nari surib qo'ydi.

Dilorxon una chaqchayib qaradi:

Do'q qilma menga!

Nodira jim turolmay yana gapga aralashdi:

Oyi-i?.. Xo'p dedi-ku, yana nimaga urishasiz?!

Ey, men bugun ko'ryapmanmi buni, ko'chaga chiqib aynab keladi, nechtasini shunaqa qildi, ertaga yo'q deb, ikki oyog'inib etikka tiqib turib oladi.

Nodira astoydil o'rtandi:

Yo'q demaydi endi, demaysan-a? Rustam, bir narsa degin! Aynab kelmaysan-a?

Rustam xayolga cho'mdi: institut hovlisi, oppoq sumkasini ushlagancha, yolg'onдан burnini tortib, ko'zini pirpiratayotgan chiroyli

Nigora; oppoq bo'yni, dumaloq yuzi, chirolyi yelkasi, keyin... lablari... Dilorxon tag'in jazavaga tushdi:

Og'ziga talqon solgan bu! Odamni ezishdan boshqa narsani bilmaydi!

Xo'p endi aynimayman! xayoli bo'lingan Rustam past ovozda javob berdi. Tag'in ko'z oldida Nigora jonlanaverdi... keyin yana

birov... Ayni paytda Rustam o'zini ojiz sezdi. U ikkilanardi. Xayolida jonlanayotgan qiyofalarni bir-biri bilan solishtirish to'g'ri

bo'lmas. Bugun ko'rib kelgan qizning go'zalligi oldida hamma narsa ikki pul. Bunaqa chirolyi qizni birovga berib bo'ladi?

Ammo ikkinchi qiyofa-chi? Unda nima bor? Unda na husn, na muomala bor. Ammo eng katta yutug'i hayotiga singigan, ko'ngliga o'tirgan: ko'z o'ngida jilmaygan yoqimtoy Nigora qilt etmay turar, uning go'zalligi borgan sari yigitning yuragini o'z zabitga olmoqda edi. O'sha zahoti Nigoraning yonida ikkinchi qiyofa: "B Men-chi, men borman-ku", deyayotgandek o'zini eslatib turardi. O'g'liga tikilib qolgan Dilorxon rost aytyaptimi yo shunchakimi deb ko'nglidan o'tkazdi, rostligiga ishonch hosil qildi shekilli, sekin o'rnidan turib:

Gaping rost bo'lsa, baxtli bo'lgin, qo'sha qarigin, men unda harakatimni qilay, kim bilan borsam ekan, seni qaynonang birga borarmikan? deb Nodiraga yuzlandi.

Bilmasam oyi, men ham bora qolay, bog'chaga kech qolaman, oyim bilan o'zingiz telefonlashing.

Seni qaynonangdan yorug'lik chiqqanmi o'zi hech, faqat olishni biladi. O'zi uchta quda qilib yolchimadim, zora bunisidan rohat ko'rsam. Juda baquvvat joy ekan, orzu-havasli deyishadi. Bo'pti, sen boraqol, bolaga kech qolma. Men bir amallarman.

Qaynonasidan berkitib, birrov xabar olishga kirganiga ming pushaymon bo'lgan Nodira ichida o'zini-o'zi qarg'ab-qarg'ab ko'chaga chiqdi.

Dugonalar Bor Bo'lsin

Sentabrning mo'tadil havosi yozning jazirama kunlaridan keyin tanni yayratib, kishiga xush yoqadi: issiqni ham, sovuqni ham pisand qilmaydigan yoshlarning g'ovur-g'uvuri institut hovlisini tutib ketgan.

Oxirgi saboqdan dugonalaridan orqada qolib chiqqan Zebo chopqillagancha oldinda ketayotgan Nigora bilan Lazizaga yetib olib: Sartaroshxonaga kiramizmi, yo'qmi? deb so'radi hansirab.

Bugun kech bo'ldi, ko'p o'qidik, ertaga kiraqolaylik, Laziza qoshini chimirib ensasi qotganini yashirmay javob qildi.

Bugun kirishim kerak, Zebo yalingannamo Lazizaga qaradi.

Nuqlu oy eshikka, arava teshikka qadalganda aytasan, shuni vaqtliroq aystsang, manqa domlani darsiga kirmasdig. Shu bugun shartmi?

Shart!

Uchrashuvning borga o'xshaydi, bizdan berkityapsanmi? Bo'ldi, endi biz ham senga hech narsa aytmaymiz! dedi Laziza va jahl bilan bejirim sumkasini yelkasiga osdi-da, ters o'girilib to'mshaydi.

Qo'ysang-chi Lazi, hali nima gap, nima so'z, oldindan do'mbira qilib chalgim kelmadi, o'zi shularga bo'lmasayam kerak, ammalarimga yoqmay turibdi, adasi ishdan ketgan ekan, kecha adamga rosa gapirib ketishdi. Opamga onasi yoqqan edi, miq etolmay qoldilar.

Ammalaringni bir qaynovi ichida-a, adasi ishlasa xo'p, ishlamasa alvido ekan-da??

Boyadan beri jimgina ketayotgan Nigora, Zeboning ammalari haqida so'z ochilishi bilan yuragi hapqirdi. Tiliga chiqarishga qo'rqib, bir oz taraddudlandi, keyin sekingina so'radi:

Ammangni o'g'li ko'rinnmaydi?

Ibratmi?! Kasal-ku u! O'qishga kechroq tushadi... Baribir sochimni to'g'rilitib ketishim kerak, bu ahvolda chiqolmayman. Opam urishib beradilar. Birpasgina meni kutsangB-lar, nima qipti?! Qani, oldimga tushinglar-chi, yalqovlar!

O'qish boshlangandan beri dilidagini sezdirib qo'yishdan qo'rqib, so'rayolmay yurgan Nigora xabar topganidan suyunib, itoatkorlik bilan Zeboga ergashdi. Lekin yana bir savol ko'ndalang turib oldi: qanaqa kasal ekan? So'rasammikan? Bilib qolishsa, Zebo-ku bo'yi baland, yetib borishi qiyin, Laziza darrov aylantiradi. "Nega tergovchiday tergab kolding? Bir baloying bormi?" Siri oshkor bo'lismidan qo'rqqan Nigora miq etmay qizlarga ergashib ketaverdi.

Mana shu kishini o'zimiz bilan olib ketsak bo'lardi! Laziza qorovul amakiga ishora qildi.

Uni nima qilasan? Zebo Lazizaga "rostdan ham birga olib ketasanmi?" deganday ajablanib qaradi.

Soch-soqolini olib, mo'ylovini kaltalatamiz, savob bo'ladi, nuqlu g'ashimga tegadi, ertalab uydan har kuni xursand bo'lib chiqaman, o'qishga kelib shu amakimni ko'rishim bilan hayotdan xafa bo'lib ketaman.

Zebo:

O'zing ham tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadigan bo'lib qolibsan, amaking bilan nima ishing bor? Meni o'ylasang-chi? dedi tutaqib.

Seni o'ylasam yuragim battar qisiladi.

Nega endi?!

Bordiyu, falonchini o'g'liga tegsang, bir oydan keyin adasi ishdan ketsa, ammalaring borib ajratib olisharmikan?

E, nafasing qursin, sovuq!

Institut hovlisidan chiqqan uchala qiz kulishib sartaroshxonaga qarab ketishdi.

Yomg'irda Qolgan Yigit

Ertaga vaqtliroq kela olasanmi, qizim? so'radi oyisi Nigoradan chala pishirib olingen karam bargiga guruchli qiyma o'rarkan.

Tizzasida jiyanini o'ynatib o'tirgan Nigora gap tagidagi nimkosani darrov sezdi.

Oyi, ertaga darslarim ko'p! deya bahona qildi noiloj.

Gapga kelinoyisi aralashdi:

Uch marta kelishdi, uchalasidayam rasmimgizni ko'rsatvordik. Hadeb birovni ovora qilish yaxshimas, Nigorxon! Kechroq kelinglar deyo masak, ular kelib ketaveradi, oyijonim xijolat bo'laveradilar, endi bir amallang.

Nigora jiyanini ko'tarib o'rnidan turdi:

Ovqatgacha ozgina aylantirib kelaman.

Uy ichidan oyisining bir oz tushkunlik bilan:

Noshukurchilik bo'lmasinu, sovchi kutish ham jonga tegdi. Gohida vahm bosib ketadi odamni! degan ovozi baralla eshitildi.

Nega unaqa deysiz, oyijon! tilyog'lomalik qildi kelinoyisi. Xolalarim: "Qaynsinglingga sovchi ko'p keladimi?", deb

so'rashganda, qaynsinglimga sovchi kelmaydi, yog'iladi dedim! Nasib qilgan kun, albatta, uzatamiz bu erkatoyni, oyjon! O'g'llarimdan ko'nglim to'q, hammasi tengini topib, o'zidan tinchib o'tirishibdi oyisi chuqur xo'rsindi qizimni o'ylasam yuragim shuv etib ketadi. Ishqilib baxtini bersin.

Ovqatdan so'ng jiyanini kelinoyisiga berib, Nigora: "Darslarim ko'p!", deya xonasiga kirib ketdi. Lekin dars tayyorlash qayoqda?! Qani endi miyasiga bir nima kirsa. Oldida kitob-daftarini ochib qo'yib xayol surgancha ancha o'tirdi, adasi bilan akasi haliyam kelishmadi. Kelinoyisi oshxonada ertangi sovchilarga pishir-kuydir qilish bilan ovora. Sovchilarining keti uzilmaydi, kelinoyisi stoldagi pishiriq yeyilmasa ham almashtirishdan erinmaydi. O'ziyam ajoyib yangasi bor-da, hech kim aytmasa ham hamma ishni bajonidil bajaradi. Mehmon kutishni yaxshi ko'radi, sovchilarni-ku bosh ustiga qo'yadi. Gohida xijolat tortib: "Tag'in, kelinoyim mendan tezroq qutulmoqchi ekan, deb o'ylamang, bersak-bermasak bizni maqtab ketishlarini yaxshi ko'raman", deydi sodda, samimiyo ohangda. Nigora kuyovlikka nomzod bilan uchrashadigan bo'lsa deydi: "Husningizga ishonmang, muomala yaxshi bo'lmasa qolgani bir tiyin, aynab ketmasin! To'ng-to'ng qilmang, kulib borib, kulib keling! Sizga yoqmasa, biz yo'q deymiz, lekin yoqishingiz shart, bir umr armonda o'tmaysiz!". Bu gap Nigoraga yoqmaydi, birovning ko'ngli bilan hazillashib bo'ladimi? Nigora boshqa toifa qizlardan: birovga zarracha ozor berishni istamaydi. Qalb degani oyna, unga darz yetkazib, nimaga erishish mumkin?! Kelinoyisi tinmay javraydi, uning ko'z oldida esa yomg'irda qolgan odamdek dildirab turgan Ibrat jonlanadi. Shu yigitning o'nida bo'lganida, jon deb tegardi. Nega u boshqa yigitlardek shilqimlik qilmaydi? Hecham yoqasmikanman unga? Kursdoshlarining yarmidan ko'pi uni yaxshi ko'radi, nechtasi sovchi yubordi, lekin Ibrat jim. Cababi nima? Yo boshqasi bormikan? So'rolmasam! Qaniydi gapirsam, gapira olsam! Sezdirib qo'ymay deb, qo'rqqanidam bemaol gaplasha olmayman, unga tegishli gaplarni faqat Zeboden eshitaman. Ular nimagadir bir-birlariga o'xshaydi. Ibrat Zeboni hurmat qiladi. Umuman, kursdosh qizlarga hurmat bilan qaraydi. Sekin gapiradi. Uch yildan beri biror marta ovozi qattiq chiqqanini eshitgan emas. Boshqa bolalarga o'xhab so'kimmaydi ham. Zeboning aytishicha, adasi juda qattiqqo'l ekan, bolalariga mahkam turarkan, oilasida qiz yo'q, faqat o'g'il bolalar emish. Shuning uchun onasiga juda mehribon ekan.

O'shandan beri Nigora beorum. Javobsiz sevgisini nima kiladi? Bir umr qalbida saqlab yuradimi? Sevgisi unga javob bermasa ham, bir umr sodiq qolib, qalbida pinhon asrashga, unga gard yuqtirmaslikka, hammasiga astoydil rozi edi. Ammo, ana shu ammo so'nggi paytalar Nigorani qiy nab yubordi. Ketma-ket kelayotgan sovchilar kunda "baxting ochilsin" deb duo qiladigan buvisiga, onasiga dardini aytolmaydi! Nima deb ham aytadi? Kursdoshimni yaxshi ko'raman deydimi? Turgan gapki, tanlagani bo'lsa sovchi yuborishsin deyishadi. Tanlagani esa sukutdan bo'lak narsani bilmaydi. Ibrat, Ibratim nega gapirmaysan? Bir martagina gapirsangchi! U gapirmaydi, chiroyli qoshlarini chimirib, uzun kipriklarini qoqib, qarab turaveradi, zo'r kelsa miyig'ida kulib qo'yadi.

Yaqinimdan o'tsa, oppoq yuzi qizarib ketadi, buni sezganman, qiziq uni ko'rganda men ham qizarib ketarmikanman? Adam unga berarmikanlar? So'rasha beradilar! Tag'inam, ko'nglimga qarab turibdilar, lekin bu uzoqqa cho'zilmaydi. Buni bilaman. Balki unga bir amallab bildirish kerakmikan? Keyin-chi? Bordiyu, xohlagani bo'lsa, yo meni yoqtirmasa, ana keyin tomosha bo'ladimi?!

Lekin bu voqealarning nima bilan tugashi noma'lum. Yutqazishimga bir foiz guman bo'lsa ham o'ynamayman! Yaxshisi umrbod ichimga yutib yashayman. Tug'ilgan kunimga o'g'il bolalarini ham chaqirsamikan? Uyimdagilar Ibratni yoqtirib qolishardi, bu aniq. O'zi uni hamma yoqtirib qoladi. Tarbiyal, og'ir, bosiq, yana chiroyli. Bo'y ham baland. Ayniqsa, oq xalatini kiysa, juda ochilib ketadi. Kim kuyov qilgisi kelmaydi bunday yigitni? Dadamgayam yoqib qolgandami? Baribir oxiri borib hamma narsa Ibratni o'ziga taqaladi. Eh

Nigora dilidagi tuyg'ularini goh shodlik daryosiga otdi, goh ilojsizlik jariga uloqtirdi va oxiri toliqib, uxbab qoldi.

Ostona Soyasi

Kuzning dilgir oqshomi.

Bugun Nigoralar hovlisiga tumonat odam yig'ildi. Ha, serurug' oila, hech kim kelmaydi, deganda ham faqat yaqinlarining o'zidan yigirma-o'ttiz kishi yig'iladi. Bugun qarindosh-urug' tanishlardan tashqari, kursdoshlari ham kelishdi. Talaba bo'lgandan beri dugonalarini ilk bora uyiga chaqirdi. Ko'cha tarafdag'i ikki qavatl i morat, hashamatli darvozani ko'rib, "Voy-bo'y!", degan hayrat bilan ichkari kirishdi. Hovlining pastki tarafi uch qavat, marmardan ishlangan chiroyli aylanma zinapoyalar, to'rtta burchakda suv purkab turgan jimmimali favvoralar, lekin bittayam mevali daraxt yo'q, hammasi tropik mamlakatlarda o'sadigan manzarali daraxtlar. Dugonalari: "O'zimizdayam o'stirsa bo'lar ekan-da", deya marmar pillipoyalarga to'shalgan gilamlarni bosib, mehmonxonaga kirishdi. O'rtada katta stol, nozu ne'matga to'la dasturxon. Laziza dugonalariga ko'zi bilan imladi: rosa harakat qilishibdimi!

Derazalarga zamonaviy pardalar tutilgan, devorda zarhal ramkalarda qimmatbaho suratlar, oyoq ostidagi cho'g'dek gilamlar ko'zni oladi. Bular uy egasining serhafsala, didli ekanini ko'rsatadi.

Nigoraning oyisi, buvilari fotiha o'qib, chiqib ketishgach, Laziza ming'irlab yonidagi Zeboga gapirdi:

Nigorani shunaqa dang'illama hovlida turadi, deb o'ylamovdim! Pismiq, indamay yurishini qara!

Senga maqtanishi kerakmidi?! Boyning qiziman deb e'lon berishini kutganmiding? Bittasi sal maqtansa, darhol tishlab, uzib olasan!

To'g'ri aytasan: manmanlarni jinim suymaydi, birov sal maqtansa, popugini pasaytirib qo'ygim keladi, Nigoraga bo'lsa, qoyilman, juda kamtar ekan, endi bildim, yanayam yaxshi ko'rib ketdim. Shu turishda indamay avtobusgayam chiqib ketaveradi. Anavi, dimog'iga qurt tushgan o'rtoqlaring karillamasayam bo'larkan, Laziza to'rga chiqib, shumshayib o'tirgan Nafisani imladi. O'qishga mashina haydar kelaman deb, ja osmonB~daydi, Nigorani uyini ko'rib, suvga tushgan mushukdek bo'ldi-qoldi.

Zebo Lazizaning oyog'iga turtib qo'yib:

Jim, eshitib qoladi, dedi.

Shaddod Laziza qo'yarmidi:

Juda yaxshi bo'ldi-da, ertadan og'zini ochirmayman, o'zi anchadan beri jig'imga tegib yuruvdi.

Menga qara, Nigorani o'zlariga o'xshagan joyga berisharmikan? Bunaqasini qayerB~dan topishadi?

Adrasdan kalta ko'ylak-shim kiyib olgan Nigora choynak ko'tarib kirganda, ularning suhbat uzildi. U zarhal hoshiyalari nafis piyolalarga choy quyib uzatgach, "olinglar yeb o'tiringlar!" deya qistalang qilib, xil-xil pishgan, o'tkir zira va qazi hidi ufurib turgan norinni alohida-alohida taqsimchalarda solib, ularning oldiga qo'ydi, so'ng stol chetida terib qo'yilgan yog'li patirdan bittasini bo'lakladi, qizlar chug'urlashib: "Sindirmang!" desa ham ko'nmadni, kulib, jilmayib: b'Th B'Olsanglar-chi! b'Th dedi yana va: "Menga urz!" deya orti bilan chiqib ketdi.

Laziza nafis labini xunuk burdi, guyo nozikkina burni ostida mayda-mayda chuvalchanglar lipilladiB :

Esingdami, Nafisaning uyiga borib itday bo'lib keluvdik!

Zebo yon-veriga qarab qo'ydi-da:

Yana mehmondorchilikka chaqirmoqchi! dedi pichirlab.

Bormanglar! Masalan, men qaytib uning uyiga qadam bosmayman, deb kelganman. To'yi bo'lsa, to'yigayam bormayman.

Mehmonniyam fe'li keng odam kutsin. Bunga kim qo'yibdi. Chaqirsa ham bormanglar! Mani aytdi dersizlar: xor qilib kutadi.

Tannoz, uyidagilari o'zidan battar. Qarindoshlarini ko'rdingmi, Chig'atoydag'i norinchilarga o'xshaydi. Labi-labiga tegmaydi.

Nigoranikilarni qara: hammasi aristokratka!

Oyoq tovushlari eshitilib, qizlar sergaklik bilan eshik tomonga tikilishdi. Nigora kalta soch, oq ko'yak, oq tuqli kiyagan, kulcha yuzi bejirim qizni boshlab kirdi-da, uni qo'shnimiz, maktabda birga o'qiganmiz deb, tanishtirdi.

Odatda ko'ngil yaqin kishilar o'tirgan davraga begona kelib qo'shilsa, oshga pashsha tushgandek, dil g'ashlanadi. Qizlar nafaslarini ichlariga yutib, jim qolishdi. Nigora ikki-uch marta: "Olinglar, yeb o'tiringlar!" desa ham miq etishmadi, guyo og'izlariga talqon solib olishgandek edi. Qo'shni qiz ham bu yerda ortiqchaligini bildimi, ko'p o'tirmadi, bir piyola choy ichgach: "Oyim senga sovg'a berib yubordilar" dedi-da, yaltiroq qutichani Nigoraning qo'liga tutqazgancha chiqib ketdi, Nigora hang-mang bo'lancha qolaverdi.

Nega dovdiraysan, ohib ko'r! deya shang'illadi Laziza va bu ham yetmaganday qutichani tortib olib ochdi: bir juft zirak bilan uzuk yarqirab ko'zini oldi. Voy bu-u-u! Zo'r-u! Brilliantmi? Ha, ha, brilliant!

Dugonalari uning qo'liga yopishishdi:

Berchi, bizlaram bir ko'raylik!

Laziza piching aralash yana chiyilladi:

Qo'shnilaring kuchaygan ko'rinati! Topganlarini nima qilishni bilmaydigan bo'lib qolishganmi, nima balo! Qo'shni brilliant sovg'a qilsa-ya?!.. Yo senda ilinjlari bormi?!

Bu gapdan o'sal bo'lgan Nigora bo'g'zidagini zo'rg'a yutib, Lazizaga qaradi. Baloyu ofat bu qiz. Hech narsani yashirib bo'lmaydi undan. Boshqalarning xayoliga ham kelmagan bo'lsa kerak, bu-chi, darrov bildi. Bu g'alva qayoddan chiqdi? Qo'shnisi anchadan buyon sovchi bo'lib keladi, adasi yo'q degan, bo'ldi-da! O'g'li g'irt takasaltang. Haligacha biror ishning boshini tutmagan. Bugun o'ylab topganini qarang, hammaning oldida. Oyisiga aytish kerak. Endi nima qiladi?

Nigora dugonalarini ham unutib, ayollar o'tirgan xonaga yugurdi. Zinapoyadan tushayotib, patnis ko'tarib chiqayotgan kelinoyisini ko'rib, ko'ngli joyiga tushdi. O'zi boplaydi, juda yaxshi kelinoyisi bor-da! Unga vaziyatni tushuntirib, qo'liga qutichani tutqazdi-da, so'ng darhol ortga qaytdi.

Bazm yarim tungacha davom etdi.

Otasining haydovchisi dugonalarini uy-uylariga oborib qo'ydi. Qarindoshlarini kuzatib qaytgan dadasi Nigoraga hovlida to'qnash kelib, uni qayta tabrikldi.

O'rtoqlaring yaxshi o'tirishdimi? so'radi otalarcha mehribonchilik bilan bag'riga bosib. Xursandmisan, qizim?! To'yingda bundan ham yaxshi kutib olamiz.

Rahmat, dadajon, rahmat! dedi Nigora va ko'ngli ko'tarilgan holda oshxonaga yo'l oldi. Idish-tovoqlarni yuvib, barcha yumushlarni bajarib bo'lqach, xonasiga kirib, maza qilib uxlashni xayolga tugdi, ammo hamisha ham o'ylaganing bo'lmaydi, uning ham aytgani o'ngidan kelmadi: garchi ancha toliqqan bo'lsa-da, hadeganda uyqusi kelmadi. Xayolida bugungi voqealar birma-bir takrorlanar, ularni tahlildan o'tkazib, o'zicha mulohaza qilardi. Uzuk voqeasini aytmaganda, hammasi yaxshi, hammasi joyida, faqat dadasidan uyalib, yigitlarni chaqirilmadi, tabiiyki, Ibrat ham kelmadi, ko'ngli huwillab turibdi, lekin bugungi mehmondorchilikdan mammun.

Begona Baxt

Osmonu falakda qanot qoqib parvoz qilayotgan qush kabi shirin orzulari og'ushida mast yurgan Nigora jiddiygina muammoga duch keldi. Bu unga atalgan ilk sinov edi.

Zebo sen bilan juda qiziqb qoldi! dedi Laziza darsdan so'ng uyga qaytayotganlarida. Uyingga borib kelgandan buyon, sen to'g'ringda ko'p gapiradigan bo'lib qoldi. Bir baloni boshlamoqchi shekilli! Bilishimcha, senga sovchi oboradi-yov!. Akasi yo'q-ku, qarindoshlarigami? Qaysi biriga ekan? Bugun bekorga bizdan oldin ketmadi, balki u allaqachon uyingadir!

Nigoraning yuragi tez urdi. Ibratgami?!

Lazizaning qolgan qaplari qulog'iga kirmadi. O'z o'yi bilan bo'lib, hatto dugonasi bilan qachon qayerda xayrlashganini, uyiga ne alfozda yetib kelganini ham bilmay qoldi. Darvozalaridan nariroqda turgan mashinaga ko'zi tushib, badaniga titroq yugurdi.

Nazarida, eshikdan kirishi bilan devorlaru tomgacha taraqlab ustiga qulaydiganday, avaylab qadam bosdi. Hovliga kirishi bilan aylanma zinapoyadan tushib kelayotgan ayollarni ko'rib joyida to'xtadi. Sovchilarini kuzatib chiqayotgan oyisi kulib:

Kelib ko'rishaver, qizim, begonalar emas ekan, uyalma, dedi. Ayollar ham ming yillik qadrondondek quyuq so'rashishdi.

Onasi ayollarni kuzatgani ko'chaga chiqib ketdi. Ushatilgan nonlarni patnisiga solib, mehmonxonadan chiqayotgan kelinoyisini, ko'rib, salom berdi-yu, yengil tortdi. KelinoyiB=sining odatini yaxshi biladi, bunaqa paytlarda ichidagini yashirib o'tirmay, darhol suyunchi olishga oshiqadi.

Kelinoyisi uning qo'ltig'iga kirdi:

Menga aytmagan ekansiz, Nigorxon!

Nimani aytmagan ekanman! dedi u taajjublanib.

Zeboni ammalari ekan-ku, kursdosh dugonangizning! Ikkalasiyam ammasi bo'lar ekan. O'g'li bor ekan, do'xtir!

AB !!!

Nigora yer bilan osmonning farqiga bormay qoldi: uchyaptimi, yuryaptimi? Yer paxtadek yumshoqmi yoki bulutlarda suzib yuribdimi? Baxtga yetish shunchalar osonmi, yo bu orzusiga yetishganimi? Tilagi ijobat bo'ldimi? Xudo unga shunchalar xursandchilik tayyorlab qo'yan ekan-u, besabrlik qilib yuribdimi? Nahotki, shu kunga yetdi. Baxtli qiz ekanman! Laziza to'g'ri aytgan ekan: rostdanam Zebo balo qiz. Lekin u Ibratni yaxshi ko'rishimni bilmagan, Ibrat-chi? U ham uyanganidan sovchi yuborayapman, deb aytmagan. Lekin Laziza, uyingga borib kelib, Zebo sen bilan qiziqb qoldi dedi-ku! Demak, bu Zeboning ishi. Rostdanam uyimga kelib Ey, farqi nima, muhimi kelishdi. Ibrat xohlamasa kelisharmidi? Endi-chi, endi nima bo'ladi? Dadam xo'p dermikanlar? Desalar kerak! Ishqilib ko'nsinlar-da. To'y bo'ladi.

Hovliga chiqsa kulib yuborib, xursandchiligini oshkor qilib qo'yishidan cho'chigan Nigora "ovqat yegim kelmayapti" dedi-yu,

darsini bahona qilib, xonasiga qamalib oldi. Ortidan yangasi hovliqib kirdi:

Voy, sizga so'nnggi axborot olib keldim. Ayvonda nima gaplar bo'layotganidan bexabar o'tiribsiz.

Nigora jon qulog'i bilan eshitayotgan bo'lsa-da, o'zini befarq ko'rsatishga urinib, daftarlarini titkilashga tushdi.

Dars ham o'lzin, birpas qo'yib turing. Adajon bilan oyijon bugun kelgan sovchilar to'g'risida gaplashishdi. Kuyovning o'qimishli, yana do'xtir, nufuzli oiladan bo'lgani adajonga ma'qul tushdi. Onasi ham ba'mani xotin ekan. Oyijon shunaqa dedilar, menga ham yoqqanday bo'lувди. Menimcha, kuyov bo'lmish sizni ko'rgan bo'lsa kerak, boyagi xotinlarning gapidan shuni payqadim.

Nigora "voy sodda kennoyima, albatta ko'radi-da!" deb dilidan o'tkazganicha jilmaydi.

Kelinoyisi gapida davom etdi:

Yana bir marta kelishsa, keyin yaxshilab surishtirib, adajon kuyov bilan ko'rishar ekanlar. Oyijon aytdilarki, adajonga ma'qul kelsa, siz yigit bilan ko'rishsangiz bo'lar ekan, agar kuyov sizga yoqsa, molu davlatiga qaramay, ziyoli oila bo'lgani uchun rozilik berarkanmiz.

"Nega yoqmas ekan?" Nigora qalb siri tashqariga chiqib ketayotganday labini tishlab oldi.

Yangasi o'z dardi bilan ovora edi.

Uchrashuvga olib chiqarkanmiz sizni! Qaysi ko'ylagimni kiysam ekan? Yangasi hozir uchrashuvga ketayotganday oyna oldiga borib, sochlariqa qarab qo'ysi. Ertaga qirqtirib kelsam bo'lar ekan.

Shodligi ichiga sig'may turgan Nigora bahona topilganidan suyunib, kulib yubordi:

Kuyov men qolib, sizni tanlasa-ya?

Hazilingiz qursin! dedi yangasi uning yelkasiga ohista shapatilab. Xullas, hamma bir-biriga yoqsa, bahorga chiqib to'y qilarkanmiz!

Shu kecha Nigora hammaning bir-biriga yoqishini istab, yaratgandan yolvorib so'radi.

Faqat faqat kuyovni o'ziga yoqishini so'rash negadir xayoliga kelmadı.

Bahorni tezroq kelishini istadi O'zini xayolan oppoq ko'ylakda, kelinlik libosida ko'rayotgan Nigora, xursandligi ichiga sig'may, allaqanday kuyuni xirgoyi qilib xonada aylanib, raqs tushdi.

Kelin bo'ladi "U" esa kuyov.

"B Eng baxtli kelin bo'laman, o'yladi u. Oq ko'ylakni qayerdan olsam ekan? Uzun fata taqaman!"

Kimdir uni yashirin tomosha qilayotganday tuyulib, qilig'idan uyalib, o'zini karavotga tashladi-da, yuzini yostiq bilan berkitib oldi. Ko'zları quvonchga, qalbi iliq hislarga, yuragi baxtga limmo-lim edi

Zarb Va Taskin

Kuz tongi. Havo bir oz izg'irin. Quyosh nurlari haroratsiz, ammo istarasi issiq qizday yoqimli jilmayib turibdi.

Nigora uyqudan tetik uyg'ondi, nazarida qalbiga o'zi kutgan baxt qushi tezda kirib keladigandek edi.

Undagi jo'shqinlikni yangasi ham sezdi. "Jayron! Jayronning naq o'zi!" deb o'yladi tashqarida uni kuzata turib va qaynonasiga uning bugun boshqacha ekanligini, kecha suhbatlashganida ham kulib o'tirganini, ertalab oyna oldida bir soat o'tirganini va buni birinchi marta ko'rganligini, necha xil kiyimlarni saralab o'ziga tanlaganini ham aytib, suyunchi ola qoldi.

Sovchilarni kutishga astoydil kirishgan onasi: "B Iloyo baxtining ochilgani rost bo'lsin" deya yuziga fotiha tortdi.

Quyoshning kulgani rost, Nigoraning nazarida, hattoki, kechasi yog'ib o'tgan yomg'irdan keyin asfalCHbtga yopishib yotgan xazonlar, loy sachragan taxta o'rindiqlar, katta yo'lda tizillatib suv sachratib o'tayotgan, yuvilmagan, kir mashinalar ham hamma-hammasi ko'ziga fayzli ko'rindi. Ohudek tez ildamlab borarkan, qorovul amakiga ko'zi tushib, "bugun sochini tarab kelibdi, soqoliyam olingen, Laziza ko'rganmikan?" deb xayolidan o'tkazdi. O'zidan-o'zi jilmayotganini bilib, g'alati bo'lib ketdi. "Lab-lunjimni yig'ishtirib olmasam, sharmanda bo'laman", deya o'ylab, o'zini bosishga harakat qildi. Qadamlari o'zinikimas guyo. Xuddi bulutlar ustida raqs tushayotganday engil yurib, auditoriyaga kirdi. Kirishi bilan ko'zi allakimlarni qidirdi. Bir xo'rsindiyu, shalvirab tushdi. Yo'q, kelmabdi. "Bir hisobda ko'rinnmagani ham yaxshi bo'ldi, qochishga joy topolmay qolardim".

Ha, farishtam, ko'zing olma-kesak teryapti, kimni qidiryapsan?

Dunyoda Lazizaday sezgir qiz bo'lmasa kerak. Nigora har yer-har yerda to'dalashib o'tirgan kursdoshlari bilan so'rashib, uning yoniga cho'kdi.

Kimni qidirardim, seni-da, dedi keyin cho'zib.

Meni ko'rmay qoldingmi? Lazizaning ovozi do'rillardı. M-en-i-ya!

Nigora yolg'onдан horg'in esnadi:

Zebo qani, kelmadimi?

Tushingga kirdimi? Bir chelak suv bilan ketdi. Domla yo'q, uxbab qopti, uyiga uyg'otgani yubordim.

Nigora kulimsiradi:

Qo'ysang-chi shunaqa hazillaringni!

Hazili yo'q, domla uyg'onmasa, darsni men o'tarkanman, hozir dekan aytib ketdi.

Hazillashganing, hazillashgan. Sal jiddiyroq bo'lgin, Nigora chiroqli ko'zlarini suzib, dugonasiga qaradi.

Quvnoq odam doimo xushchaqchaq yuradi. Men bo'lmasam, zerekib qolasizlar! Noto'g'ri deb ko'r-chi?!

Nigora ba'zi qizlarga o'xshab ichki kayfiyatini yashirishga no'noqroq. Nimani o'ylasa shuni aytib qo'ya qoladi. To'g'risi bu jihatni unga ko'pincha pand beradi. Hozir ham dugonamga aytishim kerak, deb o'yladi. Zeboden eshitsa, tumshug'i osilib, mendan yashirdi, deya xafa bo'ladi. Aytaversa-chi? Nima deb aytadi? Baribir, Zebo kelguncha aytishim shart, degan qarorga keldi-da, ko'zini eshikdan uzmay sekin shivirladi:

Lazi, bir narsa aystsam

Gapir, ertalabdan jiddiylik to'nini kiyib kelbsan, ichingda qolmasin.

Sen kecha to'g'ri aytibsan.

Kecha deganining nimasi, men har doim to'g'ri gapiroman, to'g'ri so'z qilichdan o'tkir.

Shu maqollarining qo'yib tur!

Maqol so'z ko'rki.

Zarur gap etmoqchiman.

Qulog'im o'zimda, gapirawer! Laziza ixcham sumkasidan oynacha bilan bir talay bo'yoq olib, labini bo'yay boshladı.

Kecha uya borsam, Zebo ammalarini yuboribdi.

Oynachadan ko'zini uzib Nigora tarafga burilgan Laziza qalam surtilgan qovoqlarini kergancha baqrayib qoldi:

Mana buni yangilik desa bo'ladi, kechadan beri yorilmaganingni qara, nega telefon qilmading? Lekin Zebo kelsa, jensovetga masalasini qo'yamiz, bizdan bemaslahat ish qilgani uchun! Xo'sh, kimiga oboribdi?

Nigoraning ko'zları yulduzdek chaqnadi. Lablari javobga shaylanganda, eshikda sumkasini quchoqlagan Zebo ko'rindi.

Auditoriya talabalarga to'lib bo'lgan, g'ala-g'ovur avjida edi. Kimdир domla kelguncha vaqtini g'animat bilib, imi-jimida juftakni rostladi, kimdir bir yoqadan bosh chiqarib qochishni taklif qildi.

Dugonalari yoniga kelib salomlashgan Zeboni Laziza ochiqdan-ochiq chaqib oldi:

Shuncha ishni yasab qo'yib, miq etmaganingga qoyilman! Yuraging tosh ekan!

Xuddi shunaqa gaplar bo'lishini bilib, tayyorlanib kelgan Zebo dugonasining zaharli pichingidan xafa bo'lindi, qaytanga kulib: Oying maqol etib tuqqanmilar seni!

Oyim baqirib tuqqanlar, savollar bormi? dedi uzun kipriklariga tush surtayotgan Laziza, lekin seni bu qilmishingni hech qachon kechirmayman, nima, aytsang men borib ammalaringni aynitib kelarmidim?

Kelgandan beri Nigoraga xavotirlanib qarab-qarab qo'yayotgan Zebo undan so'radi.

Sen-chiB ? Sen kechirasamni, xafa bo'lindingmi?

Zebo dik o'rnidan turdi:

Uni nomidan men kechirmayman, juda xafa, o'zi senga aytolmayapti, ustingdan arz qilamiz.

Xafa bo'l manglar, shunaqa bo'lib qoldi. Oldiniga nima gap, nima so'z dedim. Kecha to'satdan boramiz deb qolishdi. Uydagi ahvolni bilasan-ku, ammalarimni gapi-gap, qaytarolmaymiz, u-bu desam, o'zing topib, endi o'zing oborging kelmayapti deyishdi!

Dam-badam eshikka qarab-qarab qo'yayotgan Nigora o'zida bir kuch, jasorat hosil qilib, oxiri so'rashga botindi:

Ibrat keladimi?

Bilmadim, gaplashganim yo'q, Zebo negadir uning savoliga ahamiyat bermay gapida davom etdi. Xullas, kecha xursand bo'lib kelishdi. Ammom hoynahoy kechasi bilan uxlamay chiqqan bo'lsalar kerak. Meniyam rosa duo qildilar. Onasi ham qudang bormi desa bordek, onasini ko'rib qizini ol, kennoying ham rosa yoqibdi, mulozamatni o'rniga qo'yarkan deyishdi. Senga-ku, oshiq bo'lib kelishdi. O'zing ham rosa ko'zga yaqinsan-da, hammaga yoqasan. Qara, hammasi yaxshi o'tdi, oldindan aytganimda, nima bo'larkin, deb o'ylab yurarding-ku, to'g'rimi? Rustam akamga ham o'zingga bildirmay turib ko'rsatdim, bilsang uyalib, xijolat bo'larding. Ularga ham juda yoqibs!

Butun vujudi quloqqa aylangan Nigora talmovsirab qoldi. Ko'zlarini pirpiratib, burnini yolg'ondan tortib qo'ydi.

Kim deding?

Rustam akam! Ismlari Rustam, endi ko'rsang kerak. Qalay, yaxshi ish qipmanmi?

Nigoraning tomog'iga bir narsa tiqildi, nafasi yetishmagan kishidek esankirab, boshi aylandi. "Nima deyapti?! Rustam? Qanaqa Rustam?"

Shu asnoda xonaga domla kirib kelib, hamma o'z joyini egalladi.

Nigora uch para dars qanday o'tganini bilmadi, qulog'iga raxit, suyak sistemasi, ko'krak qafas, katta liqildoq kabi so'zlardan boshqa hech narsa kirmadi. Tizzasida qaltiroq turib bo'shashdi. Yonida o'tirgan Zebo labi-labiga tegmay nimalarni gapirar edi, lekin hech nimani eshitmadni, hech nimani anglamadi. Yo tavba, bu qanaqasi bo'ldi, o'zi kim sodda ekan, onasimi, yangasimi yo o'zimi? Qulog'ida kelinoyisining kechagi gaplari aylanaverdi. "Agar kuyov bo'lmish Nigoraga yoqsa, bas! Kuyov bo'lmish uni zimdan kuzatgan ekan". Gap bu yoqda ekan-u, hammani soddaga chiqarib o'tibdi-ya! Eng yomoni, kuyov dadasiga yoqsa, bahorda bahorda to'y bo'lishi aniq!"

Nigora ilon chaqqandek, qattiq chiyraldi. Rustam kim o'zi? Yana Zebo yaxshi qilibmanni deydi-ya, nima ish qilib qo'yanini bilmayapti. Endi nima bo'ladi? O'zicha sir saqlagani bilan uyidagilari sezib bo'lishdi. Kecha jinniga o'xshab ashula ayтиб o'ynaganimga o'laymi, eng birinchi kelinoyisi sezgan, onasi ham laqma emas, dadasiga darrov yetkazgan, Nigor xursand bo'ldi, kulib yuribdi degan. Adasiga xuddi shu kerak, tamom, qo'lga tushdim, o'zimga o'zim qildim, to'xtatish kerak, bir amallah kerak. Ibrat qayerlarda yurganikin? O'zi kelsa bo'lmasmidi? Xo'p, kelganda nima? Gapira olarmidim, uzoqdan ko'rsam duduqlanaman-ku! Ey xudo, buyog'i qandoq bo'ldi? Ibrat eshitganmikan, nahotki hech narsa demagan, demak menga befarq

Nigora issig'i chiqib, asablari toliqqan kishidek, ko'ngli cho'kkon holda uyiga jo'nadi. Yo'l-yo'lakay Zeboning jag'i tinmadni: ammasining o'zidan tortib, hovlilari qanaqa, nechB-ta uyi bor, kelinga nechta xonani berishgani, katta kelinining yonidagi hovliga ko'chib chiqqani-yu, Rustam akasining yoshlikda o'ta sho'x bo'lib, hammaning undan dodga kelgani, hozir esa ancha quyilib, hammaga yoqadigan yigit bo'lganligi, to'rt yildan beri qiz tanlab, onasini qiy nab yuborganligini va, nihoyat, Nigorani bir ko'rishda yoqtirib qolganligini birma-bir gapirdi. Va o'zi bilmagan holda Rustamni Ibratga o'xshashishini ham gap orasida qistirib o'tdi, ammo shu gapi bilan Nigoraning yuragidagi yarasiga tuz sepganini sezmadni. Yana nimalar dedi, lekin uning keyingi gaplari qulog'iga kirmadi. Dugonalari bilan xayrashgan Nigora yuragi ezilib, uyiga borgisi kelmay, vaqtini o'tkazish uchun xayol surib piyoda ketdi. Oyoqlari ostidagi oltinrang xazonbarglar unga juda sovuq tuyuldi. Bularning nimasi oltin?! Odamlar o'zlarini aldash uchun shunday o'xshatishlarni o'ylab topishadi. Mana bu daraxtlar-chi? Barglari bo'lmasa, quruq xodaning o'zginasi! Xazonbargli yo'lkalarga ham g'ashi kelib qaradi, nega hammayoq iflos? Kuzda hammayoq isqirt bo'lib ketarkan. Shuni endi angladi shekilli!. Mashinalarning shoshilishini. Nariroqqa borib urib olishsa, keyin bilishadi tez haydash nimaligini. Odamlar-chi, hamma bir-biri bilan urishganmi? Namuncha jahl qilishmasa, hamma yer tepib yurganga o'xshaydi.

Uyga borishga yuragi bezillab turgan Nigora, tomchilayotgan yomg'irga parvo qilmay ketaverdi. Har bir qadam uni umidsizlik jariga yaqinlashtirayotgandek edi. "Ibrat, senga mehrimni bergim kelgandi, yulduzlarini tortiq qilgim bor edi. Ko'zlaringga qalbimni joylamoqchi edim, bir qarashingga dunyonи alishmoqchi edim. Seni baxt gullari bilan o'ramoqni niyat qilib edim. Bir og'izgina so'zingga borimni bag'ishlashim aniq edi. Nega shuginani ham qizz'onding, qizg'ongan kim, senmi yo dunyo?! Mendan yulib, seni kimga tortiq etmoqchi endi? Senga men kerak bo'lmadimmi?! Endi men

Oradan bir hafta o'tdi.

Kuz yomg'iri yeru-ko'kni tushgacha ayamay savaladi, peshinga borib esa qorga aylandi. Derazadan qor uchqunlarini beparvo tomosha qilib o'tirgan Nigoraning boshida og'riq turib, o'miga cho'zildi. Necha kunki, o'qishga bormadi. Bu orada dadasi rozilik berdi. Noiloj, yangasi bilan uchrashuvga bordi. Rustam Ibratga o'xshar ekan. Nimalar bo'lganini o'zi ham anglolmay qoldi. Tush ko'rayotganga o'xshardi. Sovchilar kelishdi. Oh dedi, voh dedi. Na dadasi, na oyisi va na yangasi dardiga quloq berishmadi.

Buning o'rniga nomiga, uyalganidan noz qilyapti, deya unga parvo ham qilishmadi. Endi nima bo'ladi? Baxtdan baxtsizlikka bir qadammi bu? Xudoga ohlari yetmabdimi, dunyo shunchalar xasismi? Yonimdag, yonginamdagи baxtimni ravo ko'rmadi.

Yonginamda edi. Har kuni ko'rib turardim, yonginasida nafas olardim. Ovozini eshitardim, bir bahona bilan bo'lса-da, ko'zlariga qarab olardim. Xayolan suhbatlashardim. Endi shundan ham mahrum bo'ldimmi, endi u bilan qanday yuz ko'rishaman?

Yumshoq yostiq unga toshdan ham qattiqroq tuyuldi. Boshini uring-uring olgisi keldi. O'zini holsiz sezdi. Yuragi erinib-erinib zo'rg'agina urdi. So'lg'in ko'zlar yoshga tashna edi: quyilib kelaverdi, kelaverdi, oxiri selga aylandi.

Shomga yaqin buvilari kelishdi. Fotihaning daragi chiqqandan beri kampirlar serqatnov bo'lib qolishgan. Ko'z yoshidan yostig'i jiqqa ho'l, Nigora xonasiga buvisi kirib kelganini sezib, o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Ammo kampir "yotaver" degandek uni o'rnidan qo'zg'atmay, yuzlarini, ho'l sochlarini, peshonalarini siladi.

Yig'la, ko'nglingni bo'shatib ol, keyin bir narsani aytib beraman, dedi.

Shu ko'yи uzoq o'tirishdi.

Bolam, unashilgan qizlar har doimo yig'lashedi, yig'lamasa ayb qilamiz, sekin gap boshladi buvisi. Seniki boshqacha yig'imi, buncha ezilib yig'lading, yo bir darding bormi?

Nigora labini tishladi. Dili dagini buvisiga to'kib solgisi keldi-yu, bo'g'ziB-daB-gisini ichiga yutdi. Nimani aytadi: javobsiz sevgisinimi, yo adashganimmi?! Bilmay xursand bo'libman, ertasi aniqlasam, boshqasi ekan, men sevgan yigit faloncha deydimi? Birovga aytadigan gapmi shu?!

Nigora alam bilan boshini har yonga tashladi.

Buvisi uning ko'nglini anglati shekili:

Bunchalik yig'iniyam xosiyati yo'q, bolam, onang ezilib ketadi, dedi nasihatli ohangda. Ne orzuda to'y boshladi, dilini xira qilib qo'yma. Yolg'izgina qizisan, endi buvingni eshit: xudo xohlasa bir kuni senam nevaralaringga aytib berarsan Ayol bo'lish og'ir, biz ayollar beoshyon yaralganmiz, ana shu beoshyonligimiz baxtimiz bo'ladi. Sababi tug'ilganimizda otamizning uyida, erga tegsak erimizning uyida, qariganimizda bolalarimizning uyida yashaymiz. E'tibor bergina baxt qayerda! Oshyoni bor ayol baxtsiz bo'ladi. Yo otasi yo'q, yo eri yo'q, yo farzandi yo'q. Men shu beoshyonligimga allohga minglab shukronalar aytaman. Otangning uyida tug'ilding, unding, o'sding, vaqt keldi, nikohga kirasan, seni nikohing sulolamizga yangi halqa ulaydi. Nikoh ostonasining u yog'idagi murakkab dunyo oila. Shunisi esingda tursinki, oilangdagi ozgina quvonch yoki tashvish hammaga barobar. Oila quib, farzandli bo'lishing kerak. Ayollarning burchi naslni davom ettirish. Farzand oila umrining davomi. Men hayotga keldim, oila qurdim, bir umr Toshkandan chetga chiqmadim, bir kun bir joyda ishlamadim, hayotim beiz ketdi deysanmi? Agar shundoq fikr qilsang bu noto'g'ri, men juda baxthi kampirman, sakkizta farzandni tarbiyaladim, uyladim, joyladim, o'zim o'qimagan bo'lsam ham ularning hammasini o'qitdim, yigirma ikkita nevara, o'n to'rtta evara ko'rdim, nasib qilsa chevara ham ko'raman, hayotim mazmuni o'tdi. Mazmuni tog'alaring, onang, xolalaring. Umrim shularda, mana sendek ajoyib nevaramda davom etadi. Qani endi ayt-chi, nazariningda, men qanaqa yashabman?

Nigora buvisiga hayrotomuz tikilib qoldi. Demak, hayotning mazmuni farzand. U shuning uchun ham oila qurishi kerak, naslni davom ettirish uchun Nimanidir tushunganday edi u. Notinch qalbiga sokinlik tashrif buyurganidan o'zi ham lol bo'ldi.

Buvisi bosiq, ammo shirali ohangda davom etdi:

Eng baxthi kumin qaysi, bilasanmi? Tog'alaring bir uyg'a to'planishgan kun! Qachon xursand bo'laman, bilasanmi? Hali u xolang, hali bu kelinoying olib ketib qolganda. Birining kelini tug'adi, birining qiziga sovchi keladi. Bir ishga yaramasam ham bosh-qosh bo'lib o'tirganim, bolalarimad madab bo'lganim uchun quvonaman. Qara, qancha quvonchli damlarim bor. Kel, endi sen menga va'da ber, o'zing chiroylisan, nevaralarimning ichida eng chiroylisan, to'yingda bundanam chiroyl bo'lasan-u, meni shundoq nevaram bor deb, kerilib o'tiraman. Quda menga sarpo qo'yadi. Oilali bo'lasan oilangdagi sadoqat baxtning kaliti, esingda tursin, uyingda yaxshilik yashasa, yomonlik kira olmaydi. SabrB-li bo'lib, irodani qo'lga olasan, irodali odam har qanday baxtsizlikni yenga oladi. Qo'sha-qo'sha farzand ko'rasan, o'qishingni o'ylamay tug'averin, onang boqishadi, boshqa nima ish ham qilardi? Qariganingda bir etak nevara-chevaralaring ardog'ida yayrab-yashnab o'tirasan. Xuddi o'zingga o'xshagan nabirang boshi boylanganda hunar qilsa, meni gaplarimni xuddi o'ziday qilib yetkazasan, keyin uyning to'riga osib qo'yilgan suratimning oldiga kelib, buvijon, va'damni bajardim deysan. So'z berasanmi?

Buvijon! Nigora buvisini qattiq quchoqlagancha yig'lab yubordi.

Yig'lama, ikkalamiz birga suratga tushsak bo'larkan.

Nigora buvisini yanayam qattiq quchoqlab oldi.

Kelishdikmi, va'da berasanmi?

Nigora ohista bosh irg'adi.

O'zim o'rgilay, bu yig'ing boshqacha chiqdi, endi xotirjamman. Nikohim kuni men ham shunaqa yig'lagan edim. Bo'ldi endi, chehrangni ochib yur. Yur, men bilan qaynonang qilgan kiyimliklarni ko'ramiz, bu yog'i to'y, bolam, xudo quvvat bersin. Iloyim borgan joyingda tup qo'yib, palak yoz, omin.

Kampir yuziga fotiha tortib, hansiragancha o'rnidan turdi.

To'y

Oppoq gullagan sershox bodom daraxtining guldar qo'lchalar orasidan jilmaB-yib qaragan ona quyosh to'rt tomoni gir aylana imoratlari hovli uzra zar kokillarini taraydi, yengil shabada yam-yashil maysalar yuzini silab o'tadi. Oynavand uy yonidagi temir o'choqning kuli olinmagan, yarim yongan o'tinlarning uchlari asalarining qornidek taram-taram oq, qora aylana holatda qolgan. Hovlida kuymalanib yurgan ayollarning biri supurish-sidirish, boshqa birlari idish-tovoqlarni yuvish, yana birlari bugun o'tkaziladigan kelinsalom marosimining kam-ko'stlarini to'ldirish, to'g'rilash bilan ovora.

To'y-marosimlarning ob-havosini yaxshi bilgan qo'shni ayol Rahbar xola o'choqboshiga kelib, tayyorgarlik ishlarini birma-bir kuzatib, hammani savolga tutadi:

To'qqiz-to'qqizga qo'yiladigan narsalar qani? Obchiqib ravonga terib qo'yaveB-ringB-lar, ayb bo'lmaydi! Qudalarning patnislari tayyormi? Dilorxon, qaymoqqa odam jo'natdingizmi?

Qaynegachim yo'ldan birato'l olib kelaman degandilar, aya!

Undoq bo'lsa yaxshi, Dilorxon! Bittada yaxshi kutmasangiz, qiz bergen joyi dasB-turxonli emas ekan, deb ketishadi.

Qaynegachingizni esidan chiqaradigan odati yo'qmni ishqilib? O'choqboshini taxt qilib, sarpo-surug'ingizni bir qarab beraman, kimga nima qo'yasiz? Ovsin-ajinga yaxshi narsa qo'ying, opa-singil gap chiqarmaydi! Qayinbo'yinining ishi qiyin, qudasiga shu aytgan, ovsinimga bo'laveradi degan! Qudaning yuzini shuvut qilib qo'ymaylik, qudacililik ming yilchilik aylanay!.. Somsani qaynoq kirkizamiz.

O'choqboshidan chiqib tavonxonaga yo'l olgan kampir bir nima esiga tushgandek ortiga qaytib, sekingina qaynonadan so'radi: Ko'rmanangizni tayyorlab qo'yganmisiz? Tag'in shoshganda yugurgilab qolmaylik! Xavotir olmang, aylanay, hammasi taxt!

Quyosh qiz uzatib kelgan ayollarning oldiga quylgan taomlarni oppoq nurlari bilan siypalab o'tib, ularning ko'ngliga hovlini tomosha qilish zavqini soldi. Kecha yugur-yugur bilan hovlini ko'zdan kechira olishmagan edi. To'y o'tdi, hammayoq tinchidi, qorin ham to'ydi, endi qiz tushgan joyni bir aylanib ko'rishmasa, ayol zotining ko'ngli tinchirmidi!?

Hovli unchalik katta emas. Oltitagina pog'onadan iborat sement zinapoyadan ko'tarilib, panjarali uzun ayvonga, undan mehmonxonaga kiriladi. Mehmonxona derazalariga nafis neylon pardalar tutilib, to'rga ancha-muncha qimmatbaho mebelCHb qo'yilgan. Ulardan oldin kelin tushgan uyga kirgan ayollar: "Bunisi falon pulli garnitur ekan, chinniyu-idishlar, yapon servizlarini, oyoq tagiga solingan gilam ham yomon emas", deb o'zlaricha shivir-shivirlashib yurishardi.

Yon tarafdag'i eshikdan yotoqxonaga kiriladi. O'rtacha kattalikdagi xonaga to'q rangli yotoqxona mebeli o'rnatilib, devorlariga palak, choyshablar osilgan, baland oynavand javon yoniga ikkita sandiq yonma-yon qo'yilgan, ustiga duxoba, atlas, ko'rpa-ko'rpa'chalar tekis taxlanib, yostiqlar qator terilgan.

O'zini kuzatayotgan ayollarni katta toshoyna orqali ko'rib turgan kelinchak oqchil-tekis yuziga, bu yaqin orada mung nimaligini bilmagan ohu ko'zlariga, chiroyli tabassum uchun yaralgan nozik lablariga, nafis nim qizg'ish bo'yoq surtilgan yonoqlariga, uzun qora kipriklariga nazar tashlab, yuziga nomigagina upa surtdi-da, qomatiga moslab tikilgan adres ko'ylik ustidan quyuq zar berib ishlangan peshmatini kiyib, yelkasiga tushgan tim qora sochlari ustidan do'ppisini bostirdi. Shu asnoda beqaror ko'zlar bilan ko'zgudagi aksiga tikilib, o'z husni malohatidan mammundek shirin jilmayib qo'ydi. Qaysi go'zaldan kam? Xudoga shukr, oydek husni, o'ziga yarashgan qaddi-qomati, hammaning havasi keladigan chiroyi bor. Yaxshiki, bir ozdan keyin yuziga ro'mol yopib olib chiqishadi, aks holda, ko'z, nazar, kinna degan qora-qusurlar o'rab olishi, oyoqdan yiqitishi tayin.

Tashqarida boshlangan qo'shiq bir oz erish tuyulib, ko'ngliga hayajon soldi.

Kelinchak-o, kelinchak, bu dunyo bir halinchak,

Chimildiqa kiraver-o, kuyov bag'ri belanchak!..

Boyadan beri go'zalligidan mammun, ko'zgudan o'zini ololmayotgan kelinchagimiz ko'zlarini yashirishga joy topolmay qoldi: tundagi shivir-shivirlar...

Eshik ochilib, qo'lida bir dasta dastro'mol bilan yangasi kirdi:

Bo'p qoldingizmi, qizposhsha?

Kelinchakning yuragi duk-duk urdi, qulog'i devorga, tili kosovga aylandi. Lov-lov yongan yuzini ko'tarsa, yangasi ko'nglidagini bilib qoladiganday tuyulib, boshini qo'yи egdi.

Yangasi uni sekin turtdi:

Bo'la qoling, salomga chiqamiz!

Do'ppisi tagidan dastro'mollarni qistirib, eshik oldiga borganda, uzun yaltiroq yopinchig'ini yopar ekan, yangasi tayinladi:

Salom manavunaqa bo'ladi deb, ja-a egilvormang! Yarim egilsangiz, chiroyli chiqadi. Men qanaqa salom qilganim, esizdadir-a?

Dastro'mol tagidan chinni jarangidek yoqimli kulgi eshitildi.

Uzoq-yaqin amma-xolalar, qo'ni-qo'shnilar, egachi-singillar ataganlarini qo'lb-laB-rida tutganlaricha navbat kutishyapti. Kattayu-kichik tartib bilan kelib, salom olib qaytmoqda. Quda taraf sovg'a qaytarish bilan ovora. Kimdir mammun, kimdir hayajonda, kimmingdir esa ensasi qotgan, kimdir shu yerda ham tanish-bilishchilik deya norozi to'ng'llaydi.

Ilk bahor gulidek oppoq ochilgan kelinchak o'z baxtidan yayrab-yashnab salom qilyapti.

To'qqiz qizning xaridori,

Yigitlarning sardori

Qaynog'alariga salom!

Makkatillo yo'lida,

Joynamozi qo'lida

Amma poshshalariga salom!

O'g'il tug'ib kerilgan

Qaynonalariga salom!

"Qaynonam?" Kelinchak bir damgina bo'shashdi, titradi. Qaynonadan xushbo'y atir hidi taralib, shirin hisni tuydi. Qo'llari issiqliqina, muloyim ekan. Uzukni avaylab taqib, oppoq yoping'ichini salgina ochib, yuzidan o'pdi.

Qosh-ko'zlar pilikdek,

Oshga solgan ilikdek

Ovsinlariga salom!

Ovsini hayallamadi, zuv yetib kelib, ko'rmanani berdi-yu, yuzini shart ochdi... bu xonadondagi birinchi chehra, charaqlab kulib turibdi. Ko'z-ko'zga tushganda quvonib ketishdi. Ovsini ko'rishganda u ham yuzidan o'pib oldi. Ko'zida mehr ko'rib, yuragi birpas tin olganday bo'ldi.

Yuzocharga jajji bolachani ko'tarib kelishdi. Uning do'mboq qo'llariga ko'zi tushib "vuy shirinligini, meniyam shunaqa..." deya havas bilan intikdi.

Kelinsalom marosimi nihoyasiga yetgach, buvisi uzundan uzoq duo qildi: "Yuzing iboli, ko'zing hayoli bo'lsin, qo'sha-qo'sha farzand ko'rib, uvali-juvali bo'lib, o'zingdan ko'paygin, omin".

Bahor oqshomi tashrif buyurganda, mo"jaz hovlida qadam tovushlari siyraklashib qolgandi.

Onasini kuzatgan Nigora ko'ngli buzilib, ko'z yoshi qildi. Begona joy kishiga bir oz yomon ta'sir qilar ekan.

Yangasi uning qizargan ko'zlariga qarab, nasihat qilishga o'tdi:

Qiz zotining bo'lgani shu! Oyjonimizning dillarini xufton qilib jo'natdingiz. O'zlarini bir ahvolda edilar. Ovsiningiz kirs, nima

deyishni bilmasdan qoldim. Yaxshi juvonga o'xshaydi, ishqilib yulduzinglarni issiq ko'rsatsin! Bo'ldi endi, hadeb yig'lasangiz boshingiz og'rib qoladi. Keling, undan ko'ra narsalaringizni joylab beraman. Siz qarab turing! Ular birgalikda sovg'a-sarupolarni taxlay boshladilar. Menga qarang, dedi yangasi. Supurgini ushлаshingizdan bilib olishadi qanaqaligingizni. Hamma narsaga hushyor turing, uy yig'sangiz, avval qaynonangiznikidan boshlang, kir yuv sangiz ham qaynonangiznikidan boshlang, uxbil qolsangiz bir chetda dovdirab turmasdan, kechirasizlar deb, darrov ishga kirishing, oyoq kiyimlarni kechqurun tayyorlab qo'ying, him... yana nimaydi? Ha-ya, mo'ljalni hali bilmaysiz, go'sht-yog'ni lo'mba-lo'mba ishlatib yubormang, so'rab keyin soling, o'zi nima qilsangiz ham oyijoningizdan so'rabb, keyin bir ishga kirishing, tushundingizmi? O'shanisi tinch, o'zboshimcha deyishmaydi. Bir joyga boradigan bo'lib qolsanglar, imillamay otlaning, lekin darrov eshikka chiqib olmang, ko'chaga desa doim tayyor turadi deyishmasin.

Oqshom shamoli o'z qo'shig'ini boshladi. Unda kelinchakning qalb titrog'i, hayajonga to'la ko'zlar, intikib nafas olishi va visol zavqi ham bor edi.

Do'stmi Yo Duxтир?

Baland bo'yli yigit ancha vaqtgacha tug'ruqxona atrofini aylanib yurdi. Qo'lidagi sigaretni yoqishni xayol bilan yo unutdi, yo xohlamadi, qo'lida aylantira turib, uloqtitrib yubordi, bir oz fursat o'tib esa boshqasini oldi, so'ng daraxtlar panasiga o'tdi va bir ozdan so'ng jadal qadam tashlab, bosh bino tarafga ketdi.

Hozirgina konsiliumdan chiqqan Rustam bilan Xayrullo shifokorlar xonasiga kirishdi. Ortdan qadam tovushlari eshitildi. Eshik zarb bilan ochildi-yu, xonaga hech kim kirmadi. Chamasi eshikni tortgan odam fikridan qaytdimi, joyida qotdi.

Kiraver, UmidB ! dedi Xayrullo.

Barvasta yigit kirdi va iztirob bilan unga tikildi. Aytadigan gapi og'irligidan, ichidagini sirtiga chiqarolmadi.

Xayrullo unga dalda berdi:

Uka, sal qovog'ingni oolib yur, ko'rganlar nima deydi? Boya shuncha gaplashdik, hozirgina professor bilan ham maslahatlashib chiqdim. Hozir yana xotiningning oldiga kiramiz. Sen ishingga boraver, tirikchilikdan qolma, bu yog'i yaxshi bo'ladi!

Yigit miq etmay chiqib ketdi.

Xayrullo uning ortidan achinib qarab qoldi:

Ertalabdan beri ketmaydi. Nosirovaning eri. Xotini operatsiyaga ko'nmayapti!

Nima bo'ladi endi?

Aslida operatsiya bilan tug'dirishga qarshiman. Ko'p kuzatdim, tabiiy yo'l bilan tuqqan ayollarga qaraganda, keserevo bilan tuqqan ayollar, nisbatan bolasiga bemehrroq bo'lishadi. Ammo mana bunaqa holatlarda... bilmadim... boshqa iloji bo'limgandan keB=yin... Men professor bilan oldiga kirib chiqaman. Sen, hoynahoy, kirmasang kerak?!

Rustam kresloga suyanib, iljaygancha bosh chayqadi. Xayrullo kasallik tarixini ko'tarib chiqib ketdi.

Nosirova yigirma bir yoshda, birinchi homiladorlik, birinchi tug'ruq, nefropatiya, qirq birinchi hafta.,

Professorga erinmay bayon qilgan Xayrullo, ayolni ko'zdan kechirdi, "shishgan, anchagina shishgan, qovoqlari osilib turibdi, ko'zlar kichkinalashib ketgan, bir paytalar juda husndor bo'lgan ko'rindi. Beozorgina, muloyim. Xuddi ayb ish qilib qo'yandek, xijolat tortib, har bir savolga javob berishdan oldin, uzun-uzun kipriklarini pirpiratib olib, keyin ko'zlarini bir nuqtaga qadab, ohista gapiradi. Dardga og'ir ekan".

Professor ko'zoynagini taqib, Xayrulloning qo'lidan kasallik tarixini oldi. Bir boshdan, shoshilmay varaqlab, qaytadan o'qib chiqdi.

Otangiz yo onangizning qon bosimlari osharmidi?

Adam qon bosimidan vafot etganlar.

Homilador bo'limguncha oshmagaganmidi?

Yo'q.

Keksa professor quyuq qoshlarini chimirib xayolga toldi. Umr bo'yil ilm bilan mashg'ul bo'lgan odamlar hissiyotga berilishmaydi. Balki shuning uchunmi, odamning ko'nglidagini sezal olish qobiliyatidan mahrum ular. Ba'zilari gapga no'noq. Aslida birov gapni yog'lab gapiradi, birov tikanak bog'lab gapiradi. Butun hayoti davomida inson salomatligi va hayotini hamma narsadan ustun qo'yib yashagan, buni shogirdlariga ham singdirishga harakat qilgan professor ham gapga gul o'rabi gapira olish xislatidan yiroq edi. Shuning uchun ham, to'satdan:

Nega operatsiyaga rozilik bermayapsiz? deb so'radi.

Ayol avvaliga jim qoldi, keyin odamning yuragini ezar darajada og'ir xo'rsindi, shiftga qarab yotgancha, ikki ko'zidan bir tomchidan yosh sizib chiqib, sochlari orasiga dumalab ketdi. Professor ham, Xayrullo ham savol berilgan bo'lsa-da, javob qaytarilmasligini bilib, uni ortiq qistashmadni. Xonada og'ir sukunat cho'kdi.

Qizim? professor guldiragan ovozda mehr bilan salmoqlab gap boshladi. Kelganingga bir oydan oshibdi, ahvoling qoniqarli emas. Qon bosimining baland, kamqonsan, buyranging anchadan beri kasal ekan, ko'pincha qizlarda buyrak kasalligi bilintirmay kechadi. Yo turmushga chiqqach, yo homilador bo'lgachgina o'zini bildiradi. Sen hozir ikki kishi hayoti uchun javobgarsan. Ona bo'lish arafasidasan, ona bo'lish mas'uliyat, buni his qilmaslikka haqqing yo'q! Bunaqa ishda qaysarlik yaramaydi. Eng muhimmi, farzandni sog'lom dunyoga keltirish. Gaplarimni o'ylab ko'r. Rozi bo'lsang, ertaga operatsiya qilamiz. Cho'zishdan naf yo'q. Salomat bo'l.

Professor og'ir qo'zg'alib, eshikka qarab yurdi, Xayrullo unga ergashdi. Saida o'zini qiyab yurgan og'ir xayollar girdobida qolaverdi.

Kasalxonada kunlarning o'tishi juda qiyin. Shiftga qarab yotish ham, derazani kuzatish ham bir zumda joningga tegadi. Xayolidan yana o'sha savol charx urdi: "Hech iloji yo'qmikan?" Qon bosimi ko'tarildi shekilli, boshi lo'qillab og'ridi. Ana, hozir hamshira dorisini ko'tarib yugurib kelib, tomiriga ulab qo'yadi. Shu bilan qimirlamay ikki soat yotadi. Uyiga ketsa, yaxshi bo'lib qolarmidi? ... Eri qachon kelarkin? U ham qiyalib ketdi. To'tidek bitta gapni qaytaradilar: "Qahramonlik qilmay operatsiyaga rozilik beraver!". Ko'proq o'zidan xavotir olyapti. Xo'p, ana, operatsiya-ku bir zumda o'tar, lekin keyin-chi? Tig' tekkan odam yarim jon bo'lib qoladimi? Buni o'zidan boshqa hech kim tushunmaydi. Keyin u yog'i dardisar, hisobli! Yana qachon farzand ko'radi, ko'radimi, yo'qmi, tug'ishi muammo bo'lib qolmaydimi?! O'g'illari ko'p bo'lishini xohlaydi. Operatsiya qildirsa, to'rt-besh yilsiz tug'may yuradi.

Shu og'ir o'ylovlar iskanjasida Saida kechgacha yotdi. Har zamonda bolasi qimirlab qo'yadi. Bechora rostdan ham havo yetmay

qynalyaptimi?! Tezroq yorug' dunyoga chiqqisi kelgandir. Xudbinman shekilli! O'z manfaatimni ko'zlab, bolani o'ylamayapmanmi! Keserevosi qursin. Kim o'ylab topgan ekan
Qaysar Yuliy SezarCHb birinchi bo'lib ona qornidan yorib olingen bola. Sarkarda, davlat arbobi, yana yozuvchi ham bo'lган.
Uning ham bolasi shunaqa aqli bo'larmikan? O'zi o'g'ilmikan yo qizmi? Qiziq, oyim qizligingni sezganman derdilar! U-chi? U hech narsani sezmayapti.

Eshik ochilib, yengil shippak tovushi eshitildi, xonaga kirgan odam ichkaridan eshikni berkitdi.
Saida ko'zlarini ochdi. Xona nim qorong'i edi.

Nega qorong'ida yotibsan? Xayrullo chiroqni yoqqach, karavot tepasiga keldi. Iye, yig'layapsanmi?
Saida hazin jilmaydi.

Ajoyib odam! Goh sizlaydi, goh ming yillik qadrdondek sensirashib ketadi. Muomalasi samimiyligidan Saida unchalik og'rinxaydi. Xalati yo'q, hali ketmabdimi yo navbatchimi? Saida o'rnidan turmoqchi edi:

Yotaver, qimirlama, faqat boshingni sal ko'tarib ol! dedi . Xo'sh, yemay-ichmay, tarki dunyo qilib yotibsanmi? Seni o'rningda bo'lsam bunaqa qilmasdim.

Saida og'ir nafas oldi.

Xayrullo uni savolga tutdi:

Ering bilan baravarmisizlar?

Saida "ha" ishorasini qildi.

O'xshab ham ketasizlar, qarindosh emasmisizlar?

Yo'q, birga o'qiganmiz.

Muhabbatmi?!

Saida uyalib, kulimsiradi.

Endi senga jiddiy savol!

Saida nima savol berarkin deya, ko'zlarini katta-katta ochib hayratlandi.

Xayrullo uning ko'nglini sezgandek:

Sen hayron bo'lma, savollarimni tug'ishingga aloqasi yo'q. Shunchaki sen bilan bir dardlashib o'tirgim keldi, bugun navbatchiman, to'yingga qancha bo'ldi? deb so'radi.

Ikki yil.

Yaxshi yashaysanmi?

Saida yelkasini qisdi.

Xayrullo:

Birovdan oldin, birovdan keyin degin, dedi va o'zi javob berib qo'ya qoldi: Shu ikki yil ichida eringga tekkaningdan hech afsuslandingmi, yo'qmi?

Saida bu qanaqa be'mani savol, degandek ensasi qotdi. Xayrullo buni pisand qilmay savoliga javob kutdi. Saida javob qaytarishni xohlamasa-da:

Yo'q, dedi.

Eringni yaxshi ko'rasan, ko'rinish turibdi, bilasanmi, Ibn Sino kasallariga nima derkan? Biz uch kishimiz, men tabib, sen kasal, u kasallik. Agar sen, men tarafga o'tsang, u yengiladi. Bordiyu, u tarafga o'tib olsang, ikkalangni yengishim qiyin. Men ham shundoq buyuk odamlarning usulini davom ettirib, seni o'z tarafimga taklif qilaman, nima deysan?

Saida yoyilib kului, bosh og'rig'i sal yozildi.

Xayrullo unga jiddiy qaradi:

Xo'sh, senga aytasam, ko'nglim aldamaydi. Nimalarni o'ylayotganining aytib beraymi? Gaplarimga e'tiroz bildirib, ovora bo'lma, chunki haq bo'lib chiqaman. Hozir ering uchun fidoyilik qilib yotibsan, sen qo'rqaq emassan, qo'rqaqlar tug'ishdan ko'ra, operatsiyaga osongina rozi bo'lib qo'ya qolishadi. Sen eringni o'yab, operatsiya qildirmayapsan, to'g'ri topdimmi? Endi, Saida, o'zingdan qolar gap yo'q, mendan o'n yosh kichik ekansan, sendan ko'ra ko'proq ko'ylik yirtganman, meni gaplarimga kir, kam bo'lmsan: birinchidan, ering bunaqa fidoyilikni baribir bilmaydi, erkaklar tabiatan shunaqa yaralgan, buni o'zgartirish qiyin. Men senga shifokor sifatida emas, erkak bo'lginim uchun aytypaman, ikkinchidan, qon bosiming oshgan sari bola qiynaladi, kundan-kunga ahvoli og'irlashib boradi, o'zing kamqonsan, bu bilasanmi, nima degani, bola qorningdaligidayoq bir nechta kasalga yo'liqadi degani.

Saida g'alati ahvolga tushdi. Hech qachon bunaqa gaplarni eshitmagan edi. Ajoyib do'xtir ekan! Xuddi ichimga kirib chiqqanday, yo tavba, nima o'ylayotgan bo'lsam, shuni aytib turibdi. Gipnozchimi? Gaplarini hammasi to'g'ri, izohga hojat yo'q. Birinchi marta bunaqa odam bilan gaplashishim. Hech ham bunaqa suhbatdoshni uchratmagandim.

Saida yo'qotib qo'ygan qadrondonini topib olgan odamday yayrab ketdi. "Hayotga real qarab yashashni o'rgan. Xo'p, hozir seni aytganining qildik deylik, keyin nima bo'lishini bilasanmi? O'zing bir amallab tug'arsan, hay-haylashib tug'dirib olishar, bola-chi? Tug'ilish oson jarayon emas, qancha-qancha bolalar tug'ruq paytida kasallik orttiradi. Keyin-chi, kasal bola boqishdan ortiq azob yo'q! O'zingni kechira olmaysan, boshqalarini sog'lom farzandiga qarab o'zingni yeb yurasan, sal kattaroq bo'lganda, nega palonchini bolasi yaxshi o'qiydi, meniki bunaqamas, palonchiniki unaqa, meniki bunaqa deb yurasan. Operatsiya bilan tug'sam, keyin nima bo'ladi deb, o'ylayapsanmi? Lekin bilib qo'y, birinchi bolang kasalvon tug'ilsa, qolganidan o'zing voz kechasani, chunki adoyi tamom bo'lgan bo'lasan, gaplarimgi tushunyapsanmi? Kasal bola g'urbatning o'zi!"

Saida yengil tortib, bo'shashdi. Yuragini siqib, changallab yotgan sim to'rlar bitta-bitta yechilib qo'yordi. Keyin xotirjam tortdi. Xayrullo odam ekan! Xayrulloning ko'zlariga chuqur mehr bilan tikilib, nigohi bilan javob qaytardi.

Xayrullo uning rozi bo'lganini sezdi va so'radi:

Ertaga chorshanba, yaxshi kun! Nima deysan?

Shunaqa qilsam, to'g'ri bo'ladi deysizmi?

Avvalo har bir ishni xudoga tavakal qilish kerak, undan keyin, senga boy aytidim, gapimga kirsang, kam bo'lmsan, menga ishonsang ishon, seni zo'rplash yo'q.

Erimdan

Ering ikki soatdan beri xonamda o'tiribdi.

Saida butunlay xotirjam tortdi.

Kechasi u الخلیل olasanmi yo

Kerakmas, Saida keskin bosh chayqadi.

Unda ertalab ko'rishamiz, yaxshi yotib tur.

Bugun quyosh tongni barvaqt uyg'otdi.

Tong Saidaga qizaloq hadya qildi. Xuddi eriga o'xshaydi. Ingelayotgan chaqaloqni xira yorug'lik ortidan ko'rdi-yu, yelkasidan tog' ag'darilgandek, xotirjam holda uyquga ketdi.

Sirti Tinch, Tubida G'alayon

"Shaftolini guli to'kilganda ham chiroyli, tuproqqa belansa ham rangi o'zgarB-maydi".

Uzun, jimjimador yengli oppoq ko'yak, lozim ustidan tim ko'k peshmat kiyagan Nigora hovli supurayotib daraxtlarni ko'zdan kechirdi. Olma, gilos bor, lekin anor ekishmagan ekan, uning guli juda chiroyli, hidi ham boshqacha!

Ayvondagi telefon jiringlab xayoli bo'lindi.

Labbay!

Salomalaykum, Rustam akani chaqirib bering.

Nigora erini zo'rg'a uyg'otdi. Hovliga chiqib supurishda davom etarkan, kiyimlarini tezda egniga ilib, ko'chaga otilgan erining orqasidan borishni ham, bormaslikni ham bilmay hayron qoldi. "Choy ichmadilar!"

Mashinasini ko'chaga olib chiqqan Rustam oynasini tushirayotib:

Ishga chaqirishdi, og'ir kasal bor ekan. Men kechroq qaytsam kerak, deya ko'z qisib qo'ydi. Unga javoban jilmaygan Nigora "yaxshiyam qayerga deb so'ramaganim" deb xayolidan o'tkazdi-yu, chiroyli tabassumi bilan erini kuzatdi. Kelinlik baxtining beg'ubor osmonida parvoz qilayotgan kelinchak ayni damda nega ayol kishi tong saharda erimni chaqirtirdi, deb o'ylab ham ko'rmadi.

Asr vaqt bo'ldi. Quyosh ertalabdan beri bulutlar orqasiga berkinib, arazlaganday yuzini ko'rsatmaydi. Havodan yomg'ir hidi keladi. Nigora o'qishga borib qaytdi-yu, har kungidek oshxonha, uy yumushlari bilan mashg'ul bo'lib, kun o'tganini sezmay qoldi. KechB-qurungi ovqatni qozonga dimlab, ko'chani supurib qaytgach, bekor turmay deb, g'imirlagancha hovlida ish qidirib yurdi. Qaynonasi ichkarida televizor ko'rayotgan edi.

Gulga kirgan daraxtlar e'tiborini tortdi. Bunchayam chiroyli-a!

Olma daraxtining to'p-to'p bo'lib gullagan shoxlariga qancha tikilsa ham ko'zi to'yamadi. Kichkinagina shoxchani sindirib olib, gullarini yuziga qo'yib, silagisi keldi. Bekorga uvol qilmay, deb sindirgani ko'zi qiymay, pastrokdagi shoxchani salgina egib to'yib-to'yib hidlab, keyin qo'yib yubordi. Uy ichidan qaynonasi chiqib kelayotganiga ko'zi tushib, oshxonaga kirib ovqat suzishga tutindi.

Yomg'ir tomchilay boshladi. Ovqatdan keyin kiyim-boshini almashtirib, pardoz qilgach, qaynonasining yoniga kirib birpas o'tirdi. Qaynonasi indamay televizordan ko'zini uzmay o'tiravergach, iymanib, uy ichida ish qidirgandek bo'lib, sekingina yana hovliga chiqdi. Yomg'irning shivir-shiviriga quloq tutdi. Qorong'i tunning sadolari ham g'alati: goh yuragingga quvonch soladi, goh vahima!

Rustamdan haligacha darak yo'q, kech kelaman degandi. Kelib qolar. Unga o'rganib ham qoldi. Avvaliga yomon ko'rgani rost. Keyinroq hayiqib ham yurdi. Unaqa yomonga o'xshamaydi. Ozgina o'tib iliqlik tuydi. Hozir ko'nglida mehrmi, sog'inishmi, allanimalar aylanib yuribdi. Ishdan qaytadigan payt bo'ldi, deguncha, yuragi betoqat uradi. Gohida uyda yolg'iz qolishsa, qafasdagi qush o'zini u yoqdan-bu yoqqa urganday, qochib chiqishga urinadi. Qachon kelarkin?

Nigora yog'ayotgan yomg'irga erkalanib, hovlida uzoq qolib ketdi. Boshini osmonga qaratib, ko'zlarini yumdi. Yuziga bitta-bitta kelib urilayotgan tomchilar, xuddi Rustamning nafasi kelib urilayotganday badanini jimirlatdi

Entikib nafas oldi

Bir zamon Rustamning qaynoq nafasi kuchliroq urilgandek bo'ldi. Qo'llari belidan quchib, lablari bo'ynidan qulog'igacha sekin ko'tarildi. Shivilagan ovoz:

Nega yomg'irda turibsan? deb so'radi.

Voy?! cho'chib tushgan Nigora erining kuchli qo'llaridan chiqishga urindi. Yuragi dukillab ketdi. "Sharmanda bo'ldim, kelib qolganlarini!"

Rustam qo'yvormadi, shivilashda davom etdi.

Sogi'ndim, meni o'ylab turganmiding?

Nigoraning lavlagidan farqi qolmadi.

Qo'yvoring! yalindi u.

Uyga yur, ko'ylaging ho'l bo'lib ketibdi, almashtirasan.

Oyijon ko'rib qoladilar, qo'yvorsangiz-chi!

Rustam bexos qo'llarini bo'shatdi, hurkak Nigora ohudek bir sakrab, jilmaygan ko'y i uy tarafga yurdi.

Tuni bilan shivalab yomg'ir yog'di. Azonda jiringlagan telefon Rustamni yana ishga shoshirdi.

Xayrullo uni hajv bilan kutib oldi:

Ha, kuyov bola, bugun kech qolding, kelin qo'yvormadimi? Kelinga tushuntirib qo'y. Seni kasallaring boshqacha: poylab o'tirisholmaydi. Xohlagan payt dardi tutib, xohlagan payt tug'averadi.

Rustam pinak buzmadi:

Navbatchilik qanaqa o'tdi?

6-palatadagi tug'di, 11-palata meni tug'dirdi.

Yaxshi, eson-omon qutulibsan.

Eri g'irt ahmoq ekan, bolasi dimiqib, xotini o'lay deb yotibdi. Operatsiya qilmaysan, xotinim juda baquvvat, deb onasini boshlab kelibdi. Kechasi bilan talashib, azonda baribir operatsiya qildik, to'nka, ikki o'rtada xotini bilan bolasini qiynagani qoldi. Hali rodzaldan chiqmadi, bolasi tepada, ahvoli yaxshimas asfiksiya. Hozir xabar olib tushdim. Glavrachdan kasal keldi. 6-bo'shagan, o'sha yerga yotqizdim. Puf desang, tug'adigan. Qarab turarsan. Men ketdim, xotinim poylab o'tirgandir. Uch kundan beri ko'rmadim.

Senqa qiyin bo'pti.

Nimasini aytasan, juda javr bo'ldi. Sen uylanganingdan beri uyimga borishim katta muammo bo'lib qoldi, chillang chiqdimi o'zi?

Bo'pti, shundoq uyimga o'tib kelaman.

Xayrullo polni, hatto eshik-derazalarini ham zirillatib xonadan chiqib ketdi. Eshik yopilishi bilan telefon jiringladi. Xalatini endi kiyib bo'lgan Rustam go'shakni ko'tardi. Nigora qo'ng'iroq qilmasligini bilsa-da, o'zicha tusmolladi, ammo go'shakdan Umidaning nozli ovozi eshitildi:

Rustam aka, sog'indim Sizni-i-i!

Birpasda-ya, hozirgina oldingdan keldim-ku!

Nima qilay, rostdanam shunaqa bo'lsa?

Nima qilishingni aytaymi? Kechga qolmasdan ishga bor. Kechroq ko'rishamiz, xayr.

U tarafdan qisqa-qisqa gudok eshitildi.

Rustam Umidaga qanday ilakishib qolganini esladi. Qizning ota-onasi bu dunyoda kun ham ko'rishmadi. Akasi bevaqt qazo qilib, yurak oldirib qo'yishdi, shu bois ham bor e'tibor va diqqatlarini yolg'iz qizlariga qaratib, xudodan unga faqat uzoq umr so'radilar. Bu orada avtohalokat ro'y berib, ular ham olamdan o'tishdi.

Umida endi qarib-qartayib qolgan kampir qo'lida qoldi. Kampir bu g'amni ko'tara olmayman deb o'ylagandi. Umri bor ekan, farzand dog'ida bir kuysa, o'sha falokatda nabirasining oyog'i qattiq jarohatlanib, nuqsonli bo'lib qolganiga yana kuyib yashadi. O'g'li bilan kelinini ma'rakalarini o'tkazib, bor-buduni beliga tugib, nabirasini katta do'xtirlarga ko'rsata boshladi. "Qiz bola axir, bolamdan qolgan omonatni nogiron qilib qo'ysam, qiyomatda o'g'lim bilan kelnimning ko'ziga qanday qarayman", deb eridan qolgan bilaguzuk, kelinining tilla asboblari barini sotdi.

Lekin Umida tuzalmadi. Oxiri haqiqatni o'zi ham tan olib, shu mushtiparginani joni sog' qolganiga shukr qilib, yashay boshladi. Xudo bir tarafdan siqsa, ikkinchi tarafdan mo'l-ko'l qilib beradi, degan ilinjda yashadi. Tunlari uxlamay, egasiga o'z qo'lim bilan topshiray, jonimni olmay tur deb, xudoga nolalar qildi. Ammo nabirasini o'qishdan qaytishini poylab o'tirib, omonatini topshirdi Umida hayhotdek hovlida yashab, tibbiyot bilim yurtini bitirdi, so'ng Rustam yashaydigan kasalxonaga ishga keldi.

Rustam oqsoqlanib yuradigan bu qoracha qizga dastlab ko'pam ahamiyat bermadi. Keyinroq bu qiz unga boshqalardan ko'ra, o'zgacharoq qarashini bilib qoldi. Bu sevgi-muhabbat emas, uni muomalalarida qanaqadir samimiyat, o'ziga yaqin olish, jigariday insonga mehr ko'rsatish kabi harakatlar bor edi. Buni Rustam oradan juda ko'p fursat o'tib his qildi. U boshqa qizlarga o'xshab, sharaqlab kulmaydi, biron narsadan qattiq ta'sirlanganda miyig'ida kulib qo'ya qoladi. Hech qachon o'z fikrini talashib-tortishib, isbot qilishga yoki birov larga singdirishga harakat qilmaydi. U qanaqadir o'zga olamda yashaydi.

Esida, o'shanda sharros yomg'ir yog'ayotgan kun edi. Yomg'irdan o'zini pana qilib zo'rg'a mashinasiga o'tirib olgan Rustam, kasalxona darvozasidan chiqayotib uzoqda oqsoqlanib ketayotgan Umidaga ko'zi tushib, hayron bo'lди. Yo tavba, o'zi sog'mikan bu qiz? Qo'lida zontigi yo'q, o'zini panagayam olmayapti, na avtobus bekatida turadi, na qo'l ko'tarib mashina to'xtatadi. Xuddi ustidan ayamay savalayotgan yomg'irga qasd qilganday qaddini tik tutib to'xtamay ketyapti. Astag'firullo deya, Rustam mashinasini to'xtatib qarab turdi. Bu ketishda chaqirsa chiqmaydiganga o'xshaydi. Rustam ozgina yurib, yana to'xtadi. Qiz tag'in o'sha alfozda ketaverdi. Bir-ikki qattiq-qattiq signal berdi. Jala tovushidan Umida hech nimani eshitmadni. Rustam mashinasini aylantirib, ust-boshi shalabbo bo'lib ketgan qiz qarshisiga ko'ndalang qilib qo'ydi. "O'tirsangiz-chi, ivib ketibsiz", dedi qat'iy ohangda. Xijolatdan yorilay degan Umida mashinaga o'tirib: "Yomg'irda yurishni yaxshi ko'raman", deb qo'ydi.

Rustam qaysi tarafga yurishni so'rav oldi. Manzilga yetib borguncha ikkalasi ham churq etmadni. Ko'cha boshiga yetganda Umida Rustamning yo'q deyishiga qaramay, mashinadan tushib qoldi. Eshikni yopa turib: "Yomg'irni yaxshi ko'raman", deb qayta qistirib o'tdi. Yomg'ir tovushidan Rustam hech nimani eshitmasa-da, rostanam g'alati qiz ekan deb, mashinasini haydab ketdi.

Uning nimasidir Rustamni o'ziga tortardi. Qizlarning hech birida undagi fazilatlar yo'q, ularning hech biri uningdek sadoqatlbo'lmaydi. Mag'rur va fidoyi, vazmin va bosiq. Xuddi sokin daryo. Rustam aynan o'xshatgan edi. Tinch oqqan suvning tubi shunaqangi g'alvali ediki Umidaning ko'ngil tubidagi hislar bosh ko'targandagina qismat unga nimalarni ravo ko'rganini keyinroq anglatdi.

Mehr Nima O'zi?

Rost aytisharkan, bolaning ko'ziga qarasang mehr quyilib keladi. Bolani emizish rohat, quchog'iga olish huzur-halovat.

Dunyodagi hech bir yumushni, yo hech bir xursandchilikni bolani emizishga tenglab bo'lmas.

Huzur bilan qizini emizayotgan Saida, erini kutib, kelavermaganidan xavotirlanayotgan edi, onasi keldi. Unga qarab, Saidanining doim yuragi achishadi. Qizlariga dadasingin o'rmini bilintirmaslikka tirishib, o'zini o'tgayam-cho'qqayam uradi, bechora. Hozir ham sanitar xotindan liq to'la sumkani berib yuboribdilar: bitta idishda qatiq, bittasida sut, ozgina pechenCHbe, ikkita chirolyi patir, olma, banan; qavat-qavat o'ralgan bankani ochib qaradi, atala! Sovimabdi. Qaynoqqina kepti. Shakar bilan qaymoq qo'shib, aralashshtirib tayyor qilingan tvorog, sumkaning tagidan ustiga likopcha to'nkarilgan kosa chiqdi. Do'mpaygan tugunni yechib likopchani o'girdi: tok! Onasi doimgiday yaxshi ko'rgan ovqatini obkepti. Juda yaxshi onasi borda. Saidaga hali ovqat mumkinmas. Inqillab tok tugayotgan onasi ko'z oldiga kelib, ovqatni qaytarib bergisi kelmadni. Ne hasratda olib kelganlar deya dilidan o'tkazib, idishlarni bo'shatib, avaylab o'rav sumkaga joyladi. Halloslagan sanitar qora xotin sumkani olib chiqib ketar payti, oynadan onasi chaqirdi:

Sa-a-ida!

Deraza yoniga yugurgudek bo'lib borgan Saida oynani ochmoqchi edi, onasi baqirdi.

Ochma, ko'kragingga shamol tekkizasan.

Tuzukmisan. Bola yaxshimi?

Saida ko'zlarini g'iltillab bosh irg'adi.

Darrov turib, yurib ketmagin bolam, hali mo'rtsan, belingni issiq qilib yur. Paypog'ing bormi?

Bo'g'ziga yig'i tig'ilib gapirolmadi. Derazadan qaragancha boshi bilan faqat "ha", "yo'q" ishorasini qilib turdi.

Ko'p-ko'p sut choy qilib, issiq-issiq ichgin, atalani sovutmasdan darrov ich, qaynog'ida simirvogin, quvvat bo'ladi. Suting ko'payadi, bolam! Chaqalog'ing yig'loqmasmi, kechasi uxbayaptimi?

Orqasiga o'girilib pish-pish uxbayotgan qiziga qaradi. Beozor-ku! Emizmasayam miq etmay uxbayveradi. Saida kulib boshini qimirlatdi. Onasining turishi g'aribgina bo'lsayam, baxtiyor ko'rinaldi. Nabira ko'rish baxt! Nabira boqish huzurlanish! Onasi Saidadan ham ko'proq xursand bo'lsa kerak. Eng kenja qizining bolasini ko'rdi. Bu kunlarga kim yetdiyu, kim yetmadi. Boshi tepaga qarayverganidan orqasiga sirg'alib tushayotgan ro'molini tuzatib:

Hali opalaring kelishadi, men ertalab nima obkelay? deb so'radi.

Onasi xayrlashib ketgach, Saida atala mumkinmasligini bilsa ham, mazza qilib ichdi. Idishning tagida qolgan qiyalmarni qoshiq bilan yeb qo'ydi. Shu payt ko'kragiga quyilib sut kelganini sezib, emizgisi keldi. Onasi uyga yetib olganmikan? Qaynonasi hali bir martayam kelgani yo'q. Onasi doim yo'q bo'ssayam borday, qaynonasi teskarisi, oshib-toshib yotsayam tomizmaydi. Onasi eri o'lib bolalariga biror marta noligan emas. Bolalarining ko'nglini o'ksitgisi kelmaydi. Qaynonasi esa noligani-noligan.

Qizini joyiga yotqizib, yana erini kuta boshladi. Nega kelmayaptiyan? Doimo tesB=karisi bo'ladi: kutganing kelmaydi. Xonaga yuzidan mammunligi bilinib turgan Xayrullo bamaylixotir kirib keldi.

Xo'sh, Oybarchinday qiz tug'dim deb kerilib, kelganlarga xohlaganingni buyurib o'tiribs-sanmi? Hazillashdim. Tuzukmisan? Qizing qalay? Onalik hissiyotlaring bilan o'rtoqlashmaysanmi, ona bo'lish yaxshi ekanmi, ayniqsa kechasi uxlamaganda?

Saida chaqnab javob berdi:

Kechasi yaxshi uxlayapti!

Iye, zo'r-ku! O'zing ham omadli ekansan, chilladan keyin kuningni ko'rsatmasa bo'ldi. Kindigi tushdimi?

Kindigi tushsa ketamanmi?

Xayrullo jahli chiqqanini yashirmay ters javob qaytardi:

Muncha shoshasan, uyingda nima bor? Qiynalasan. Ozgina o'zingga kelib ol, quvvatga kir. Yaxshiman deb, uyingga shoshilaverma. Ipini olish kerak. Qiynalayotgan bo'lsang ayt, bolaga qarab berishadi. Dorilaringni vaqtida olyapsanmi, u-bu kaming bo'lsa aytaver, tortinma.

Saida ro'parasidagi shifokorga cheksiz mehr bilan tikildi:

Bunchayam mehribon! Shunday mehribon erkaklar ham bo'lar ekan-da. Tomog'iga bir narsa kelib tiqildi. Zo'rg'agina "ha, bor" deya oldi, xolos. Dilining tub-tubidan bir nimalar qaynab chiqqa boshladi. Bir og'iz shirin so'z bilan odamning dilini qanchalik ko'tarish mumkin-a!

Xayrullo sekin borib chaqalojni avaylab ko'tarib, "Senday beg'am bo'lib yuraylik", deb joyiga qo'ydi.

Uyingga borvolib, polvonlik qilma, o'zingni ayagin, xo'pmi? Ovsining bormi? Yaxshi gapirib aldasang, qarashib yuboradi.

Saida bosh irg'ib:

Men alohida turaman dedi.

Obbo, bu yaxshi-ku, lekin manavinaqa paytlarda juda yomon qiynalasan-da. Mayli, eplab ketasan. Bo'lar-bo'lmasga siqilma!

Bolaga yaxshi qara. Ko'p-ko'p emiz, yaxshi ko'rib emizsang, suting ko'payadi. Tag'in eringni qizg'anaverib, bor sutingniyam qochirib yuborma.

E, boring-eB ! Saida qip-qizarib teskari qaradi.

To'g'risiyam-da: xotin zoti borki, erini qizg'anib umri o'tadi, ikki orada bola sutsiz qoladi. Mayli, qizingni avayla, sal kattaroq bo'lsa, ho'l meva bilan ko'p-ko'p oqlik bergin, esingga tursin, ko'p oqlik yegan bola, yaxshi odam bo'ladi. Chirolyi narsalarga qarab o'zingni xursand qilib yur. Sen bilan xudo nasib qilsa, to'rt-besh yildan keyin ko'rishamiz. Tag'in bir yilda yugurgilab kelmagin, urishib beraman. Buyragingni yaxshilab davolash kerak. Gaplarim qulog'ingda qolsin. Sog' bo'l. Muammo chiqsa, bexijolat kelaver. Yordamim tegsa, men xursandman.

Xayrullo chiqib ketar chog'i, Saida unga chuqur hurmat, cheksiz minnatdorchilik tuyg'usi bilan qarab qoldi. "Qandoq yaxshi odam-a!" Chin dilidan unga qandaydir mehr ko'rsatgisi keldi. Eshik ochilib, yo'lakka qadam tashlashi bilan ortidan ovoz eshitildi: Xayrul bu yog'i juda past chiqdi lo aka

Orqasiga o'girilgan Xayrullo nima esingdan chiqdi, deganday qaradi. Saidaning indamay qotib turganini ko'rib, eshikni yopib, qaytib kirdi:

Nima gap?

Bir narsa

So'ramoqchimisan? So'rayver.

Gapir, gapir ichingda qolmasin.

Sizga, siz

Xayrullo xaxolab kulib, keyin chaqalojni cho'chitib yuborishdan cho'chib, uyg'otdimmi, yo'qmi deb, unga qarab qo'ygach: Hayajonlanyapsanmi? Bemalol gapiraver, darding borga o'xshaydi! dedi past ovozda.

Boya Xayrullo chiqib ketayotganida Saidaning yuragida to'lib-toshib so'zlar quyilib kelayotgandi. Minnatdorligini allaqancha gaplar bilan izhor qilmoqchi edi. Aytar mahali kelganda, tili aylanmay qoldi.

Tavba, bitta tug'ib tildan qoldingmi? O'zi bitta tug'ishli holing bor ekan, yana operatsiya qilsangiz, ko'p tug'a olmayman deb dod solasan! Xalatining cho'ntagiga ikkala qo'lini solib yaqin keldi.

Saida Xayrulloni birinchi bor ko'rganda juda qo'pol ko'ringandi. Undan keyin u paytda o'z dardi, xayollar bilan bo'lib, birovning fe'lini o'rganadigan ahvolda ham emasdi.

Hayotning hamma qonunlari teskari. Uncha yoqtirmagan odami unga hamdard bo'ldi. Xayrulloning katta ochilib turgan ko'zlariga qarab, o'zini tutib olib, sekin gap boshladi:

Yaxshi odamligingizni ko'nglim sezgandi.

Xayrullo kului:

Men yaxshi odamman o'zi!

Men sizdan judayam qanaqa qilib rahmat aytishni

Xayrullo uning so'zini shart bo'lidi:

Menga qara, minnatdor ona! Hayotda shunaqa narsalar borki, odamlarni bir-biriga bo'lgan munosabati, aytadigan rahmati, yo beradigan narsasi bilan o'lchanmaydi. Odamlar orasida bundanam balandroq turadigan narsalar bor. Sen sog' bo'lgin, qizing katta bo'lsin, ering bilan qo'sha qari. Menga shu kerak. Salomat bo'l.

Saida yuragida to'lib yotgan hurmat, mehr, minnatdorchilik tuyg'ulariga yana bir qanchasini qo'shib orqasidan qarab qoldi. Suyukli eri tutgan hasham dor guldastadan, hasham dor mashina, yaqin qarindosh-urug'larning davrasi bir tomon-u, ko'z oldida kulib turgan Xayrullo bir tomon edi.

Qari Qizning Qismati

Tanhlikka mahkum qilingan qizning yegan oshi zahar, kunduzlari qorong'i; odamlar orasida kulib yursa-da bari yolg'on. Dil

13 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

tubini yolg'izlikning xarsang toshlari egallab yotaveradi. Nogiron bo'lib qolganida, ota-onasidan, keyinroq buvisidan ajralganida umid qilgan edi. Hamma narsa tashlab ketsa ham, orzu va umid ketmadi. O'sha xarsang toshlar ustida orzu-umid gullari ildiz otdi. Uni o'sha mudhish kunlardan umidi olib o'tdi. Shirin bolachali bo'lismeni diliga tugib yashadi. Janda ko'ngilning ham umidi kimxob, axir!

Unga hech kim rosmana xaridor ham bo'lmasdi. Yoshi o'tib qoldi. Bu orada Rustamni qattiq sevib qolishga ulgurdi. Tog'-tog' bilan uchrashmas, lekin Umida Rustam bilan qovushdi. Taqdirning hukmiga tan bermay iloji yo'q ekan. "Dilozorlarning barchasi do'zaxga mahkumdir". Bu hadisda hikmat ko'p. Ozor topgan dil gohida alamga chiday olmay shunaqangi gunohga botadiki, ayniqsa, madda olgan qalb undan qutulish uchun malham izlashga majbur bo'ladi.

U yakshanbani yomon ko'radi. Bir kun uyda qolsa, erta qachon kelarkin deb, tars yorilar holatga keladi. Boradigan joyi, keladigan odami bo'lmasa. Haftasiga yetti kun ishlasa ham mayli, ishxonada odamlar orasida yursa bo'ldi.

Ertalab vaqtli uyg'ongan bo'lsa ham, turgisi kelmay yotaverdi. Quyosh nuri derazadan o'ynoqlab kirib, tursang-chi deb qistalang qildi. Avval peshonasini, keyin yuzini qizdirib, yelkalariga tushganda, beixtiyor turib ketdi. Oqsoqlanib hovlida aylanib yurdi. Qaqrab yotgan hovliga qarab suv sepish kerak deb o'yaldi-yu, erinib oshxonaga kirdi. Bir narsa esiga tushdimi, qaytib chiqdi. Bitta-bitta yurib, ko'cha eshikni ochib keldi. O'zini u yoqqa tashlab, bu yoqqa tashlab, oxiri choy qo'ydi. "Biron nima pishirmsammikan, xo'sh... quymoq!" Jovondan un, muzlatgichdan tuxum olib, stol ustiga qo'ydi. Deraza tabalarini ochdi.

Kimningdir hovlisida tovug'i tinmay qaqqag'layapti. Oynalarga ko'zi tushib, kir bo'lib ketganini payqadi. Qachon artganini eslay olmadni. "Bugun artib olsam bo'larkan", deb o'yaldi. Quymoq pishirish fikridan qaytib, tayyorlagan narsalarini joyiga qaytarib qo'ydi. "Qayerdadir eski-tuski lattalar bor edi". Oyna yuvishga tutingan Umida, hovlida bolasini yetaklab kirib kelayotgan yon qo'shnisini ko'rib, yuziga xursandchilik yugurdi.

Kelinglar! Umida oqsoqlanishiga qaramay, zinadan yugurgudek tushib, bolachani ko'tarib oldi. Po'mpillagan yuzlaridan cho'lp-cho'lp o'pib: Meni ko'rishga chiqdingmi? dedi xursand ohangda, so'ng ayolga yuzlandi. Yaxshi yuribsizlarmi, ko'rinnaysizlaram?

Yuribmiz, Umida bilan birgalashib oshxonaga kirarkan ayol: Oyijonim, adamiz bilan bozorga tushib ketishdi. Kattam ham ergashib ketdi. Shu bahonada ozgina o'tiraylik deb chiqib kelaverdik! dedi.

Yaxshi qilibsiz, zerikib o'tirgan edim, bolachani stulga avaylab o'tqazib so'radi: Nima yeysan? Hozir senga zo'r narsa pishirib beraman, yeysanmi?

Umida boyajoyiga qaytarib qo'yan narsalarini qaytadan olib, quymoq pishirishga kirishib ketdi.

Voy nima qilasiz, zarilmi? dedi qo'shni ayol va stulning oyog'iga turtinib, bolasining oldiga keldi, ovqat qilayotganida yog' sachrayverib, qorni dog' bo'lib ketgan shtapel ko'ylagining etagi bilan o'g'lining burnini artib qo'ydi.

Umida stolga choynak-piyola, pechenCHe, sariyog', qotganroq bo'lsayam non qo'yarkan:

Xadichangizni yo'tali qoldimi? so'radi.

Qoldi opasi, qo'lingiz juda yengil-da, birpasda tuzatasiz.

Oling, Dilfuza, choy ichib turinglar, men hozir! dedi va tovadagi yog'ni qizdirib, jazillatib quymoq pishira boshladni.

Shu ayol Umidaning buvisi o'lgan yili kelin bo'lib tushgan edi. Maktabni bitirayotganida fotiha qilingan qiz, turmushta chiqib ketma-ketiga bir qiz, bir o'g'il ko'rib, ro'zg'orga kerakli buyumdek, uy ichidan chiqolmay, to'rt devorning malikasi bo'lib o'tirib qolgan edi. Lekin axborot yig'ishda undan o'tadigani yo'q, qobiliyati zo'r: kimning hovlisida nima bo'lganidan doim voqif.

Kimning kelini nimaga ketib qoldi, kimning eri kim bilan yuradi, muhimmi, kimga qanday xabar kerakligini bilib, vaqtida yetkazadi. Gohida kurakda turmaydigan g'iybatlaridan Umidaning ensasi qotsa ham, yolg'izlikdan qutqargani uchun eshitaveradi. Nima deyapti, ahamiyati yo'q, javrab tursa bo'ldi. Osh-ovqatni ham eplolmaganidan bolalari ochin-to'qin g'ingshib yuradi. Qaynona uyda bo'lmasa, bolalarining sho'ri quriydi. Yaxshi qaralmaganidan go'daklarning boshi kasaldan chiqmaydi. Ikkala bolasiga qishin-yozin Umida tinmay ukol qiladi.

Uyga bormaganimga ham ancha bo'libdi! dedi Dilfuza piyoladagi ivitilgan pechenCHeni bolasiga yedira turib. Oyimga etsam yoqmagandayroq bo'ldi. Birpasda bozorga tushadigan bo'lib qolishdi. Men ham indamay qo'ya qoldim.

O'zi qaynonani minnatdor bo'ladiqani yo'q ekan, aytganday, Dilfuza gap orasiga ko'pincha "aytganday" so'zini qo'shib gapiradi. Eriga non kerak demoqchi bo'lsayam, "aytganday, non ola keling" deydi. Umida shu odatini bilganidan, har galgidek, bo'lmasa gapidir deb ahamiyat bermay ishini davom ettiraverdi.

Kecha opoqinikiga chiquvdik. Hovliga joy qilib berishibdi. Oldilarida oz-moz o'tirdik. Xadicha yiqilib tushdi. Ro'mollaridan beruvdilar, tizzasini boylab qo'ydim. Shuni ustiga katta qizlari kelib qoldi. Osh damlashayotgan ekan, suzishguncha o'tirdik. Gapdan-gap chiqib, anavi o'lgan ovsinlarining eri bor-ku, shuni uylantirishar ekan. Shunga sizni mo'ljallab kelishibdi. Opoqim etdilar, olsa baraka topadigan qiz, baxti ochilsa, arvoqlar ham xursand bo'ladi deyatuvdilar, qizlariyam qaynog'amga ko'rsataveramiz deb turgandilar. Lop etib kelinlarIB : "Bo'lmaydi, o'ziniki bor", deb qolsami?!

Suyuq xamir yuqi tog'orachani yuvayotgan Umida yelkasi osha o'girilib:

Nima o'ziniki bor? deb hayron bo'lib so'radi.

Menam etdim, bo'limgan gap desam, kelinlari: "Voy, Ahmad akam etganlar, shu cho'loq bo'lsayam yuradi, deganlar", o'zimam moshinadan tushayotganini ko'rganman deb turvoldi. Unga Mavjud opam: "Zotingga qirg'in kelgur erkak zotiga farqi yo'q, qing'irmi-qiyshiqmi, nafas olsa bo'ldi, yuraveradi" dedilar. Endi ular har zamonda mashinadan tushirib ketadigan bo'yil baland yigitni aytishvotti-da! Dilfuza shu gaplari bilan Umidaning sirlarini bilib oladiganday bit ko'zlarini unga qadadi. Quymoqning oxirgilarini tovadan olib, laganga solayotgan Umida o'zini yo'qotib qo'ydi. Nimalar deb valdirayapti bu? To'qmoq tushgandek boshi aylanib, ko'z oldi tindi. Uning uchun bu yaxshi gap emasdi. Zahar ichgan odamdek ko'ngli o'qchib, joyida depsoni: yuzi qorayib, boyagi mehrdan asar ham qolmadi. Yil-o'n ikki oy yolg'izlik azobini tortib, baxtsizligidan o'kinib yuradigan "qiz bola" bu balo yukini qandoq ko'tarsin?!

Umida karaxt bo'lib qoldi. Uning ahvolini sezgan qo'shnisi: "Zoyirjonga pishiruvdiz, ko'ngliz qolmasin", deya likopchadagi quymoqlarni laganga soldi-da, bolasini yetakB-lab chiqib ketdi.

Umida bir zumda shilinib tushdi. Derazadan tashqari qararkan, quyoshning bulutlar orasiga berkinib, kunning xira tortganini ko'rib, dilini qorong'ilik qopladi. O'rnidan turmoqchi edi, nogiron oyog'i azob berdi. Ixrab-sixrab bir amalladi. Bu nima degan gap? Opoqining oldida ham sharmanda bo'libman-ku! Opoqi yurolmaydi, ko'chaga chiqmasa, qizi, kelinlarining gapiga ishonib qo'ya qolgan-da. Anavi telba har kuni har xil mashinada keladi degandir. Sharmanda. Qo'ni-qo'shnilar meni shunaqa yomon bo'lib ketgan deyisharkan-da. Nega? Aybim nima? Yomon ish qilganim yo'q-ku! Odamlar nega bunaqa gapirishadi? Notavonligim rost-

ku! Dahshat. Ey xudo, nega? Ishga to'g'ri borib, to'g'ri kelsam, uyimga birov ostona hatlab kirmasa, ortiqcha u yoq-bu yoqqa bormasam. Qayerdan chiqdi o'zi bu gap? Birov yolg'onдан ko'nglimni olay demasa, bayram o'tadi, tug'ilgan kunlarim. Biron marta birov nomiga bo'lsa ham tabriklamagan. O'zing uchun o'l yetim, o'z kuminmi o'zim ko'rsam, birov og'irimni yengil qilmasa. Nega? Nega bunaqa gap chiqdi, qayeradir xato qildimmi? Rustam bir-ikki marta obkelib qo'ygani uchun shuncha gapmi? Yaxshiki, darvozaning tagigacha obkirib qo'ymagani, bo'lmasa balki ko'chani boshida tushganim uchun shunaqa gap qilishgandir.

Dod deb baqirgisi keldi, ammo baqirolmadi, hatto shu ish ham qo'lidan kelmadidi. Alazmada dil ustiga g'azab o'ti to'kilid battar yona boshladi. Yuragi kuydi. Yumshoq yostiqning bag'ri o'tli ko'z yoshlardan ho'l bo'ldi. O'ksinib-o'ksinib, oxiri uxlاب qoldi. Ertalab oynaga zo'r-bazo'r qaradi. O'h-ho! Bir yil yotib yig'lagan odamday yuz-ko'zlari shishib ketibdi. Bu ahvolda ishga borib bo'ladi? Noiloj kiyindi.

Yuragini qanchalik dard kemirmsasin, mahalladan bemalol boshini ko'tarib chiqib ketaverdi. Alam bilan qo'shilib yonib yotgan bo'lsa ham, hech kimdan uyalmadi, yomon ish qilgani yo'q axir!

Kasalxona darvozasidan kirayotib Rustamning mashinasiga ko'zi tushdi. Ichkari kirsa, to'qnash kelishini o'ylab, yuragini bir nima g'ijimladi.

Rustam akasi qadrondan bo'lib qolgan. Hammasini bo'lmasa ham, goho yuz dardining yarmini ayta oladi. Endi-chi? Hamshiralalar xonasidan chiqayotib, yo'lakning boshida bamaylixotir kelayotgan Rustamni ko'rdi-yu, indamay o'tib ketdi. Bundan ajablangan RusB-tam: "Kayfiyati yo'qrog'mi?" deb o'yldi. Umida unga yaqinlashishdan cho'chidi. Negadir birinchi marta shunaqa bo'ldi. Qo'shnilarning ig'vesida Rustamning aybi yo'q! Lekin gap-so'zlarga qolmasligi uchun undan ayrıladimi endi?! Ayriliq yomon. Bir paytalar dunyoda eng yomon narsa ayriliq deb eshitgan edi. Umida yosh bo'lsa ham, zaharli alamini ko'p tortgan. Ammo ota-onasi vafot etganda juda yosh, buvisidan ajralganda esa, yig'lab-yig'lab taqdirga tan bergen edi. Hozir bir narsani chuqur his qildi. O'lib ayrılish oson ekan, ammo tirik odamdan ayrılish o'limdan yomon. Ayniqsa, zarracha suyaning unga tog'dek madad berib turgan bir paytda Rustam bilan yaqinlashib, omonatgina bo'lsa ham unga suyanib yurdi. Endi o'z xohishi bilan ajraladimi?! Azob-ku! Bunga chiday olmaydi!

Har kungidek ishini tugatganlar kun qaytishi bilan uyiga oshiqadi. Umida hech qachon uyiga shoshmagan, kim ham kutardi uni uyda?! Rustam bugun navbatchi emas edi. Negadir ketmayapti. Reanimatsiya xonasidagi ayolni emlab chiqqan Umida:

Bugun navbatchimidingiz? deb so'rabs qoldi.

Xayrulloni xotini kasal ekan, bolalarimga qaramasam bo'lmaydi deb ketdi. Men qoldim, siz ham qolning, Rustam kulib hazil qilgan bo'ldi.

Nomiga hazil qilib aytigan gap, sahroga suv kelgandek, Umidaning qalbini junbishga keltirdi. Orqasiga qaytib, katta hamshiradan:

Shohida opa, bugun o'ningizga men qolaymi?! deb so'radsi.

Yaqindagina tez yordam olib kelgan ayolning qon bosimini o'lchayotgan Shohida opa ko'zoynagini tushirib qaradi:

Uyingdan ilon chiqqanmi? Ishxonaga propiskaga o'tib qo'ya qol, ovora bo'lib uyingga borib kelib yurasanmi!

Hazillashmayapman.

Bugun zaril ishim yo'q, meni g'amimni yemay qo'ya qol.

Men qarzga turib bering demayapman. Rost!

Shohida opa o'rnidan turdi:

Mayli, sazang yerda qolmasin!

Umida garchi bu piching og'ir botsa-da, ishi yurishganidan xursand bo'lib, achchig'i ham chiqmadi. Opani uyiga jo'natib yuborib, qorong'i tushguncha Rustamning ko'ziga ko'rinishdan qochib, berkinmachoq o'ynab yurdi. Hamshirani qidirib Rustamning jahli chiqdi. Boya tez yordamda kelgan ayolning ahvolini bilishga kirdi-yu, bir zumdan so'ng boshida qaqqayib turgan Umidaga ko'zi tushib:

Siz navbatchi ekansiz-u, bilmabman, qayerda yuribsiz? Rustam jahli chiqqanini yashirmadi, lunji pir-pir uchdi.

Botir bir marta o'ladi, qo'rkoq ming marta. O'zida jasorat paydo bo'lganini sezgan Umida:

O'zingiz qoling dedingiz-ku! deya ko'z qisdi. Umidadan bunday harakat ko'rmagan, hazil eshitmagan Rustam beixtiyor jilmaydi.

Tun olamni tobora o'z og'ushiga tortmoqda.

Yozuv-chizuvini tugatgan Umida Rustamni choyga chaqirdi. U yoq-bu yodordan gaplashib o'tirishdi. Rustamning tikka-tikka sochlari, chiroli ko'zlariga, tekis yelkalariga nazar solarkan: "Qandoq yaxshi yigit-a!" deya unga havas bilan tikildi.

Piyoladagi sovib qolgan choydan ho'plagan Rustam ro'parasidagi muloyim kulib turgan Umidaga qarab, uning bugun b'Tiboshqacharoq b'Tibekanligini sezdi. Qarashlari ham g'alati! Tavba, shuncha paytdan beri gaplashib, o'zgorganini sezmagan ekan. O'zi qiz bolamkin?! Har nechuk, shayton Rustamga ham ta'sirini o'tkazib, shahvat olovini yoqib qo'ydi.

Vaqt allamahal bo'ldi.

Bugun tinch, og'ir kasal yo'q, tez yordam hozircha hech kimni olib kelmadi. Reanimatsiyadagi kasallardan xabar olib qaytgan Rustam xonasidagi divanga yonboshladi. Ha-ya, Umidaga aytib qo'yish kerak edi. Bugun kelgan kasalga koordiolog chaqirtirish lozim. Shuni hozir aytmasam, esimdan chiqib ketadi deb, oyog'iga shippagini ilib, yo'lakka chiqdi. Umida navbatchilikda qolsa, ba'zi hamshiralarga o'xshab hecham uxlamaydi. Kechasi bilan yo'lakda b'TibHamshiralar postib b'Tib deb yozib qo'yilgan stolda yozuv-chizuvini qilib jimgina o'tiradi. Kasallardan tinmay xabar olib turadi.

Ammo bugun stol bo'm-bo'sh. Birortasini mazasi qochgani? Reanimatsiya tarafga yurib ketayotgan Rustam hamshiralar xonasining qiya ochiq eshikdan o'tib to'xtadi. Orqasiga qaytib, qop-qorong'i xonada devorga taqab qo'yilgan kushetkada g'alatiq o'tirgan Umidani ko'rib, ichkari kirdi.

Tuzukmisiz? shivirlab so'radi Rustam. Umida boshini yon tarafga burib, indamay unga g'alati qaradi.

Nega chiroqni yoqmay o'tiribsiz?

Umidadan sado chiqmagach, mehribonchilik bilan so'radsi:

Hech qayeringiz og'rimayaptimi?

Umida xo'rsindi. O'rnidan turib eshikni berkitib keldi. Qop-qorong'i xonada entikib unga yaqinlashdi. Rustam nima bo'layotganini anglamay uni bag'rige bosdi. So'zsiz uzoq quchoqladi

Qiz Rustamning sochlarni silab, yanayam uning bag'rige kirishga intildi.

Tun sokin. Jimlikni faqat entikib-entikib olingan nafas buzadi. Onangni qiz bola ekan.

Rustamning kayfi uchib, asablari taranglashdi, uni urib yuborgisi kelib, o'zini zo'rg'a qo'lga oldi. Boyagina ko'ziga beozor,

mushtipar ko'ringan qiz, endi ilondek ko'rinih seskandi. Jahl qilib ko'nglini og'ritib qo'y may deb nomiga erkalab qo'ydi. Bo'lar ish bo'ldi. Endishunga o'ylanadimi? O'sha kuni haqiqatan ham unga qiyin bo'ldi. Cho'loq qizga uylanishga onasi ikki dunyoda ham rozi bo'lmaydi. Gulday farzandini shu qoracha qizga ravo ko'radigan onasi yo'q. Otasining o'limidan so'ng oila deb yashagan Rustam tibbiyot institutini bitirib, ishga kirdi, kimsan falonchi do'xtir degan nom oldi. Endi kelib-kelib, onasining yetti uxbab tushiga kirmagan qizga o'yansa, odamlar, mahalla-ko'y nima deydi. To Nigoraga uylanguncha unga ana shu tikanli o'ylar azob berdi, juda ham azob berdi. Oldiga uylanish muammosi qo'yilganda tarang qilib vaqtini cho'zgani shundan edi. Keyin qarasa, onasi kechgacha yolg'iz, kelinoyisi vaqt-i-vaqt bilan qarashsa-da, asosiy yumushlar voldasining bo'yndida edi. Uylanish kerak edi. Turgan gapki, Umidaga uylanolmasdi. Oxiri, onasiga: "Bilganingizni qiling!" deyishga majbur bo'ldi. Onasi har kuni sovchilikka borib keldi. Lekin ona tanlagan qizlarning birortasi unga yoqmadi. Taqdirga yozgani uchramaguncha oradan ancha vaqt o'tib ketdi.

Bu orada Umida unga norasmiy xotin bo'ldi.

O'sha tun Rustam vijdonan qiyaldi. Nega bunaqa qildi? Endi olasan deb turib olsa, boshini qaysi devorga uradi? Qayerdan ham oldiga kirdi? E, onasini, nima bo'lsa bo'lar, men zo'ladiimmi, o'zi yopishdi.

Kunda Umidani kuzatadi, o'zini tutishiga, qilayotgan ishlariga nazar soladi. Yo'q, xatti-harakatida o'ziga nisbatan zarda yo jahz sezilmaydi. Nima o'ylagan o'zi bu qiz?

* * *

Kunlar o'taverdi, shayton qizni yana o'z iskanjasiga torta boshladi. Boshida o'zini-o'zi qiyab yurgan Umida, xuddi oddiy holdek bunga ko'nikib ketdi.

Endi u yolg'izmas. Gulga ham suv quysa ochiladi. U ham o'zgarib, ko'zlari charaqlaydigan bo'ldi. Xudo endi baxtimni berdi, atagani bor ekan: mana, homilador. Xayolan bolachani cho'miltiradi, emizadi. Hovlisida aylantirib yuradi, o'yinchoqlar olib beradi. Endi qorong'i kechalari shiftga termulib yotishdan qutuladi. Bolasi yig'laydi. Ko'tarasan deydi.

Rustam uning ahvolini payqab qolib, muammoni hal etish uchun zudlik bilan chora izladi.

Umida bo'g'riqdi:

Nega axir? Nimaga?

Gapni ko'paytirma, xo'p, shunaqa bo'pti, nega harakat qilmay o'tiribsan, nimani kutyapsan? Lunji pir-pir uchayotgan Rustam Umidaning tepasiga keldi. Yana nimadir demoqchi bo'lib, og'iz juftladi-yu, fikridan qaytdi shekilli indamay qo'ya koldi. Ikki qo'lini cho'ntagiga solib, stol atrofini aylandi.

Nega? Bu safar Umidaning ovozi judayam past chiqdi, stol ustidagi qoshiqni olib, teskari ushlab stolga chiza boshladi.

Nima qilasan hammani barobar qiyab, shusiz ham yaxshi yuruvdik-ku!

Siz yaxshi yuribsiz, men emas! Umida qo'lidiagi qoshiqni taraq etib stolga tashladi. Bir nuqtadan ko'zini uzmay, past ovozda gapirdi. Rustam aka, siz uyingizga ketasiz, bolalaringiz bo'lmasa, jiyanlarining bor, juda hech kim bo'lmasa, onangiz bor, siz hech qachon yolg'iz qolmagansiz. Buni nimaligini his qilish u yoqda tursin, tushuna olmaysiz, men doim yolg'izman. Endi shunaqa o'tmayman-ku, men ham o'zimni ayolday his qilgim keladi. Bir kun men ham qarib qolaman. Kim bilan qolaman, menga kim qaraydi? Nega bunaqa tomonlarini o'ylagizingiz kelmaydi.

Odamlar nima deydi? O'zi esing joyidami? Sen nega bu tarafini o'ylamaysan?

Odamlar bilan ishim yo'q, kim nima desa desin. Odamlar deysiz. Oani o'sha odamlar? Kunduzi hammasi g'iybatimni qiladi, kechasi yolg'izlikdan sifilib, yo qorong'ida qo'rqb o'tirganimda bittasi jonimga oro kiradimi? Kasal bo'lsam, tepamda bittasi kelib qaraydimi? O'lib qolsam suv tomizishga odam topilmaydi. Qachon o'lganimni birov bilmay ham qoladi. Odamlar deysiz.

Tinchgina, tappa-tuzuk yurganimda, bittasi yo'q bu yaxshi qiz, qadamini to'g'ri bosadi dedimi? Qaytanga o'shalar

Umida kafti bilan yuzini to'sdi.

Rustam unga achindi. Rostdanam unga qiyin, juda qiyin. Lekin uyam nima qilsin, boshqa iloji yo'q. Kelin qilib uyiga oborolmasa, ko'cha-ko'yda birga olib yurolmasa, RusB=tam xohlaganda ham buning iloji yo'q.

Umida, hammasini bilaman, seni hech qachon tashlab ketmayman, esingda tursin. Lekin shuniyam bilginki, men nikohsiz tug'ilgan bolani yomon ko'raman. Eng yomon ko'rganim nikohsiz bola. Endi o'zingga qara, meni desang boladan voz kech, yo'q desang, o'zing bilasan, boshqa senga aytadigan gapim yo'q. Vaqt kam. Ikki kunda menga javobini ayt. Qayerga borishingni aytaman. O'zing tanla.

Ko'z yoshlari shashqator Umida bosh silkidi. Ikki kunni kutgandan nima foyda? Nimadir o'zgarib qolarmidi? Rustamdan ajralsa, keyin nima qiladi? O'tizga chiqib, shu o'g'ri baxtga yetishdi. Shundanam ajrasa, yana birov unga qararmidi? Tag'in Rustamdaqasi? Uniyam iloji yo'q. O'zini o'ylayapti. Bolasi bor, onasi cho'loq, degan gap chiqib qolsa, birov qizini bermaydi. Meni deb uyam baxtsiz bo'lmasin. Mayli, keyin deyapti-ku. Bir bergen xudo yana berib qolar. Baribir, shuncha yaxshilik qildi, har holda ko'nglimni olib turadi. Yig'lasam, yelkasiga bosh qo'yadigan odam bor-ku!

Ayol qalbining cheki-chegarasi yo'q. Uni hech qanaqa shaklga keltirib bo'lmaydi.

Adoqsiz, qolipsiz u!

Unda-munda hammadan berkitib bosh qo'yadigan yelka uchun boladan voz kechdi.

Shunga ham ikki-uch yil bo'lib qoldi.

Uchinchi Yo To'rtinchi Xotiningiz Chaqiryapti

Ziyo, bitta kofe ichmaysanmi?

Bir dasta kasallik tarixini quchoqlab kirgan Ziyoda Xayrulloning hazilini tushunib qahva damladi.

O'zing chaqqon, oyog'ing chaqqon, tiling chaqqon. Ceni ko'rsam, tilimga tegirmontosh bog'lanadi.

Qahva tayyorlab, maqtov eshitishish umidida turgan Ziyodaning qovog'i osildi. Xo'mrayib Rustamga qararkan:

Shu o'rtog'ingiz juda qitmir, bir kun urishib qolamasak deb qo'rqaman! dedi achchiqlanib.

Xayrullo past tushmadi:

Rustamga nima qilasan dardingni aytib, bechora yangi uylangan. Lekin men senga qarasam, nega o'n to'qqiz yoshimda uylangan ekanman, deya afsus qilaman!

Ziyoda gap kelganda otasini ham ayamaydi. Bir boplama yamanmi deb o'yadi-yu:

Shuniyam bordi-keldisi bormi? Musulmonchilikda to'rttagacha mumkin-ku! dedi kesatib, "yana boshqasiga uylana qoling" degan

ma'noda.

Xayrullo gapni hazilga burdi:

To'rttalasigayam uylanib bo'lganman, Ziyo!

Xonada qahqaha yangradi.

Hazili boshiga balo bo'lgan Ziyoda qip-qizarib: "Boring-e!" deya xonadan chiqib ketdi.

Rustam miriqib kulkarkan:

Shuni nuqul g'ashiga tegasan, dedi qog'ozdan ko'zini uzmay va ko'ngliga qo'l solib ko'rdi. Shu qizning senga ko'ngli bor. Seni ko'rsa qizarib ketadi.

Behuda gapirma, u qiz bolaB !

Aytdim-q'ydim-da. Lekin nimadan siqilayotganini bilmasak ham ayb bo'ladi. Bechoraga qiyin. Uylanguningcha rosa og'zingni poyladi.

Nega poylaydi, u bilan hech qanaqa bog'liqlik joyim yo'q. Erga tegib ketaversin!

Ziyoda yugurib xonaga kirdi.

Gapingiz to'g'riga o'xshaydi. Uchinchi yo to'rtinchchi xotiningiz sizni chaqiryapti.

Xayrullo bezovtalanib, Ziyodaga qaradi:

Esing joyidami? Uchinchi, to'rtinchning nimasi? Kim chaqirdi?

Xayrulloning gaplaridan Ziyoda, endi meni galim degandek, bemalol yayrab kuldii.

Qo'rkoq ekansiz-ku, rangingiz oqarib ketdimi? Ertalab tez yordam obkelgan aylolchi, Ziyoda Rustamga qarab izoh berdi hozir reanimatsiyaga kirsam, sizni chaqirib berishimni so'radi.

Shunaqa demaysanmi?! dedi Rustamga qarab. Sen ko'rganmiding?

Qon bosimi bilan kelgan. O'n to'rt haftalik, bachadon chandig'i bor.

Borib ko'ray-chi! Xayrullo oyna-eshiklarni zirillatib chiqib ketdi.

Burniga kislorod naychasi, bilagiga uzun rezina ichakdan dori ulab qo'yilgan. Osma ukol tomchilab turibdi. Havorang ekranda raqamlar qon bosimini ko'rsatmoqda: muvozanat buzilgan. O'h-ho', ishlar chatoq-ku! Bemor kim bo'ldiykin? Karavotga yaqin borgan Xayrullo dabdurustdan ayolni tanimadi. Kasal bir nuqtadan ko'zini uzmay yotardi. Xayrullo uni tanidi:

Iye, Saida! O'zingmisan?!

Saida hazin jilmaydi.

Xayrullo o'pkalanganday bo'lib:

Nega darrov chaqirtirmading?! вЂњTez yordam вЂќ obkelganini eshituvdim, senligingni bilmabman!

Saida gapira olardi, lekin istamadi, sukutni ixtiyor etib, ma'nosiz ko'zlarini bir nuqtaga tikib yotaverdi.

Ziyoda kirib ustma-ust bir necha dorini tomiridan yuborayotganida, Xayrullo вЂњyotib tur, men hozir kelaman вЂќ deb chiqib ketdi.

Shifokorlar xonasiga kirib, Rustamdan: вЂњNosirova ekan-ku, tanimadingmi? вЂќ deb so'radi. Rustam yo'q ma'nosida bosh chayqadi.

Xayrullo bezovta edi.

O'n to'rt haftalik ekanmi? dedi xavotirlanib. Besh oy bo'ldi operatsiya qilganimga, tug'ishi mumkinmas, nega abort qildirmabdi?

Rustam noroziroq bo'lib do'stiga qaradi:

Kasalni darrov abortga tushirib bo'larkanmi?! Yotqizish kerak, tekshirish kerak, davolash kerak, keyin homila olib tashlanadi!

Tekshirib ovora bo'lislarning keragi yo'q. Homilani to'xtatish kerak. Baribir bo'lmaydi.

Rustam bosh irg'ab tasdiqlab qo'ydi.

Kuchli uyqu dori ta'sirida bir uxbab turgan Saida ko'zini ochganida boshida Xayrullo g'amgin turardi.

Qahramon ona bo'lg'ing kelib qoldimi?!

Saida miq etmadni. Ekrandagi raqamlar o'zgarib, qon bosimi ko'tarilayotganini ko'rsatdi. Xayrullo hamshirani chaqirib ukol buyurdi-da, o'zi tashqariga chiqdi. Hazil bilyaptimi bu juvon! Rostdanam tug'moqchi shekilli! Buyrak bilan hazillashib bo'lmaydi.

Operatsiyaga ko'ndirguncha esi ketuvdi, abort qildirguncha onasini ko'radi shekilli. Ahvolini bilib turibdi, baloga aqli yetadi.

Lekin gapira olmayapti, bir nimalarni o'ylab siqilgan, shuning uchun meni so'ragan, dardi bor, yorilgisi kelyapti-yu, yorila olmayapti. Gaphaelish kerak.

Xayrullo uyga ketar chog'i undan yana xabar oldi. Qon bosimi bir oz baland edi. "Yaxshi yotib tur, ertaga ko'rishamiz" deb chiqib ketdi. Uyga yetib kelgach, "Dadam keldi-la!" deb oyog'iga yopishgan o'g'li bilan qizini nari-beri ovutgan bo'ldi-da, ichkariga kirib ketdi. Orqasidan qo'rqa-pisa kirgan xotiniga indamay, yuzini yostiq bilan berkitib yotib oldi. "Kayfiyati yomon, bir balo bo'lganmikan, qaynonamnikiga kirgan bo'lsalar, g'idi-bidi qilgandir", degan xayolga borgan Go'zal hadiksiragancha bolalarini ovozini chiqartirmay oshxonada olib o'tirdi. Ozgina yotib o'ziga kelgan Xayrullo bolalarini sog'inib, oshxonaga chiqdi. Lekin ovqatlanayotganida ham kechqurun bolalari bilan o'ynayotganida ham, xayoli faqat Saidada bo'ldi. "Tug'ish hazilmi unga?!"

Qaysar Onaning Tashvishi

Rustam Nosirovaga tegishli analiz natijalarini, tekshiruv qog'ozlarini jamlab, uning ahvoli bilan qiziqli. O'zgarish deyarli yo'q. Qon bosimi dorilarning kuchi bilan pasayib, yana ko'tarilayapti. Bu ahvolda uzoqqa borolmaydi. Homila rivojlanishi juda sust. Gemoglobini past. Xayrullo haq homiladorlikni to'xtatish kerak. Darhol. Orqaga surib bo'lmaydi. Tushdan keyin Xayrulloga kasallik tarixini berib, nima qilamiz deganday qaradi.

Nosirova tug'aman deb turib olishi kutilmagan hol bo'lib, hammani sarosimaga solib qo'ydi.

O'zing yana bir gaplashish ko'r, har holda eski qadrondans! dedi Rustam.

To'g'ri aytasan, gaplashish kerak! Kasalning qornini yorib davolagandan ko'ra, dilini yorsang, tuzatishing oson kechadi. Bu meni ta'lomitim, qalay, fikrimga qo'shilasanmi, Gippokrat?.

Shu ta'lomitningi amalda isbotlab bersang, yanayam qo'llab-quvvatlardim. Dardisar kasallar bilan oson chiqishasan!

Xayrullo ko'pincha ichki sezgisiga ishonib, bemalol qaror qabul qilardi. Oldingi safar Saidani operatsiyaga ko'ndirganda ham o'ziga ishonganidan bemalol gap boshlagandi. Bu safar ko'nishiga o'zining ham ko'zi yetmay bir oz qiyndaldi. Kechki payt ko'ndirish ilinji bilan yana uning oldiga kirdi. Bu safar navbatchi emas edi.

Qizingni sog'inayotgandirsan? Uyingdagilarga ayt, obkelishsin, aytib yo'yaman. Yana sog'intirib kasal qilib o'tirma. Ering

ko'rinchaydi? Tug'ishga yotganingda ketkazib bo'lmasdi. Yo men ko'rmayapmanmi?

Saida bu odamni juda hurmat qiladi. Avvalgi safar qizi tug'ilganidan keyin uyiga chiqqunicha juda ko'p g'amxo'rlik qildi. Xuddi oldindan qadrdon bo'lgandek, juda mehribon. "Shunchaki yaxshilik qiladigan odam ham bo'larkan-da: dildosh-suhbatdosh".

Avvalgi safar Saidaning ko'nglidagini topib, mushkulini oson qilgandi. Bu safar-chi?! Bu safar ham ko'ndiroladimi?! Saidaning iltijoli qarashlari Xayrulloning ko'nglini o'rtadi.

Shu odating qachon qoladi, a? dedi unga astoydil achinib. O'zingni o'zing qiyinayverasanmi? Yon-atrofingga qara, hamma yashayapti. Ering bor, oilang bor, bolang bor. Yana nimaga siqilaverasan?! O'zingni qo'lga olsang-chi?!

Saida oxiri tilga kirib:

Xayrullo aka, tug'masam bo'lmaydi! dedi ko'z yoshi qilib.

Sabab?! Xayrullo har galgidek masalani ko'ndalang qo'ydi.

Sabab yana ering, to'g'rimi?

Saida yutinib, gapirmoqqa chog'langan edi, Xayrullo qo'ymadidi.

Saida, sen singlimdaysan, qattiqroq gapirsam ko'nglingga olma, eng avvalo yurakni keng qilish kerak. Hamma narsagayam sal yurakni yoyib nazar sol. Yuragi tor odam yashadi nimayu, yashamadi nima? Unaqalarni doim ko'ngli to'lmaydi, nimadandir norozi bo'lib yuradi. Sen nega doim ikki oyog'ingni bir etikka tiqib yurasan? Dunyoga boshqacha ko'z bilan qaragin. Sen nima deb o'ylaysan: hayot birovga shirin, birovga achchiqmi? Yo kimgadir pul tutib, kimgadir musht tushiradimi? Yo'q, hayot hammaga barobar, bir xil narsani yashashni in'om qiladi. Faqat hamma har xil narsani oladi. Agar bilsang, aqli odamlar yaxshi narsalarni o'zlarini hayotdan yulib oladilar. Boshqa iloji yo'q. Shalvirab o'tirsang, o'tiraverasan. Bilib qo'y, hayotga qanaqa ko'z bilan qarasang, xuddi shunaqa tuyuladi. Baxtsizlikdanam baxt topish mumkin, faqat kallani ishlatish kerak. Hozirgi ahvoliningni qara, tuqqaningga yarim yil bo'lgani yo'q, qo'lingga guldek qizni olding, soppa-sog'. Xo'p, xudo yana beribdi, sen qiyalmagin deb, homiladorlikni to'xtatishmoqchi. Boshingda tupa-tuzuk ering bor, birovdan kam joying yo'q, qiyshiqmassan, cho'loqmassan, aybing yo'q. Lekin senga qaragan odam, katta ayb ish qilib qo'yibdi deydi. Aft-angoringni tuzatib ol.

Xayrulloning chapani gaplari Saidaning yuziga tabassum hadya etdi.

Xayrullo aka, gaplaringiz har doimidek to'g'ri. Faqat bilasizmi, yon-atrofim to'la odam, lekin ko'nglimni hech kimga ocholmayman. Bundanam battar yolg'izlik bo'lmas ekan.

To'ppa-to'g'ri, bu dahshat, siqilgan payting bemalol yuragingni ohib-sochaver, bexijolat.

Saida kuldii.

Qizim tug'ilgandan beri umuman begona odam bilan yashayotgandekman. Unga sezdirmaslikka harakat qilaman, lekin bu holat borgan sari meni qiyinayapti.

Sabab?

Chunki, hammasi yasama, hamma narsa omonatga o'xshaydi. Yo men o'zgarib qolganman, yo erim oldingidaymas. Hattoki qizim, uyim ham birovning omonatiga o'xshaydi

Depressiya operatsiyadan keyingi holat, ruhiy jarayonlar sekinlashuvi, kayfiyatning buzilishi. Shuning uchun hech ochilmaydi. Siqilgani-siqilgan. Doim yomon narsalarni o'ylab yuradi, ko'ngli g'ash. Yuragiga qil sig'maydi. Nazarida, dunyodagi eng baxtsiz, omadsiz odam. Tug'ruqdan keyin ko'p ayollar shu dardga uchraydi. Afsuski, kam, judayam kam foizi mutaxassisga murojaat qiladi. O'z ahvolini tushunmasligidan oilasida har xil mojarolar kelib chiqadi. Qo'ydi-chiqdilarning asosini ham shu holatga tushganlar tashkil qilar balki?

Xayrullo Saidaning ahvoliga qarab turib, o'zini erkak qilib yaratganga tangriga shukrona aytdi. Nevropotolog, psixoterapevt maslahati kerak. Ertaga, yo'q bugunning o'zida chaqirtirish kerak. Operatsiya asab tizimiga qattiq ta'sir ko'rsatgan.

Kel, ochiqchasiga senga aytib qo'ya qolay, hozir dod desang ham, voy desang ham tug'a olmaysan.

Nega endi?

Birinchidan, hali vaqtli, bachadonning chandig'i bitmagan, ikkinchidan, yana qon bosiming, uchinchidan buyraging yomon, hatto juda yomon, to'rtinchidan yana kamqonliging, beshinchidan, bu ahvolda bola sog'lom rivojlanma olmaydi, undan keyin qanaqa onasan, qizingni o'ylagin, bechora qiynalib ketdi!

Xayrullo aka, bir iltimosim bor.

Bemalol.

Oldingi safar, operatsiyadan qo'rquvdim, hecham xohlamagandim, to'g'risi siz menga anchagina dalda bo'luvdingiz, endi, endi yana bir marta shu bolani tug'ib olishim kerak.

Oolang tinchmi o'zi?

Saida birdan ho'ngradi. Xayrullo ham bemalol yig'lab olsin, deb qo'yib berib, ekrandagi qon bosim ko'rsatkichlarini kuzatib o'tirdi.

Shu bolani tug'masam erimdan ajraydiganga o'xshayman!

Aniq sabab bormi?

Bilmadim, lekin shunaqa deb o'layapman.

Hech qanaqa asosing yo'q. O'zing miyangga quyib olgansan. Bu ruhiy holat, ko'p ayollarda tug'ruqdan keyin shunaqa bo'ladi. Ko'ryapsanmi, ruhiyatning, asabing charchagan, bu ahvolda qanaqa qilib tug'moqchisan, hecham iloji yo'q. Ke, homiladorlikni to'xtatib, asablarining davolaymiz. Mana ko'rasan: umuman boshqa odamga aylanasan. Hammasi izga tushib ketadi. Boyagi gapni miyangdan chiqarib tashla, ering tug'asan deb majbur qilmayapti-ku! Senga hech nima deb da'vo qilmayapti boshqa birovni topib olmaganmi?

Agar topib olgan bo'lsa, senga aytib qo'ya qolay, bola tug'ib ushlab qolaman deb o'ylama. Xohlasa, o'nta bola bilan ham tashlab ketadi.

Bu gaplarni eshitish Saida uchun og'ir edi.

Men sizga ishonaman shu bolani tug'ishim shart! dedi u yalingan ohangda.

Bunaqa narsani iltimos qilma, bunga haqqim yo'q.

Siz meni hammadan yaxshi tushunasiz.

Saida Xayrulloning ko'zlariga shunaqangi termuldiki, diydasi qattiq Xayrullo dosh berolmay uh tortib, chiqib ketdi.

Bo'lim mudiri Zahro Po'latovna Xayrullo, Rustam bilan boshlashib, professoring oldiga kirdi. Vaziyat jiddiyigini hamma yaxshi

biladi. Oppoq sochli, qovog'i soliq professor quyuq qoshlarini kerib, shunaqa bo'lishini bilardim, degandek ularga qaradi va: Ba'zida ayollarga tan beraman, ba'zida ulardan jahlim chiqadi. Gohida o'ylanib qolaman, biz bo'lajak onalarni qizlarni to'g'ri tarbiyalayapmizmi, yo'qmi?

Rustam professorga ajablanib qaradi. "Nega endi ayollarni emas, qizlarni?"

Xonadagilar professorni gapidan chalg'itib qo'yishdan qo'rqqanday, qimir etmay o'tirishardi. Guldiragan ovozda, professor xuddi o'ziga o'zi gapirib, qattiq ta'sirlanayotgan odamday bir nuqtaga tikilib davom etdi.

Ayol bo'lding degani, orqa-o'ngingga qaramay yiliga tug' degani emas! Nosirovani bizdan ketganiga yarim yil ham to'lgani yo'q. Avvaliga operatsiyaga rozi bo'lmovdi. Kesar kesish usulini bizda ko'pincha qoralashadi. Tabiiy tug'ish hech qanaqangi muammo tug'dirmasa-ku, bu eng yaxshi yo'l. Ammo ona va bola, ikkisidan birining, yo ikkalasining ham hayoti havf ostida qolsa-chi?

Aynan shu kesar kesish usuli bilan bir necha millionlab ona-bolalarning hayotga qaytGANI ma'lum! Yoinki abort! Birovga qarasang, yiliga o'nta abort qiladi, birovga qarasang, o'n yilda bitta tug'adidi. Nahotki, shuncha harakatlarimiz evaziga ayollarimizni tug'ishdagi, oiladagi saviyasini oshira olmasak. Abort bu tug'ilman bolani o'ldirish degani. Dinda bu narsa qattiq qoralanishi bejiz emas. Ammo ayol hayoti havf ostida qolganda, qarshilik qilish o'ziga zulm qilish emasikan? Ayollarimiz buning me'yorini belgilay oladigan darajaga yetib olisharmikan? Hamma narsani, shu jumladan, bolaniyam beradigan xudo. Nosirovaning homiladorligini to'xtatishimiz kerak edi. Qattiq qarshilik ko'rsatgandan keyin majbur qilishga haqqimiz yo'q. Endi oldimizdagidagi muhim vazifa tug'ishigacha sidqidildan davolab, eson-omon bolasini qo'liga olib berish. Doimiy nazoratda qon bosimini bir me'yorda ushlab turishimiz kerak. Qo'shimcha analizlar olib, buyragini davolash uchun dori-darmonlarni ko'paytirish kerak bo'ladi. Hozir o'n oltinchi haftada bo'lsa, xudo xohlasa, o'ttiz to'rtinchchi haftalarga borib, operatsiyaga olamiz. Bolasi judayam kichkina, agar ketaman deb tixirlik kilsa, yigirma haftalardan keyin uyiga javob bersak bo'ladi. Lekin nazoratni kuchaytirish kerak. O'shanda ham vaqtida qatnab turish sharti bilan javob beramiz.

Zahro Po'latovna nazarida professor hozirning o'zida Nosirovaga javob berib yuborayotganday tuyuldi. E'tiroz bildirgisi keldi-yu, "shuncha gapidan keyin gapirganim bilan inobatga olarmidi" deb indamadi. Xonadan chiqar payti baribir chidab turolmay:

Shuncha odam bitta jiblajibonday qizga gapimizni o'tkaza olmasak, deb minB~g'irlab qo'ydi.

Qaynona Qiyin Onami?!

Qaynonasining darg'azab ovozi hovliga baralla eshitilmoqda edi.

Kelin qilsam, huzurini ko'raman degandim, yo'q, kelin qildim nima-yu, qilmadim nima? Qaytanga men unga xizmatkor.

Kechgacha uyg'a kirvolib, bilmayman nima qiladi, onasi uyda tuqqanmi, nima balo?

"Nima ayb qilibman" deya xomush tortgan Nigora erini kuzatgani chiqishini ham, chiqmasligini ham bilmay beixtiyor deraza raxiga behol suyandi: yuragi tezB~tez uring, ichida nimadir zirilladi. Titrog'i bosilgach, og'ir xo'rsindi-yu, hovliga yugurib chiqib, darvoza oldini supurishga tutindi. Qaynonasiga ko'zi tushib qolishidan cho'chib, jon-jahdi bilan ishini tugatib, tushlik uchun ovqat boshladi. Xayolida "qaynonamning ko'ngli to'lmayapti, hali eri kelsa, nima derkin, birinchi to'qnashuv bo'ladi?" degan gap charx uring, butun a'zoyi badani qaqshear edi.

Dasturxon boshida qaynonasi hech nima bo'limganday ochilib-sochilib ovqatlandi. Nigora esa yana gap eshitib qolmay, deya hovlida g'imirsib yurdi. Boshqa ne iloji bor?

Ishing tugadimi? dedi Rustam unga va: O'zi sog'inasanmi hech? deya uni bag'rige tortdi. Kutilmagan muomaladan esankirab qolgan Nigora suyunishini ham, suyunmaslikni ham bilmay angrayib qoldi.

Kunlar bir-birini shitob bilan quvadi. Allaqaqchon jazirama saraton kunlari boshlanib, hamma salqin joy qidiradi. Qoq peshinda hovlida qilar ishning o'zi yo'q. Nigora muzdek uyg'a kirishga qaynonasidan cho'chiydi. Ertalabdan beri hovliga olti marta suv sealdi. Azonda yuvilgan kirlari allaqaqchon quiridi, hatto ularni dazmollahga ham ulgurdi. Lang ochiq eshikdan ko'chaga ko'zi tushib, yuragi bir xapriqdi: qaniydi xohlaganda ko'chaga chiqqa olsa? Uyini, onasini qo'msadi. Ko'ngli ochiq eshikdan bir hatlasang bas, hammasidan qutulib, yengil bo'lsan deydi. Ko'zini chirt yumib, chiqib ketgisi keldi-yu, o'zini tutdi.

Har kuni ahvol shu. Qaynonasi ovsininikiga chiqqan edi. Haligacha daragi yo'q. Eri ishda. Ovsini uyi yaqin bo'lsayam qaynonasidan qo'rqadimi, ko'p chiqmaydi. Chiqsayam bolasini bahona qilib, darrov orqaga qaytadi.

Nigora nima ish qilishini topganday suyunib, oshxonaga kirdi, ertalab pishirilgan somsasidan idishga solib, darvozaxonaga borganda to'xtab qoldi. Bir oz turib, orqasiga qaytdi. Keyin o'zicha, chiqqanim sababini so'rab qolsalar, kechqurunga nima ovqatligini so'rashga deyman, deya o'yladi. Eshikni yopib ko'chaga shoshdi. Baland so'rili, atrofi panjara bilan o'ralib, ichiga igna bargli daraxtlar ekilgan darvoza yoniga borib, eshikni taqillatmoqchi edi, ichkaridan qulflanmagan ekan, qo'l tekkizgan hamono bir tavaqasi ochilib ketdi. Keng yo'lakdan o'tib borarkan, hovlidagi so'rida o'tirishgan shekilli, qaynonasining shang'illagan tovushi keldi.

Uzib-uzib gapiraman deyman, kel, qo'y deyman, mulla Misrning tinimi yo'q, qilgan ishini unumi yo'q! Kelin deganni tovonidan o't chaqnasa, bu uyaqqa o'tadi, buyaqqa o'tadi, nima qilganini bilmayman, tirjayishni bilaman deb, tirjaygani tirjaygan. Qilgan ovqatini yegim kelmaydi, yuvgan kirini kiygim kelmaydi. Qayningizga shuncha gapirdim, talqon yutgan. Miq etmaydi. Bu bo'shashgani boshida ma'lum edi. Xotin eplolmaydi. Qo'liga latta tutmagan, onasi ish o'rgatmagan, yaxshiki, shu kunlarda o'qishi yo'q, bo'lmasa bu kunlaram holva bo'lib qolardi.

Somsa ko'targan Nigora, birpas kaltak yegan boladay jovdirab turib, keyin orqasiga qaytdi. Ko'ziga allaqanday xunuk ko'rinish qolgan hovliga kirib turib qoldi. Yuragi ezildi. Xo'rligi keldi. O'ziga o'zini rahmi keldi. Dili poralandi. Aybi nima? Uzoq o'ylab baribir topolmadidi. Najot qidirdi. Og'ir xo'rsinrishdan boshqasi unga yupanch bo'la olmadidi. Madad kutdi. Yig'i yordamga kelmadi. Hovlining devorlari to'rt tarafdan siqib kela boshladi.

Ish qilish kerak!

Shundan boshqasi miyasiga kelmadi. Hamma xonalarni ko'zdan kechirib ish qidirdi. Yuragi besaranjom urdi, qo'li ishda-yu, xayoli qaynonasida: "Hali chiqsa nima derkin?"

Ichida qalt-qalt titroq turgan Nigora kechgacha qaynonasiga ko'zi tushib qolishidan qo'rqib, chekka-chechkada berkinib kunni o'tkazdi.

Uning kunlari, boshqaning emas, aynan uning kunlari shu tarzda g'arib qaridi.

Baxta nima bilan yetishiladi faqat sabr bilan. Har qanaqangi tashvishlardan uzoq, umuman xotirjam o'sgan Nigora sabr ulashilganda mo'l-ko'l qilib berilgan desak bo'ladi. Bora-bora qaynonasining ig'vosiga ko'nikib, hattoki hayron ham qolmaydigan bo'ldi. Ko'nikishga ko'nikdi-yu, lekin ko'ngli xotirjam emas. Doim nimanidir kutib, xavotirlanib yashaydi. Xuddi qadam bossa

portaydigandek. Og'zidan gap chiqishi amri-mahol, yuragi pitirlagani-pitirlagan. To'ydan keyin o'tgan fursat ichida eri unga biror marta na qo'pollik qildi, na ortiqcha mehr ko'rsatdi. Muomalasini o'zgartirmaydi. Doim bir xil. Undan ko'ra baqirib urgani, so'kkani ming marta yaxshi edi. Yarim yildan oshsa-da, ota-onasiga biror marta gap ko'tarib bormadi. Har safar xuddi hammadan baxtli kelinday ko'rinishga harakat qildi. Sirtdan qaralsa-ku shunday, lekin ichida doim nimadir g'alayon qilib, yuragini siquvg'a oladi.

Kechgacha dunyoning ishini qilib charchagan Nigora uyg'a kirib kiyimini almashB-tirmoqchi edi. Negadir holsizlandi. Xonadagi jihozlar ko'ziga befayz ko'rini, allaqanday qiymatsiz narsaga o'xshab tuyuldi. Javondagi qimmatbaho servizlar, billur idishlarning hammasini onasi bilan ne orzuda saralab olishgandi. Qo'yilgan joyida qimirlamay turibdi. Bu hovliga mehmon ham kelmaydi. Unda doim jumlik hukmron.

Ko'ziga ko'ringan hamma narsani olib otgisi, to'yib-to'yib yig'lagisi keldi. Anchadan beri yig'i undan yuz o'girgan. Og'ir ruhiy holatda odam yig'lash qobiliyatini yo'qtadi. Shu darajaga yetib qoldimi?!

Nigora chuqur xo'rsinib, yotoqxonasiga kirib, javonni ochdi. Nima kiysa ekan? Eri baribir ahamiyat bermasa kerak. Kiyimi bilan ishi yo'q. Nima bilan ishi bor o'zi? Kelgandan ketguncha onasi Nigorani yomonlaydi. U bo'lsa miq etmaydi. Bittasi yomonlashini qo'yimaydi, bittasi og'zini ocholmay eshitishini qo'yimaydi. Sog'i bormi o'zi bularning? Kelin bo'lgandan beri bu uyga nimaga kerakligini bilolmaydi. Bu uyda uning o'rni bormi o'zi? Ovqatni qaynonasi o'zi ham eplaydi. Yig'ib-terarni kunda bo'lmasa ham, kunora qilib olaveradi. Faqat shuning uchun Nigora shu uyda turishi shartmi? Nigora bo'lmasa Rustamning hayoti boyagi-boyagiday o'z yo'lida davom etadi.

O'ziga juda yarashadigan kalta xalatini lozimi bilan olib kiyib ko'rdi. Toshoya qarshisiga bordi. Doimo qaddi-qomatiga havas bilan qaraydigan Nigora bu safar negadir ma'yus qaradi. Pardozga ham hushi kelmay turgandi, ko'cha taraf derazasidan qo'shnisining ovozi keldi:

Kelingizga yana nima kerak ekan o'zi, uy-joyi tayin, qorni to'q, usti but bo'lsa, bir xillaga o'xshab qaynonalik qilavermasangiz, eri hadeb tergamasa, aslida kelin zotini bo'sh qo'yib bo'lmaydi.

Qaynonasi Nigorani hali ham oshxonada deb o'ylagan bo'lsa kerak, bemalol ig'vosini davom ettirdi:

Bir umr shu bolalarni deb, yig'ib-terib yashagan edim. Insafni o'ziga bermasa qiyin ekan.

Nigoraning oyoqlari qaqqashab og'ridi. Bu xotin sog'mi yo jinnimi?! Kamchiligid bo'lsa, betga aytsin. Birovlarning oldida hech nima bo'limganday gaplashadi. Nima kerak o'zi bunga? Qarindosh-urug', mahalla-ko'ya yomonlamagan odami qolmadi. Jinni desa jinniga, sog' desa sog'ga o'xshamaydi. Odamning aybini o'ziga aytmay orqasidan ig'vo qiladi.

Dod deb yugurib chiqib, qaynonasining sochini yulgisi keldi. Telbalardek o'tirgan joyida atrofqa olazarak qaradi. O'zi adashdi, boshqacha bo'lishi mumkin emas!

Qorong'i tushsa-da, Rustamdan hamon darak yo'q. Nigora har kungidek yana yolg'iz. Qaynonasi o'zining xonasida, yo allaqachon uxbab bo'lgan, yo televizor ko'ryapti. Kutib-kutib charchagan Nigora, uyqusirashiga qaramay ko'chadan mashina tovushi kelishi bilan, dik etib o'rnidan turib, derazadan qaraydi. Mashina to'xtamay o'tib ketsa, yana joyiga kelib yotadi.

Qaniydi, bittagina kitob bo'lsa. O'zi bilan faqat darsliklarni olib kelgan, yaxshi ko'rib o'qiydigan kitoblarini yig'ayotganida, kelinoyisi "kelin narsa kitobga balo bormi, ishdan qo'yadi" deb kitoblarini berdirmagandi. Karavot yonboshiga qo'yilgan tumbochka tortmasini ochib, "Bolalar kasalliklari" kitobini varaqladi, turli jadvallar ko'ngliga tegib, kitobni yopib qo'ya qoldi. Shu topda mahmadona kelinoyisidan ranjidi.

Vaqt allamahal bo'ldi.

Hali Rustam kelsa nima deb aytadi? Nigoraning ko'nglida goh quvonch uyg'onadi, goh uning o'rnnini xo'rsinish egallaydi.

Ko'z oldida bolacha paydo bo'ldi, o'g'il bo'larmikan, yo qiz? Qiz otani boy qiladi, deyishadi. Yana barakayam deyishadi.

Shunaqa xayollar bilan uxbab qoldi. Bir mahal ko'ngli behuzur uyg'ondi. Darhol turmasa, o'rniga qayt qilib yuborishini bilib, hovliga yugurdi: tomog'i, burni, qulog'igacha achishdi. Toza havo olib, bir oz yengil tortib, qaddini rostlagach, orqasida turgan RusB-tamni ko'rdi. Qachon kelgan ekan? Ikkalasi bir-biriga tikilgancha, jim qolishdi. Uyalib yerga qaragan Nigora yolg'ondan burnini tortib qo'ydi.

Rustamning ko'ngliga iliqlik yugurdi. Yaqin kelib xotinining yelkasidan quchib, "o'zingni ehtiyot qil" dedi. Bo'ldi. Bor-yo'g'i shu. Nigora bundan boshqasini kutmagan ham edi-yu, lekin baribir noumid shayton, ko'ngil tubida nimadir yiltillab turuvdi. Shu yilt etib turgan narsa Rustamning bir og'iz gapi bilan lop etib o'chib-qoldi.

Ayolni Yolg'iz Tashlamang!

Tuni bilan mijja qoqmagan Saida, azonga yaqin bir oz mizg'igan bo'ldi-yu, yana cho'chib uyg'ondi. Ko'ngli alg'ov-dalg'ov, bezovtaligini qornidagi bolasi ham sezdimi, g'imirlab tepa boshladni. Saida mehr bilan qornini silab qo'ydi. Ona qo'li taftini sezgan homila orom topdi. Yonida beozorgina pishillab uxbayotgan qizchasiga tikilgancha suyundi va uni uyg'otib yubormaslik uchun avaylab, mehr bilan bag'riga oldi. Unga uka keltirsa, bag'ri yanada to'lishadi.

Oppoq tong jilmayib kirib keldi.

Qorni katta Saida, og'irlilik qilsada, qizini joyiga yotqizgisi kelmadi, qo'lida ko'targancha tuni bilan yoquvli qolgan chiroqlarni o'chirib chiqdi. Kecha eri uyiga kelmadi, kuta-kuta tunni bedor o'tkazib, intiqlik bilan eshik poyladi. Qizini ko'tarib, balkonga chiqdi, derazadan ko'chaga tikildi, soatga qaradi, yana ko'chaga qaradi, yana soatga qaradi. Yuragi siqilib, qizini joyiga yotqizdi. Uyg'onsa biron nima yediraman, deb o'yldi. Oshxonaga chiqib, bo'm-bo'sh muzlatgichni ochib, xuddi shunaqa qilsa, bir narsa topilib qoladigandek uzoq tikilib turdi. So'ng behol sekingina yopib qo'ydi. Har doim shunaqa, hech nima yo'qligini bilsa ham ochadi, yopadi. Idishda oxiri ko'rini qolgan kartoshkadan ikki dona olib suvda qaynatdi. Qizi uyg'onguncha pishgan kartoshkani ezib, tuz qo'shib aralashtirdi. Yog'siz, sutsiz kartoshka qiziga bemaza tuyuldimi, injiqlanib yegisi kelmadi, sut ichadigan shishasida iliq choy tayyorlab berdi. Yuragi ezilib ketib, qizini erkabal, shirin gapirishga ham holi kelmadi, bag'riga mahkam bosib xona ichida aylanib yurdi.

Eshik jim. Telefon jim.

"Qayerda ekan, sog'mikan o'zi, nimaga bunaqa qiladi, qayerda bo'lsa ham qo'ng'iroq qilib, bir og'iz gap bilan xotirjam qilib qo'yish mumkin-ku! Tinchlik bo'lsinda ishqilib. Onasidan eshitgan gapi yodiga tushdi: "Yomon xabar tez tarqaladi. Tinchdir!" O'zini-o'zi aldashga harakat qilsa ham, bu gap baribir ko'nglini tinchita olmadi. Mehmonxonaga kiraverishda to'g'riga chirolyi ramkada osilgan, ikkalasi to'yida boshini-boshiga qapishtirib tushgan suratiga qarab dili yomon ezildi. Qandoq yaxshi kunlar edi. Birpasda o'tib ketibdi. Endi yana qaytarmikan? Hozirgi bo'layotgan voqealar o'tkinchimikan? O'tmishi shirin tushni yodiga solgandek bir

lahzagina bo'lса-da, xayolini yarqiratib o'tdi. Keyin yana odamni ezib qiyaguvchi xayollari og'ushida qolaverdi. Emaklab xonada aylanib yurgan qiziga qarab rahmi keldi. Boshqa bolalarga o'xshab to'polonniyam bilmaydi. Ko'cha eshikni birov tutqichidan tortgandek tuyulib yugurib bordi. Hech kim yo'q. Orqasidan emaklab kelayotgan qizini poldan ko'tarib olishi bilan telefon jiringlab yuragini o'ynatdi, ham hadik, ham umid bilan trubkani ko'targan Saida onasini tovushini eshitishi bilan hafsalasi pir bo'lди. Onasi xuddi eri kechasi kelmaganini bilib qoladiganday, qisqa-qisqa javob qaytarib, go'shakni qo'ya qoldi. Xayoli erida bo'lgani uchun onasi bilan tuzukroq gaplasha olmagandek tuyuldi. Onasini dili og'ridimi? O'zi qachon notinch bo'lса, onasi yo darrov telefon qiladi, yo yugurib keladi. Eri kelmaganini bilib qolsa, yuragi qisilib yurmasin deb, uni ayagan bo'lди. Ayayman deydi-yu, o'zi bilmagan holda nuqul ranjitib qo'yadi. Onalar hamma narsani sezib turishadi.

Onasi ketgach, yuragini sahroga aylanganini va unda achchiqlanish izg'irinlari ko'tarilganini sezdi. Peshinga borib, asablari taranglashgan Saida "shunaqayam mas'uliyatsiz odam bo'ladi!" degan o'ya qattiq tutaqib, chakkalari sirqirab og'ridi. "Dadam qanilar?" deb so'rayverib, yuzlari so'ligan qizning ko'zlariga qarab, battar ezildi. Bugungi kun shu zaylda o'tib, shomga yaqin Umid kirib keldi. Bir kecha-kunduz davomida alam va xavotir o'tida yongan Saida eriga ahvolini bildirishga ham kuchi yetmadi. Kalovlanib yurdi. Hech nima bo'lmaganday kirib kelib, tunni osoyishta o'tkazgan eri yana hech nima bo'lmaganday ertalab chiqib ketdi. O'z yog'iga o'zi qovurilib, bir og'iz gap ham aytolmay qolgan Saida yana to'rt devor ichida ixtirob o'tida yondi. Nimalar bo'lyapti o'zi? Nega bunaqa qiladilar? Yoqmay qoldimi, nima balo?! Na meni sog'ligim bilan ishi bor, na qiziga mehri bor, hech narsaga qiziqmaydi, uyga faqat yotishga keladi. Umid akam uchun oila nima degani o'zi, ko'chaga chiqib ketganidan keyin qizinimi, menimi eslarmikan? Erkak kishi uydan chiqib, yetti qadam yursa, bo'ydoq deyishadi. Umid akam ... yo'q, sayoq yurishi mumkinmas, meni yaxshi ko'rardi-ku. Bir qarasang binoyidek, bir qarasang, mana bunaqa hunarları odamni ezib tashlaydi. ertalab choy ham ichmay chiqib ketdi. Kechqurun ovqat bermaganiga indamadi, ovqat so'rasa, hech narsa yo'qligini aytarmidi... Kechasi bilan og'iz juftlab, baribir aytolmadi, o'zi ham o'lgudek noshud ayol, bitta nonga pul so'rolmasa, bolaga ozgina sutga pul so'rolmasa! Uf-f! Huvillagan uyning devorlari-da yuragini qisdi.

Shu o'tirishda zimistondan nur qidirdi. Mehr nuri edi bu.

Umid cheksiz

Hatto xazonning ham umidi maysa. Jimgina uxbab yotgan qiziga qarab, qornidagi beozorgina qimirlayotgan bolani ushlab qo'yidiyu, izlaganini, zimistondagi shu'lani topgandek bo'lди. Bolasini eson-omon tug'volsa yaxshi bo'ladi! Ko'payib qolishadi. Bolalari ko'paysa, eri ham otaligini his qila boshlaydi. Shu o'yi unga bir oz yaxshi kayfiyat, quvvat berganday bo'lди-yu, sal yengil tortdi.

Anakondami Yoki Zuluk?

Keng auditoriyada domlaning ovozi jaranglab eshitilar, ora-orada talabalarning pichir-pichirlari ham qulorra chalinardi.

Laziza domlaning yaltiragan boshiga, mittigina oq ko'zoynagiga tikilgancha qoldi.

Domla bir tekis vazmin ohangda davom etdi:

Talvasa sindromi ko'proq go'daklarda uchraydi. Talvasalar, ya'ni muskullarning tortishib, tirishib qolishi cheklangan va umumiyl, bir marta tutadigan va qaytalanib turadigan, tabiatli jihatidan klonik, tonik bo'lishi mumkin. Har xil sabablarga aloqador ensefalopatiyalarda, pnevmoniylar, sepsisda, bakterial, virusli, parazitar kasalliklar, allergik reaksiyalarda markaziy nerv sistemasini zararlanganda talvasalar ko'p uchraydi. Talvasa sindromi

Laziza Nigorani sekin turdi:

Seni qaynonangdayam talvasa uchraydimi?

Nigora o'z dardi bilan ovora edi.

Laziza javob kutmay, yana bidiray ketdi:

Uf, isib ketdim, tezroq tugasa bo'lardi. Uyga vaqtli bormasam qaynonamning talvasasi tutadi. ertalabdan asab torlarimni chertib qo'ygan. Bu qaynonam yaqinda meniyam talvasa tutadigan qilib qo'yadi. Juda ming'ir-sing'ir, seniki unaqamasmi? Nega hech yomonlamaysan? Zeboga aytib qo'yadi deb qo'rqsanda, a?

Nigora kulib qo'ya qoldi.

Kecha o'qishdan borib tog'orasini pishirib berdim, Laziza pichirlab hasratini davom ettirdi. Kechqurunga ovqat qildim, qaynsingillarim to'nkanli o'zi, ularni kirini yuvib berdim. Hovlini supurdim. Kechqurun to'ydan kelib yopishdi. Nima ish qildingiz deydi, ko'zini lo'q qilib, anakonda! Tiling tanglayingda qotgur. Kechasi erim bilan urishib chiqdim.

Alamingni eringdan oldingmi?

Boshqa kimdan olaman?

Nigora indamadi. Laziza bilan gap talashib baraka topmaydi. Yutqazishi aniq. Lekini shu turishda Lazizaga havasi ham keldi. Hecham o'zini hafa qildirib qo'ymaydi. Biron narsadan ko'ngli to'limasa darrov aytadi qo'yadi. Dilini og'ritgan odam bilan joyida hisob-kitob qilib oladi. U nega shunaqa ekan?

Talvasa sindromida qilinadigan davo, uni keltirib chiqqargan sababning qanaB=qaligidan qat'iy nazar, umumiyl chora-tadbirdan boshlanadi.

Xayoli bo'lingan Nigoraning qulog'iga dars kirmadi.

Anakonda. Lazizaning qaynonasi anakonda ekan. Meniki kim? Zulukni o'zi. Boshqa narsa emas. Faqat qon so'radi. Lazizaning qaynonasi nima qildingiz derkan, meniki shuniyam aytmaydi. Faqat orqamdan yomonlaydi. Yozi bilan ezilib ketdi. Yaxshiyam o'qish boshlanib qoldi. O'qishdan chiqib qizlik uyiga kirmsamikan, bilib qolishsa yaxshimas. Tinchgina uyga ketaveradi. Eriga bor yo'qligi bilinarmikan o'zi? Shunchaligam sovuqqon odam bo'ladi? Bu oilaga kerakmi o'zi? U bo'limasa, nimadir o'zgarib qolarmidi? O'zi borgan sari qaynonasi yo erini ko'rsa, Nigoraning yuragi bezillaydigan bo'lib qolyapti.

Iymonli Bir Yigit

Doimo tashvishlarga ko'milib yuradigan Xayrullo, xotini bilan qizini maktabga, o'g'lini bog'chaga tashlab, onasidan birrov xabar oldi. U yerdan ajoyib yangilik eshitib chiqdi. Katta opasi qizini fotiha qiladigan bo'pti. Fotiha oshining dasturxonasi uning zimmasiga tushdi Xayrullo onasidan xotinining ajoyib xislatlarga ega ekanligini yana bir bor eshitib, ertalabdan kayfiyati kuchli bo'ronga uchrab, ishga ketdi.

Yana Go'zaldan berkitib bozor qilib berish kerak.

Maktabda birga o'qishgandi. Go'zal bosh qiz bo'lganidan, ota-onasi maktabni bitirishi bilan uzatish taraddudiga tushib qolishdi.

Institutni endi ikkinchi kursiga o'tgan Xayrullo hamma yoqni to's-to'polon qilib, axiyri onasini ko'ndirdi. Onasi, bir balo qilib, bo'lmasga keltiraman, degan xayolda sovchilikka borib, Go'zalning husniga o'zi ham mahliyo bo'lib keldi. Taqdirlini qarangki, bir oyda to'y bo'ldi. Lekin bir oy o'tar-o'tmas orada mashmasha qo'zg'ab, guldek kelinchak Go'zal qaynonasining zug'umiga uchradi. O'zi xohlab oglani ham Xayrulloning boshiga balo bo'ldi. Hayotida halovat qolmadidi. Bu orada birin-ketin bolalar tug'ilib, vaziyat yanada taranglashdi. Ne kunlarni ko'rishmadidi. Axiyri Xayrullo o'zini o'tga urdi, cho'qqa urdi, qarzga botsada, ikki xonalı uy olib, ota uyidan chiqib ketdi. Ikki o'tni orasida sixni ham, kabobni ham kuydirmaslikka harakat qilib yashaydigan Xayrullo ba'zida dod deb hammasidan voz kechib yuborgisi keladi. Lekin uyi ostonasida Go'zalning kulib chiqishini ko'rishi, bolalari baravar quchog'iga otilishini ko'rib, shashtidan qaytadi va barcha tashvishlarni unutadi. Ba'zan bir yigitga bundan boshqa yana nima kerak, deya o'ziga tasalli ham beradi.

Onasining uyidan kayfiyatni buzilib chiqqan Xayrullo ishxonaga kelib yana noxushlikka uchradi.

Saidani yana b'Thitez yordamb'Bk olib kelibdi. Hushi o'zidamas. Uyida davolanishni davom ettirmagan. Yo'qsa bunaqa bo'lmasdi. Saidaning ahvolini bilgan Xayrullo o'zidan g'ijindi. Shu tinchmasligini bilardim, nega xabar olmadim, qiyinmidi? Bittayam dorini ichmagandir. O'larmidim, berdirvorsam!

Hamma yig'ildi. Ahvoli og'ir. Buyrak faoliyati umuman ishdan chiqqan.

Vaziyat jiddiy. Shoshilinch operatsiya qilinmasa bo'lmaydi.

Operatsiyaga olib kirib ketilayotganda Saida ko'zlarini ochdi. Quyuq tuman orasida Xayrulloni ko'rib, tiliga chiqarolmasada, "Xayriyat" deb dilidan o'tkazdi.

Xayrullo jonholatda:

Hammasi yaxshi bo'ladi. Eshityapsan-a? dedi unga tasalli va madad berish uchun.

Saida o'ziga kela boshladi. Hamma narsani aniq-taniq ko'ryapti. Uni operatsiya zaliga olib kirishdi. Operatsiya stoliga yotqizishdi. Hamshira bilagiga dori ulab qo'ydi. Qovog'i soliq professor yuziga niqobini taqib kirib keldi. Demak, u opresiyaga tayyor.

Eng asosiyasi-chi?!

Ana, Xayrullo ham kirib keldi. Judayam asabiylashyapti. Qoshigacha titrab ketyapti. Nega? Hozirgina aytdi-ku, xavotir olma deb. Yaxshi bo'ladi hammasi. Qizini qo'shnisi olib qoluvdi. Onasi tezroq borib u yerdan olsa yaxshi bo'lardi, qorni och. Uyga olib borsalar, albatta, qornini to'ydiradilar. Xudoga shukr. Shu bilan tugaydi hammasi. Keyin yaxshi bo'ladi.

Bunisi o'g'il.

Tunda ozgina uxbab tush ko'ruvdi.

Jingalak sochlari qop-qora, o'ziyam qoracha bolajon. Oldiga yugurib keldi. Saida endi qo'lga olmoqchi edi, emaklab nariroqda turgan odamga qarab talpindi. Kim ekan u? Saida tanib-taniyolmay qoldi. Erimas. Kim bo'ldi? Shu payt otasi chaqirdi. Chala bitgan imorat ichida turibdi. Saida xursand bo'lib ketdi. Juda sog'ingan edi. O'g'li bilan qizi turgan tarafga bir qarab olib dadasini yoniga ketdi. Quchoqlashib ko'rishishdi.

Narkoz berishdan oldin Xayrullo Saidaning boshi ustiga egildi.

Baravar harakat qilamizda, qahramon ona! Xayrullo titraganini bildirib qo'yishdan qo'rqb, yutinib oldi, eson-omon qutulasan, uxla. Uxlab turganingdan keyin ko'rishamiz.

Saida oxirgi kuchini yig'ib qonsiz lablarini qimirlatdi. "Albatta ko'rishamiz".

Xayrullo har galgidek ko'nglidagini topdi:

Bir nima demoqchimisan?

Ko'zi bilan "ha" ishorasini qilgan Saida zo'r-bazo'r yutindi. Judayam past, faqatgina Xayrullo eshitadigan ovozda dedi:

Bo-la... larim!..

Qolganiga kuchi yetmadi.

Narkoz berildi.

Bolani birpasda olishdi. Jingalak sochlari qop-qora, o'ziyam qoracha bolajon.

Kindigini Xayrullo kesdi.

Inga-ingasi olamni buzdi.

To'polonchi bo'ladi chamasi

Operatsiya to'rt soat davom etdi.

Professor taqdirda tan berdi. Ichida o'zini aybladi. Shunaqa bo'lishi mumkin deb o'ylagandi.

Shifokorlarlar umid uzishdi.

Faqat Xayrullo qina buni tan olmadi. Yo'q. Bunaqa bo'lishi mumkinmas. Axir bolalari bor. Avval bitta edi, endi ikkita bo'ldi. Qizi bor, o'g'li bor. Eri tashlab ketgan. Ularga kim qaraydi?! Onasi qarib qolgan. Yo'q. Bu mumkinmas. Saida yashashi kerak. Yigirma ikkigayam kirmadi hali. Eri uchun tug'moqchi edi. Tug'ib erini qaytarmoqchi edi. Nega endi o'zi ketarkan. Yo'q!

Saida komadan chiqmadi.

Xayrullo qalbi ko'tarayotgan g'alayonga chidash berolmay, yuragini sug'urib tashlagisi keldi. Najot qidirib, avval tepaga, keyin murdaning rangsiz yuziga tikildi. Bir paytlar husndor bo'lgani bilinib turibdi. Ko'zlarini bilolmadi, yumuq ekan. Boshi ustiga asta egilib, o'yga toldi.

Bolalaring?!. bir tomchi yosh murdaning qulog'iga tomdi, bu safar titrog'ini bilintirishdan qo'rqmadi, bemalol gapiraverdi, Menga omonat, xabar olib turaman, xavotir olma.

Xavotir

Bu yil qish erta keldi.

Bog'larga qor erta tushdi. Qorni do'ppayib qolgan Nigora issiqliqqa uy ichidan oppoq qorning yog'ishini kuzatgancha xayolga berilgan. Hozirgina o'qishdan keldi. Havo toza, lekin juda sovuqligidan hovliga chiqqisi kelmaydi. Oshxonaga borib ovqat tayyorlashi kerak. Qaynonasi oshxonaga kirdi. "Yuzimni qizargani hali ketmabdi, burnim ham isimagan, birpasgina isinib olay", Nigora o'zini oqlagan bo'ldi. Qaynonasi oshxonada taraq-turuqni boshladi. "Ataylabdan qilyapti, o'zim ham anchagini bez bo'lib qopman. "Bezni ishi besh!" Qaynonasidan o'rgangan iborani ichida takrorladi. "Oldingi payt bo'lsa, oyoq-qo'lim akashak bo'lib qolsayam yugurib chiqib ish qilardim".

Chindanam oxirgi paytlar Nigora ancha o'zgargan. Anchagini beparvo va loqayd. Qaynonasining ig'vosiga ham, piching kesatiqlariga ham, qaynegachilari kelganda uya kirvolib pichirlashishiga ham, unda-munda zo'rg'a chiqadigan ovsiniga, "qizim

senga aytaman, kelinim sen eshit" qabilida uzib-uzib gapistishiga ham, hattoki eri
 Bir necha oy oldin Rustamni o'ylasa yuragi pitirlaydigan bo'lib qolgan edi. O'zicha erimni sevib qoldim shekilli deb o'yaldi.
 Uyalsa ham Rustam unga yaqinlashishini juda xohlardi. Entikib ketardi. Keyinroq Rustamning xohishi faqatgina nimadan
 iboratligini tushunib qoldi. Negadir bundan xursand bo'lmasdi. Qaytaga shuni tushungandan keyin o'zini olib qochadigan bo'lib
 qoldi. Hozir u bularning hech birini xohlamaydi. Faqat bolasini o'laydi, eson-omon qutilib olsa bo'ldi. Beixtiyor tiliga qo'shiq
 quyilib keldi.

Alla bolam, allalarga xumor, bolam
 Taqib qo'yay beshigingga tumor, bolam,
 Alla aytsam, kunday yorug' yuz bo'lasan
 Alpomishlar orzu qilgan qiz bo'lasan.

"Qaniydi qiz tug'sam, chindanam alpomishlar orzu qilgan qiz qilib o'stirardim, lekin o'g'il bo'lsa kerak, ko'nglim sezyapti". Nigora
 ko'kragiga sut kelganini sezib rohatlandi. Xayolan chaqaloqni bag'rige olib alla aytdi. Oshxonadagi taraq-turuq avjiga chiqqach,
 issiq kiyinib ichida boyagi kuyni takrorlagancha oshxonaga bordi. Qaynonasi bor alamini sabzi taxtadan olib jon-jahdi bilan piyoz
 to'g'rayotgan edi. Nigora qo'rqqan oldin musht ko'tarar qabilida, qaynonasi biron nima deb qolmasidan sovuq qotib kelganini
 bildirib qo'yish maqsadida uh-uhulab qo'ydi.

Qaynona-kelin bir-birini so'zsiz tushunishadi. Ensasi qotgan qaynonasi:

Doim harakatda bo'ladijanlar umuman sovuq qotishmas ekan, o'qishga yaxshi borib keldingizmi? dedi.

Ma'noli gaplardan tovonigacha titrab ketgan Nigora burnini yolg'ondan tortib qo'ydi.

"Zuluk, shungayam gap topdi. Meni o'rnimda Laziza bo'lganida hozir boplardi. Menam o'larmidim indamay kirsam". Ichida
 allasini qaytarib, sabzi artishga tutindi. "Alla bolam, allalarga xumor bolam, taqib qo'yay beshigingga tumor bolam".
 Havorang bezak berilgan chiroyli xona. Havorang parda tutilgan. Havo rangdag'i shiringina bolalar karavoti qo'yilgan. Karavot
 ichida do'mboq bola oyoq qo'lini tipirlatib o'ynab yotibdi. Yo tavba, karavotni to'shagi yo'q, yostiq-ko'rpsi yo'q. Kim bolani
 bunaqa yotqizadi? Bolacha gu-gulab onasini chaqira boshladi shekilli. Hech kim yoniga kelmadi. Onasi qarasa bo'lmaydimi,
 qanaqa odam ekan. Nigora qarab turib, meni bolam-ku, degancha karavot yoniga yugurdi. Tavba, kichkinagina xonada yugurib
 yetolmasa. Bola chirillab yig'lashga tushdi. Hozir boraman. Bola battar chirilladi. Nega hech kim qaramaydi? Nega bolamni hech
 kim ko'tarmayapti. Ko'z yoshlari sel bo'lgan Nigora yugurayotib yiqildimi, cho'chib tushdi.

Yuragi urib, nafasi tezlashib ketdi. Ko'rpsi zil tuyulib ustini ochib tashladi. Qop-qorong'i xona ustiga bostirib tushayotganday
 bo'lib yonboshidagi tunchiroqni yoqdi. Yonida yotgan erini uyg'otib tushini aytib bergisi keldi-yu, lekin uyg'otmay qo'ya qoldi.
 Nimaga bunaqa tush ko'rdi? Nigorani vahm bosdi. Yuragi dukillab, tushini bexosiyat hisoblasa-da, bolani yana ko'rgisi kelib,
 ko'zlarini yumdi. Ancha payt o'tsa-da, uyqusi qaytmadi. Yostig'ini baland ko'tarib, suyanib o'tirdi. Pishillab uqlab yotgan Rustamga
 qarab uqlashiga havasi keldi.

Qorni katta Nigora eri tepasida o'tirib sochlarini, yuzlarini silagisi, qulqlariga yaxshi gaplarni pichirlab aytgisi keldi-yu, iymanib
 botinmadi. Xuddi qimirlasa erini jahli chiqadiganday, xo'rsinishga ham qo'rqiб, shu o'tirgancha tong ottirdi.

Alla aytsam, kunday yorug' yuz bo'lasan,
 Alpomishlar orzu qilgan qiz bo'lasan!

Darvozaxonadan o'tib, ovoz chiqarmay bitta-bitta qadam bosib kelayotgan Nigora baland ayvonning oynasidan o'ziga qarab turgan
 buvisini ko'rib yuziga tabassum yugurdi. Eshikni ochib qaragan buvisi, ko'zoynagini peshonasidan ko'ziga tushirib, hali Nigora
 salom bermasidan avval:

Nega kelding? dedi.

Nigora kulib:

Keldim-da! dedi.

Qayerdan kelding?

Uyimdan keldim.

Qayerga kelding?

Uyimga keldim.

Nega kelding?

Sizni sog'indim.

Bu yerdaligimni qayerdan bilding?

Bildim-da.

Kimdan so'rab kelding?

Nigora kulib kelib, ko'pdan sog'ingan buvisini bolalarcha quchoqladi.

Assalomu alaykum, buvijon, nega xavotirlanasiz?

Eson-omon keldingmi? Uyingdagilar yaxshimi?

Ichkari uya o'tib, faqatgina buvilari kelganda o'tiriladigan xontaxta atrofiga cho'kkalashdi. Xona betartib, chala bitgan beshik
 anjomlari sochilib yotardi.

Ilohi omin, xonadonimizga tinchlik, baraka, sihat-salomatlilik ato etsin, qo'sha qarib, yuzga kirib bola-chaqalaringni rohatini
 ko'rgin. Etagingdan tushganday, eson-omon qutulib, bag'ringga bosib olib kelgin. O'zing yaxshi yuribsanmi, qaynonang,
 qaynibo'ynilaring yaxshimi, kuyovim yaxshi yuribdimi?

Bir amallab oyoqlarini uzatib olgan Nigora jilmaygancha javob qaytarib o'tirardi.

Onang sen kelishingni bilmovdi, bo'lmasa uyda o'tirardi. Tinchlikmi? Hech beoddix kelmasding-ku?

Bugun ruxsat berishdi-da, buvi.

Onang bilan yangang bozorga tushib ketishuvdi. Kelib qolishadi. Ungacha ikkalamiz o'tira turamiz. Mana, evaramni
 ko'rpaclarini tikib o'tiribman. O'zing og'irgina bo'lmay yuribsanmi? Anchagina pishib qopsan.

Nigora sekin ovozda:

Buvi, ba'zida qo'rqib ketaman dedi bir oz tashvishli ohangda.

Nega qo'rqsan? Nimadan qo'rqsan?

Tug'ishdan!

Tug'magan xotin bormi? Tishing og'riganmi? Bo'ldi. Tish og'rig'ini bilganga tug'ish hech gap emas. Bildingmi?

Buvijon, sizga hammasi shunaqangi oson ko'rindiki!

Nega oson bo'lbin bolam, senlarni shunaqa qilib yupatmasa bo'larkanmi? Ha-ha qilib, uzatvoramiz, ha-ha qilib bolali bo'lasan, birpasda katta qilib olasan, qarabsangi o'zing ham kap-katta xotin bo'lib qolasan.

Shu bilan umrim ham o'tib ketadi.

O'tadi-da bolam, shunaqa o'tgani yaxshi. Odamzod bolam katta bo'lyapti deb kun sanab, xursand bo'ladi-yu, o'zi qarib qolganini bilmay qoladi.

Odamlar shuning uchun kelishadimi dunyoga?

Kelgan odamning ketishi aniq bo'lgandan keyin sendan qoladigan narsa faqat bolalaring.

Buvi bilan nevara peshingacha gaplashib o'tirishdi. Onasi bilan yangasi bozordan qaytishi bilan, Nigora uyini qo'msab qoldi.

Negadir betoqat, joyini topolmasdi. Erini uyida yurganida onasining ketcisi kelardi. Endi onasining uyidan erining uyiga borgisi kelib qoldi. Bezoval bo'lavergach, onasi ham boraqol endi, deb ruxsat berdi. Onalar hamma narsani sezishadi. Nigora o'zini qanchalik baxtli ko'rsatishga urinmasin, onaning notinch qalbi haqiqatni bilib turardi. Qizining ko'zlarini avvalgiday emas, kulib turibdi-yu, kulgisi ham boshqa. Oilasi bir tarafdan qaraganda tinchga o'xshaydi. Ammo qizi nega baxtiyor emas? Yo joyini bilib bermadikmi? Yon qo'shnilarini bir emas, bir necha marotaba so'ragan edi. Yo shularni dili og'riganmadi? Xudo bilsin, ko'zi tekkanmi? Ko'zing qursin! Qizi shu ahvolda yurib, dardini ichiga yutaverib kasal bo'lib qolsa-ya? Dilida aylanib yurgan xavotirni quvib chiqara olmagan ona, oxiri eriga yorildi.

Eri uni jerkib tashladi:

Nega podadan oldin chang chiqarasan, qizing hamma qatori yuribdi-ku!

Shuni uzatganimizdan beri, ko'nglim alg'ov-dalg'ov, dadasi.

Senga bir narsa dedimi?

Yo'q!

Unda nega vahima qilasan? Qornida bolasi bilan qaytarib olib kelB~moqB~chimisan?

Voy, nafasingiz qursin! Nega unaqa deysiz?

Bo'lmasa nima qil deysan? Har xil xayollarga berilib, gap chiqarib, ikki oraga sovuqchilik tushirma. Biron nimadan qiynaladigan bo'lsa, o'zi aytadi.

"Aytadi emish, qizining fe'lini biladiku!" Xavotirlik o'tida yonayotgan onaning ko'ngliga bu gaplar taskin bera olmadi. Qaytaga erining ko'ngliga ham g'ulg'ula solib, tashvishi ortdi.

Qora Qaror

Ayolga xohlaganini bering bo'lmasa uni o'zi oladi.

Umida bu iborani qachondir, qayerdadir o'qigan edi. Tushunsa ham kulib qo'ya qolgan ekan. Keyin buni birato'la his qildi.

Tushunish boshqa ekan. Yana ham aniqrog'i nima xohlashini endi o'zi tushunib yetdi.

Rustam uniki bo'lishi kerak! Boshqacha bo'lishi mumkin emas!

Qaytarib oladi. Nimalar qilib bo'lsa ham. Endi orqaga yo'l yo'q. Boshqacha yasholmaydi. Qanchalar qimmatga tushmasin, qanchalar gunohga botmasin, qanchalar malomatga qolmasin Rustamni qaytarib oladi.

Bir necha kundan beri ko'ngli muzlab qoldi. Alam, alam yomon ezib tashladi.

... Umida Nigoraning homiladorligini bilib qoldi...

Rustam uylangan kezлari bir ikki oy, juda qattiq xavotirda yurdi. Gohida odam o'zini o'zi aldab ham biror nimaga erishadi. Umida ham bo'yida bo'lmayapti-ku, balki shu bahona ajrashib ketishar deb xayol qildi. Bunga o'zi ham ishonmasa-da, chiqmagan jondan umid, shu xayol unga qanot berib turdi. Rustam xotinining homiladorligini berkitishi mumkinligini Umida o'ylab ham ko'rmagan ekan.

Alam o'tida yondi.

Bir tarafdan rashk-alam, bir tarafdan g'azab, bir tarafdan uni hech qachon tark etmaydigan, axir bir kun Rustamdan ajralib, yana yolg'iz qolish hadigi uni haddan ziyod g'ajib tashladi!

Hamma, hammadan hafsalasi pir bo'ldi. Demak, hamma bir xil ekan. Rostdanam odamzodni yaxshisi yo'q ekan. Yaxshi bo'lsang birov bilmas ekan. Nega? Rustam bunaqa qildi? Menikini oldirib, xotinini ablak!

U xudbinlik qildi. Men uni o'yланган edim, oilasiga aralashmagan edim, obro'sini to'kmovdim. Shunaqayam razil bo'ladi? Endi o'zidan ko'rsin! Ko'rguliklarimni ikki barobar qilib qaytarib olmasam, otimni boshqa qo'yaman. Keyin nima bo'lsa bo'lar! Shusiz ham kunim yayrab-yashnab o'tayotgani yo'q!

O'zi shusiz ham hasrat o'tida yonib yurgan Umida bir necha kundan beri o'ziga kelolmaydi. Xayolida faqat bir narsa Rustam! Tuni bilan dag'-dag' titrab, azonda bir qarorga keldi. Shu bugun! Hammasi hal bo'ladi!

Ilon Inidan Chiqdi

Nigora bu tushni avval ham ko'rgan edi. Aniq esida: aynan o'sha tush. Tavba shunaqasi ham bo'lar ekan-da. Xuddi kinoni qayta ko'rgandek. Lekin hozir tushini qayta ko'rgani emas, tushining ta'biri ko'proq qiziqtirdi uni. Tushni qaysi tarafga yo'ysang, shu bo'ladi deyishadi. Avval ko'rganimda nimani o'yланган edim. Ma'lum edi. O'shanda ham ma'lum edi. Bugun-chi, bugun ertalab ko'rgan tushini esladi-yu, eti jimirlab, o'rnidan turdi. Oxirgi paytlar tush ko'rishdan qo'rqib uxlagisi ham kelmay qolgan. Ba'zida kunduzi ko'rganlaridan uyquda ko'rganlari og'irlik qilib charchatib yuboryapti. Nima qilish kerak.

Qaynonasini azonda kuzatdi. Kechasi bilan norin to'g'radi. Shuni tinchgina birovga buyurtirsa bo'lardi. Qaynonasining fe'li ma'lum, "it arazladi egasi bilmadi" degandek, o'zicha arazlagan kishi bo'lgan Nigora, dami ichida, to'y yuborarga yetadigan norinni bir o'zi to'g'rayapti.

Azonga yaqin o'rniga kirib yotib ko'zi ozgina ilindi-yu, tush ko'rdi.

Qop-qorong'i bo'shilq Havoda muallaq turganmish Qorniga qarab hayron bo'ldi. Nega tep-tekis? Qornim qani? Homilador bo'lsa qornini paypaslayotib barmoqlariga qaradi. O'zi yaxshi ko'radigan katta ko'k ko'zli uzugi o'zidan-o'zi tushib ketdi. Nigora

paypaslay boshladi, oyog'i yerda emas, qo'li yerga tegmasa ham paypaslayverdi: bir, ikki, uch qidirib, qidirib qorong'ilikka kirib ketdi. Keyin nima bo'ldi deng. Keyin birdan atrof yorishdi va institut darvozasi yonidagi teshikdan kulrang ilon chiqib keldi va u bir dumalab qoracha aylolga aylandi.

Alg'ov-dalg'ov tushidan fikri chuvalashib, uyqudan turib, karaxt holda hovliga chiqqanda yasan-tusan qilib olgan qaynonasi tog'ora tugish bilan ovora edi. Uni sezmadni shekilli, Rustamga:

Bir kun ming kun emas! Xotining bir marta o'zi qolsa qolayapti? Onamnikiga borib yotaman deb boshingni aylantirsa, ko'nib o'tirma, qizni onasi buzadi, qancha kam ko'rса shuncha yaxshi. Havoni bahona qilib qo'ya qol, o'ziyam rosa quyadi shekilli! Orqasiga o'girilgan Dilorxon o'ziga qarab turgan kelinini ko'rib, avzoyin o'zgartirdi.

Bunaqa paytda ko'z tegishi oson, ko'pchilikni ichiga bormaganingiz ma'qul dedi o'lгanning kundan yasama tirjayib.

Nigora eri bilan qaynonasini kuzatgach, o'qishga otlandi.

Bugun bormasa ham bo'lardi. Hech oyog'i tortmay zo'rg'a ketdi. Bugun to'y. Ibrat qanaqa kuyov bo'larkin. Ibrat. Meni Ibratim, qachonlardir shu so'zlar dildida aylanib yurardi. Afsuski, tiliga chiqmadi. Baxtdanmi, baxtsizlikdanmi? Muhabbatning ko'nglingni to'ldirib yashashi baxt ekan. Meni muhabbatim-chi? O'lik tug'ilgan bolaga o'xshadi. Tug'ildiyam ko'mildiyam. Muhabbatni mayib qilgan og'rig'in o'zi tortadi deyishadi. Men muhabbatimni mayib qildimmi? Boshqa nima ilojim bor edi. Qiz bola boshim bilan undan muhabbat talab qilarmidim.

Og'ir, odamni ezib tashlaydigan xayollar bilan Nigora auditoriyaga kirib keldi. Kursdosh yigitlarning yarmi yo'q. Ibratga yaqinlari ertalabdan ketishgan shekilli.

Laziza negadir kelmabdi. Zebo to'yga borishga yuragi toshib oxirgi para bo'lmasin, deb xudoga nola qilib o'tirgandi, iltijolari inobatga o'tmadni. Nigora behalovat uch para darsning qanaqa o'tganini sezmay qoldi. Oxirgi dars tugasa ham ko'ngil g'ashligi tarqamagan Nigora, shishgan oyoqlarini sudraguday bo'lib zinadan pastga tushdi. Orqasidan po'mpillab tushib kelgan Zebo hansiragancha Nigorani qo'ltilqlab oldi.

To'yga bormasliging yomon bo'ldi. Borsang birga o'tirardik. Rustam akamdan so'rab beraymi?

Nigora kerakmas, deb bosh chayqadi.

Bu qornim bilan bemaol o'tirarmidim. O'zi hech narsa ko'nglimga sig'mayapti. Tezroq tug'ib olganimda edi! ... Ro'parasidagi ayolga ko'zi tushib, gapi bo'lindi. Uni qayerdadir ko'rgandi. Yaxshilab qaradi. Yo'q ko'rmagan. Lekin taniydi. Ayol ular tarafga qarab kela boshladi. "Oqsoqlanarkan".

Umida Nigora bilan Zebo qarhisiga kelib to'xtadi.

Yaxshimisizlar.

Nigora bir narsadan hadiksiraganday salomi tiliga chiqmadi. Zebo birovni so'ramoqchidir deb savol kutib qarab turdi.

Siz sen Nigora bo'lsang kerak?!

Avval sizlab, so'ng sensirashga o'tgan bu ayolning muddaosini tushunmagan Nigora bir fursat karaxt holda qoldi, yuragini nimadir g'ijimlay boshladi.

Ayol unga o'qrayib qaradi.

Men Umidaman! Sizda gapim bor! U Zeboga yuzlandi. Nariroqqa borib turasanmi?

Nigora Zeboning qo'lting'iga qattiqroq yopishdi.

Zebo unga g'oz qarash qildi:

B-Bizda ishingiz bormidi?

Uning kekkayishi Umidaga yoqmadi:

Sendamas, o'rtog'ingda gapim bor! Chetroq tursang-chi!

O'rtog'immas, kennoyim bo'ladi.

Umida uning gapini nazariga ham ilmadi.

Juda yaxshi, unda birga eshit!

Gapiravering, eshitamiz.

Umida ularga g'uddayib mensinmay qaradi:

Men Rustam akamni birinchi xotiniman!

Boyadan beri Nigoraning yurak urishini butun olam eshitayotgandek edi. Endi go'yo to'xtab qoldi. Yo'q, qulog'iga bir balo bo'ldi shekilli. Ro'paradagi ayol gapiryapti, og'zi qimirlayapti, lekin nega eshitmayapti? Angrayib Zeboga qaradi. U ham gapirayotgan ekan. Uriishiyapti...

Men hamma narsani bilaman, o'zingdan o'zing valdirayverma! Rustam akamning boshqa xotini bo'lsa, birinchi men bilardim!

Nechuk shuni bilmay qolgan ekansan, yaxshisi bizga xalaqt berma. Nigora bilan gaplashib olishim kerak.

Shunaqayam bezbet odammisan, bor, yo'lingdan qolma, turqing qursin, shalava! dedi Zebo vajohat bilan.

Nigora bejon qoldi. Boshi g'uvillab, quloqlari tagida birov shishalarni qarsillatib sindirayotganday tuyulib, tomog'i bo'g'ildi, ming gapiraman deb urindi, bo'lmasdi, tili kalimaga kelmadi. Bazo'r kuch to'plab, Zeboga urishma, deb imladi xolos. Zeboga bu ta'sir qilmadi, jag'i-jag'iga tegmay bidillab urishaverdi.

Bu nomeringni boshqa joyga borib ko'rsatasan, bizga o'tmaydi, boshqaroq laqmani top, tappa-tuzuk oilani buzmoqchimisan?

Sendaqalar ko'payib ketgan hozir. Aftingni qara, oynaga qaraganmisan o'zing, shundoq chiroyli xotini turib, seni boshiga uradimi Rustam akam, o'zing cho'log'akansan.

Umida vajohat bilan pishqirdi!

Menga qara, moxov, tilingni tiymasang yeb qolasan, Nigorada ishim bor, gaplashib olishimga qo'y!

Kenoyimni senda ishi yo'q, koptokdek tepilmasingdan jo'nab qol, ikkinchi yo'llimizni to'sma, basharangni yorib qo'yamiz!

Nigora o'tgan-ketgan talabalar, domlalarga qararkan, ikki beti lov-lov yondi. Bunisi ham bormidi hali? Orqa tarafga o'girilib, chiqib kelayotgan kursdoshlarini ko'rdi. Endi hamma biladi. Ey xudo, sharmanda qilma, qochish kerak, tezroq ketmasa hammaga gap bo'ladi. Zeboga "hech kimga gapirma" degandek boshini liqillatdi, shu ahvolida tabiiyki, tili aylanmadni.

Nigora yo'lakdan mashina yo'liga chiqmoqchi bo'ldi. Uning ketayotganini sezgan Umida qo'lidan ushlab tortdi.

To'xta sen bilan gaplashib olishim kerak.

Zebo oraga suqildi.

Qo'lingni tort, cho'loq!

Umida shu paytgacha esini yo'qotayozgan edi, endi butunlay aqlidan ozdi.

Kutilmaganda yuziga tushgan tarsaki zarbidan Zebo gangib ketdi. Nima bo'lganini idrok qilgunicha Umidaning og'zidan bodi kirib, shodi chiqdi. Dovdirab qolgan Zebo alamidan Umidaning sochini changallab oldi. Bu manzaradan Nigora dod degisi keldi. Jonholatda katta yo'lga chiqib, mashinalarga qo'l ko'tardi.

Kursdoshlari yetib kelib, Zeboni undan ajratib olishdi.

Vahshiy hayvondek quturib ketgan Umida alam bilan ortga qaytdi. Shu ketishda ancha-muncha yo'l yurib qo'ydi. Allaqtanday notanish ko'chada, ikki qavatl bino yonida to'xtab atrofga alangladi, majolsiz yerga o'tirib qoldi. Qilib qo'ygan ishi befoyda edi. Cho'kkalab o'tirib, achchiq yig'ladi.

O'ziga kelib yig'iga tushgan Zebo dugonalarining "nima bo'ldi o'zi" degan savoliga javob bermay, u ham yugurib katta yo'lga chiqdi. "Nigor endi ketib qoladi. To'xtatish kerak". To'yxonaga borib ammalarimga aytaman, olib qolishadi, o'zi qayoqqa ketdiykin, birato'la oyisinkigami? To'xtagan mashinaga: "B Usta Shiring!", dedi-yu, kabinaga otolib kirdi. Rang-ro'yini ko'rgan haydovchi katta tezlikda mashinani haydab ketdi. "Nahotki? Rostmi o'zi? Nima deb ketdi? Isbotla desam bo'larkan. Nima bo'lganin o'zi? Aldadimi? Aldagandan nima foyda? Nigor uni tanimasa, o'zi Rustam akam tanirmikan uni? Ha-ya, RusB=tam akam, nimaligini faqat Rustam akam bilishi kerak. To'yxonada nima bor, Rustam akamga aytish kerak". Zebo titrab-qaqshab haydovchiga yo'lni boshqa yoqqa burishni aytди. Ensasi qotsa ham, bir ahvol bo'lib o'tirganini ko'rib turgan haydovchi indamay yo'lni kasalxonada tomom burdi. Kasalxonadan Rustamni topa olmagan Zebo, ko'chaga qaytib chiqib, katta yo'lda ozgina merovsirab turdi-yu, so'ng Nigoralarnikiga qarab ketdi.

Hijronning Uyida Doimo Qish

Nigora xayol bilan eshikni ochiq qoldirib uyg'a kirdi. Endi hammasi uni tark etdi. Boshi ustida tinmay aylanayotgan qovog'arilar, qulog'i tagida shang'illab baqiB=rishayotganlar, shishalarni sindirayotganlar, oyog'idan tortib yiqitmoqchi bo'layotganlar bari bir zumda qayoqqadir g'oyib bo'lishdi. Faqatgina yuragini g'ijimlayotganlar mahkam changallab olgancha qo'yvorishmadı.

Abgor ahvolda uyiga kirib, karavotga cho'zildi. U endi bor-yo'g'idan ajralgandi. Qalt-qalt titrab yota olmadi. O'rnidan turib, xona aylandi. Toshoya qarshisiga kelib to'xtadi. Ongi uni tark qilgandek hech nimani ilg'amay aksiga tikilib kichkina stulchaga o'tirib oldi.

Qancha turdi, bilmaydi.

Xira tuman tarqalib, toshoynadagi aksi yonida Rustamning ko'rindi. "Yo tavba, ko'zimga nimalar ko'rinyapti".

Husningga to'y may qoldingmi?

Nigora merovsirab yoniga o'girildi. Ko'zlarini katta-katta ochib baqrayib qaradi. "Rostdan kelgan ekan, ko'zimga ko'rinxapti".

Ering keldi turmaysanmi? Iljayib qarayotgan Rustamni ko'rgan Nigora birov bo'yndan boylab tortganday o'rnidan turdi. Jonsiz oyoqlarini sudraguday bo'lib uydan chiqdi. Oshxonaga yo'halganini ko'rib, Rustam ovoz berdi:

Ovqatlanmayman, Nigor, kiyimlarimni tayyorlab bersang bo'lidi. Indamay orB=qasiga qaytgan Nigora Rustam hammomdan chiqqunicha kiyimlarini taxt qilib qo'ydi-yu, javonga suyanib turaverdi. Sochiqqa artinib kirgan Rustamning ko'ziga xotini g'alatiroq ko'rindi.

Tuzukmisan? deb so'radi, Nigora indamagach: O'tirsang-chi, dedi.

Kiyinib bo'lgan Rustam Nigoraning oldiga kelib yelkalaridan tutdi. O'zicha ruxsat tegmaganiga xafa bo'ldimikan deya o'ylab: To'yga borasanmi? deb so'radi.

Nigora bosh chayqadi.

Eri unga hayron boqdi.

Soqov bo'lib qoldingmi? Kelganidan beri bir og'iz gapirmading. Bugun navbatchiman. Xavotir olma! To'yga birrov kirib o'taman. Havoni qara: rosa jala quyadi shekilli. Ehtiyot bo'l, ertalab kelaman! Eri uni qattiqroq quchib, labini titroq labiga bosdi. G'azabdan titrayotgan lablar go'yo ilon chaqqandek zirillab og'ridi. Kuchli qo'llardan yulqinib chiqqisi kelsa-da, ilojini topolmadi. Rustam yana unga qaradi.

Boya eshikni ochiq qoldiribsang, qulflab o'tir!

Bu gap Nigoraning battar nafratini oshirdi. "Bevafoga yo'liqqan qiz yoki yigitning qismati achchiq". Nigora bu iborani mag'zini chaqib ko'rmaning edi. Qismatim achchiqmi? Yo bu fojami? Nega bunaqa bo'ldi? Sababi nimada? U aldamadi. Zebo unga ishonmadı, lekin o'sha ayol aldamadi!

Qattiq shamol esdi.

Nigora Rustam chiqib ketganidan keyin ham turgan joyida bir nuqtaga tikilib turaverdi. Tushini eslab, ta'bironi anglatdi. Nahotki endi eridan ajraladi? Bolasi otasiz o'sadimi? Xudoning qahri keldimi? Qachondan beri tanir ekan. Rustam uni sevarmikan? U ayol o'ziga juda ishongan ko'rinxadi. Nimasib? Erim meni sevmagan, bu aniq! Chiroyimga shaydo bo'lgan. Lekin o'sha ayolda na husn bor, na muomala, kamiga cho'loq ekan. O'zi o'rtalarida nima bor? Rostdanam xotinimi yo ... Didli odam yantoqning gulida ham go'zallik ko'radi deyishadi. Rustam o'ta didlimi? Podshohning ishq qurbaqaga tushgan ekan.

Nigora xayolan o'zini kamsitib, u ayolni ko'kka ko'tara boshladı. Lekin qancha o'ylasa ham o'zidan ortiq joyini topolmadi.

Boshida qattiq og'riq turgan Nigora joyiga yetib olmasa yiqilib tushishini bilib qo'zg'almoqchi bo'ldi, aksiga oyoqlari yerga mixlanganday yurishga qo'yamadi. Belida paydo bo'lgan kuchli sanchiqdan og'ir ingragancha bor gavdasi bilan gilamga ag'anab tushdi. Boshi yerga tegib, og'riq to'xtadimi, par yostiqqa bosh qo'yganday rohatlandi.

Yugurgilab kelgan Zebo, hovlida hech kimni ko'rmaning, to'ppa-to'g'ri yotoqxonaga otolib kirdi-yu, gilamda cho'zilib yotgan Nigoranı ko'rib, esini yo'qotayozdi. Jonholatda telefonga yopishib tez yordam chaqirdi.

Yomg'irli Kun Fojiasi

Jala tinmay quyar, shamol xuddi jahl qilganday o'kirib yo'lida uchrangan nimaiki bo'lsa, hammasini ayamay surib ketmoqda edi.. Momaqaldoiroq vahshat bilan chor-atrofga suron soldi. Tunuka tomga tushgan yomg'ir tomchilari taraqlab, tarnovdag'i suv sharillab oqqanidan telefonning to'xtovsiz jiringlagani ham eshitilmadi. Bir qo'lini beliga tirab, ikkinchisini eshik kesakisiga qo'yib olgan Umida ko'zlarini chaqchaytirgancha RusB=tamga alamli tikilib turardi. Shu turishda u ko'zoynakli ilonning o'zginasi edi.

Joni xalqumiga kelgan Rustam, lunji pir-pir uchib, alamidan bor bisotidagi bor so'zlar bilan yer tepinib so'kindi.

Rustam beixtiyor qo'l ko'tardi.

Yo hozir o'tkazvorasan, yo

Yo nima qilasiz? Qo'lingizdan kelganini qiling, agar hozir chiqib ketsangiz bir umr pushaymon bo'lib yurasiz, ovora bo'l mang.

Yerga kirsangiz qulog'ingizdan, osmonga chiqsangiz oyog'ingizdan tortib olaman.

Kim seni tashlab ketyapti, uygamas, ishga borishim kerak, g'alcha, mendan boshqa hech kim yo'q, bugun navbatchiman.

Bilaman qanaqa navbatchisiz, xotiningizni kuchoqlagizingiz kelib qolgan. Bir kun oldida yotmasangiz, o'lib qolmaysiz. Qaytanga yaxshi bo'ldi. Endi sizni poylamaydi, yostig'ini quchoqlab yotaveradi, balki uyigayam ketib qolgandir.

Rustam shunaqa bo'lishi mumkinligini hozir aniq his etib, alamini Umidaga sochdi.

Qanjiq, maraz, nega jim yurolmaysan, nima yetmaydi o'zi senga?

Mengami? Siz!

O'zi sen hech qachon minnatdor bo'l maysan, uylanib keyin ketvorsam qo'lingdan nima kelardi, nima qilarding, senga birov ko'zi uchib turibdimi?

Hali yuzimga soladigan bo'lib qoldingizmi?

Ha, xotinimni aralashtirishga haqqing yo'q edi.

Balki yaxshi ko'rib ham qolgandirsiz? Siz hali shoshmay turing, u endi umuman yura olmaydigan bo'lib qoladi.

Momaqaldiroq qattiq gumburladi. Rustam urmadni. Bor kuchi bilan ko'tarib, otib yubordi. Yonboshi bilan stolga borib urilgan Umida ikki bukilib, uvillab yig'lashga tushdi.

Yomg'ir shaharni obdon yuvib shalabbo qilgan, kuchli shamol ba'zi daraxtlarni yiqitib ulgurgan. Yarim tunda juda katta tezlikda ketayotgan Rustam hech qaysi chorrahada to'xtamadi. "Ahmoqqa o'xshab, tez yetib keling desa, nega keldim o'zi, hamma narsa chalkashib ketdi, ertaga nima bo'larkin, tezroq borish kerak, ishxona tinchmikan o'zi?! Ishxona tinch bo'lsa, Nigordan xabar olish kerak, nima qildiykin, ishqilib uyda bo'lsin". Mashinani xuddi birov boshqarayotganday hech nimani idrok qilmasdi. Kasalxona hovlisida mashinadan shoshib tusharkan, yo'lakda yugurib kelayotgan Ziyodani oynadan ko'rib, unga tomon shoshildi.

Nima gap Ziyo?..

Rustam aka, nimaga telefonni olmadingiz? Ўзбек Tez yordamb ўзбек bittasini obkeldi. Ahvoli yomon. Kelavermaganingizdan keyin Xayrullo akani chaqirdim.

Keldimi?

Olib kirib ketdilar. Boshlashganiga ancha bo'ldi.

Rustam operatsiya zaliga yugurdi. Jonholatda yuvinib, operatsiya xonasiga kirishi bilan Xayrullo uni so'kib berdi:

Qisib ishlasang o'lasanmi?

Bo'laqol. Bolaga kechikib bo'ldik shekilli. O'ziga ulgurishimiz kerak. Qon bosimi tushib ketyapti. Suv ancha oldin ketib bo'l gan. Hushsiz qolganmi, bu yoqqa kelgunchayam ancha vaqt o'tib ketgan. Men kelganimda bolasi qimirlamayotuvdi. Rustam, eplolmaymizmi?

O'zingni bos, eplaymiz.

Neonatolog kelganmi?

Chaqirdim, shu yerda! Rangi oppoq Ziyoda telba-teskari javob berdi.

Xayrullo adashmagan edi. Jismi yaralib, hayot baxsh etilmagan go'dakni joni bilan birga yig'i ham tark etibdi. Xasis dunyo mittigina yurakchadan inga-ingani ham qizg'anibdi.

O'g'il ekan.

Bolani ko'targan Rustam kindigi kesilayotganda, qip-qizil qonga belanib, allaqachon murda qiyofasiga kirgan ayolning rangsiz yuziga

Nima bu?

Nima?

Kim bu?

K-i-i-m?

Vahshat ichida bolaga qaradi. Ko'zları yumuq. Ko'm-ko'k chaqaloq. O'g'il sochlari qop-qora, nafas olmaydi. O'g'lim-ku! Meniki, nega nafas olmaydi? U jon holatda bolani silkita boshladi.

Hamma unga hayron boqdi.

Ziyoda qo'lidagi asboblarni yerga tushirib yubordi. "Nima bo'lyapti o'zi?"

Qo'y!!!

Xayrulloning tovushidan o'ziga kelgan Rustam shundagina jonsiz vujudga ozor berayotganini tushundi. Ongi uni tark etdi, vujudi bo'm-bo'sh qoldi. Qo'llari titragancha go'dakni avaylab neonatolog qo'liga topshirdi.

Nega dovdirayapsan?! Xayrullo tirik murdaning qonsiz yuzi, rangsiz labiga, yumuq ko'zlariga qarab kimnidir eslatdi. Kim edi?

Ko'z oldida tanish qiyofa jonlandi. Juda tanish. Burnini yolg'ondan tortib qo'yadigan kelin!

A!

Eh!

Endi

He onalarin qimirlalaring tezroq. Professorni chaqirtiringlar, qon to'xtamayapti.

Qon quyish kerak!

Qon gruppasi nechchi?

Nechchi qoni?

Rustamning jim turishidan qoni qaynagan Xayrullo bor ovozda baqirdi.

Karaxt ahvoldagi Rustamning tili javob berdi:

To'rtinchi!

Xayrullo yer tepindi. Qo'lidagi asboblarni tashqariga otgisi, ketidan o'zi ham otilib-gisi keldi. Keyin o'zini qo'lga oldi. Bir ahvolda turgan Rustamga:

Rustam, o'zingni tut! Xotingga ulgurishimiz kerak! deya oldi xolos.

Halidtan beri pastki labini tinmay tishlayotgan neonatolog, dovdirayotgan Ziyoda, akusherlar, nima gapligini tushunishdi-yu, dardlarini ichlariga yutishdi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Qon bosimiga ketdi.

Qon to'xtamayapti.

Hammasi bir necha soniyada bo'lib o'tdi.

Butun bor mahoratini ishga solgan Xayrullo oxiri chekindi. Qaror, bir qarorga kelish kerak.

Qarorni Rustam qabul qilishi kerak edi.

Bunaqa paytda hech so'zsiz ishga kirishgan Xayrullo, o'zing tanla degandek, Rustamga tikildi.

Vaqt oz. Bunaqa paytda vaqt deganlari yurakni qiymalamaydi, qaytanga tomiringda oqayotgan qondan oldin yugurib, marraga yetkazib qo'yadi. Shusiz ham jamiki izardorlar olovida yonayotgan Rustam, ming azob bilan Nigoraning yuzlariga endi bиринчи мarta o'зgacha mehr bilan tikildi. Xotinining qanchalik munis, beozorligi, mehribonligini, doimo nimadandir cho'chib, hadiksirib yashaganini his qildi. Qidirgani ko'nglidagi tuyg'ulari, Umida emas, Nigorada yashaganligini tan oldi. Nigorasi turmush qurgandan beri hech kimdan mehr ko'rмаган edi, mehrga tashna edi. Qalbidagi iliq tuyg'ular, ardoqlab o'stirgan muhabbatini ulashishga odam topolmay hammasini farzandiga atab qo'yg'an edi. To'qqiz oy mehr bilan kutgan go'dagi bilan hattoki yuz ham ko'rishishmadi.

Tashqarida yomg'ir yog'adi. Kechga tomon boshlagan yomg'ir bor alamini to'kib solayotganday chelaklab quyardi. Rustamning ko'z yoshlar seli yuzidagi niqbobi jiqqa ho'l qilib yubordi. Shoshilish kerak. Boshqa iloji yo'q. Ko'z yoshlari shashqator oqdi. Boshqa iloji yo'q, xotinini qutqarish kerak edi. U ... ha, u o'z qo'llari bilan Nigoraning bachadonini olib tashladi.

Xotima O'rnida

Kunlar isib ketdi.

Gulini to'kkан daraxtlar allaqachon mevaga kirgan. Bahor o'z o'rnini saratonga bo'shatishga shoshiladi.

Nigora o'ziga kelib qoldi. Qushlarni chug'ur-chug'uri qulog'iga yoqmaganidan derazani ochtirmaydi. Qushlar buni bilib jahл qilganday battar avjiga chiqarib chah-chahlashadi. Derazadan tiniq osmondagи pag'a-pag'a bulutlarga tikilib yotadi. Onasini ertalab kelgan yangasiga qo'shib zo'rg'a uyiga jo'natdi. Volidasi tuni bilan mijja qoqmay chiqishdi. Dam olishsin.

Oxirgi paytda hamma bir-biridan ko'zini olib qochadi. Haqiqatdan berkingan barcha ko'zlarning nigohida bir savol: "Endi nima bo'ladi?"

Ko'zlar ich-ichiga botib ketgan, xalatining yelkalari osilib qolgan Rustam titrab-qaqshab palataga kirganda Nigora har galgidek oynadan tashqariga tikilib yotardi. Nima deyishni bilmay g'o'ldiradi. Haroratini hozirgina o'lchab chiqqan hamshiradan bilgan, qon bosimi oshmagan, tuzukmisan degani bilan nima javob berardi. O'z ko'nglida xotinining peshonasini ushlagan bo'ldi-yu, tilidan baribir shu savol uchdi:

Tuzukmisan?

Nigora tashqaridan ko'z uzmay, javob qaytarmadi.

Rustam mehribon tovushda:

Ertaga chiqamiz, Nigor! dedi-yu, ko'ngli buzildi.

Rustam buni aytmasa ham bo'lardi.

Ertagacha o'rtada yana bir tun bor.

Mashina darvoza yonida to'xtaganda Nigor kipriklari nam edi. Hovlida qaynonasi bilan salomlashdi, kichik qaynegachisi bilan ovsini oshxonadan chiqishmadi.

Nigora bu haqda o'ylab ham ko'rmedi.

Mehmonxonasiga ovoz chiqarmay kirgan Nigora chinnilar qutilarga joylangan, bo'm-bo'sh qolgan mebellarga ko'zi tushib, yotoqxonaga kirdi. Karavot ustiga taxlab qo'yilgan bo'xchalarga qarab indamay yerga o'tirdi.

Hovliga kirishi bilan qaynonasiningsov uqosh qarashidan hammasini sezgan edi.

Shu ahvolda harakatsiz o'tiraverdi.

O'ziga kelganda uy ichi ancha qorong'ilashib qolgandi. Uyiga qandoq kirgan bo'lsa, xuddi shu alfovorda hovliga chiqdi. O'zini ta'qib qilayotgan nigohlarni hayratda qoldirib, gap-so'zsiz bitta-bitta bosib hovlini tark etdi.

Ko'chaga chiqqanda quyosh botib qolgandi.

Nigora quyosha yetib olishga shoshilganday ufq sari yurib ketdi.